

ISMAILOVA ZUXRA KARABOYEVNA,  
MAXSUDOV PO'LATJON MAXSUDOVICH,  
ERGASHEV OYBEK KARIMOVICH,  
MATKARIMOV KAMOLIDDIN JO'RABOYEVICH

# MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI

O'QUV QOLLANMA

Тошкент-2019



# **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**Ismailova Zuxra Koraboyevna, Maxsudov Po‘latjon  
Maxsudovich, Ergashev Oyber Karimovich, Matkarimov  
Kamoliddin Jo‘raboyevich**

## **MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI**

**(O‘quv qo‘llanma)**

**Mutahassisliklar:** 5A311001- Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish (suv xo‘jaligida)  
5A630101- Atrof muhit muhofazasi (geoaxborot tizimlari)  
5A630101- Atrof muhit muhofazasi (xalqaro yer va suv resurslarini boshqarish)  
5A450301- Gidromeliorasiya ishlarini mexanizasiyalashtirish  
5A320310-To‘qimachilik va yengil sanoat mashinalari va apparatlari  
5A320902-To‘qimachilik xom ashyolarini qayta ishlash texnologiyasi (yigiruv texnologiyasi)  
5A321202-Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta)  
5A320407-Kimyoviy texnologiya va apparatlari (noorganik va organik ishlab chiqarish bo‘yicha)  
5A410501-Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (meva-sabzavot mahsulotlari)  
5A320902-Tikuv buyumlari texnologiyasi va konstruksiyasini ishlash

**Toshkent - 2018**

**Annotatsiya.** O'quv qo'llanma magistratura ta'limining 5A311001- Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish (suv xo'jaligida), 5A630101- Atrof muhit muhofazasi (geoaxborot tizimlari), 5A630101- Atrof muhit muhofazasi (xalqaro yer va suv resurslarini boshqarish), 5A450301- Gidromeliorasiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish, 5A320310-To'qimachilik va yengil sanoat mashinalari va apparatlari, 5A320902-To'qimachilik xom ashyolarini qayta ishlash texnologiyasi (yigiruv texnologiyasi), 5A321202-Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta), 5A320407-Kimyoviy texnologiya va apparatlari (noorganik va organik ishlab chiqarish bo'yicha), 5A410501-Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (meva-sabzavot mahsulotlari), 5A320902-Tikuv buyumlari texnologiyasi va konstruksiyasini ishlash mutaxassisliklari o'quv dasturiga asosan tayyorlangan bo'lib, yuqoridagi mutaxassisliklar magistrantlari uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmada maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari, oily ta'limning me'yoriy-huquqiy hujjatlari, ta'lim tamoyillari, maxsus fanlardan ma'ruza, tajriba va amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish hamda o'tkazish metodikasi bo'yicha o'quv materiallar o'z aksini topgan. Shuningdek, qo'llanmada talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash hamda dars tahlili va uni o'tkazish metodikasiga oid materiallar ham berilgan.

**Аннотация.** Учебное пособие предназначено для магистрантов специальностей 5A311001- Автоматизация производства и технологических процессов (водное хозяйство), 5A630101- Охрана окружающей среды (геоинформационные системы), 5A630101-Охрана окружающей среды (управление международной земельными и водными ресурсами), 5A450301- Механизация гидромелиоративных работ, 5A320310-Машины и аппараты текстильной и легкой промышленности, 5A320902-Технология переработки текстильного сырья (технология пряжи), 5A321202-Первичная обработка натуральных волокон (хлопок), 5A320407-Машины и аппараты химической технологии (по органической и неорганической производстве), 5A410501-Технология первичной обработке и хранения сельскохозяйственных продуктов (плодо-овощные продукты), 5A320902-Технология швейных изделий и разработка их конструкции и подготовлено по учебной программы вышеизложенных специальностей.

В учебной пособии представлены материалы цели и задачи дисциплины методике преподавания специальных дисциплин, учебно-правовые документы высшего образования, принципы обучения, организация и проведения лекционных, лабораторных а также практических занятий по специальным дисциплин. А также приведены материалы по оценке и контроля знаний, умений и навыков студентов, анализ занятий и методика их проведения.

**Annotation.** The manual is intended for undergraduates of specialties 5A311001- Automation of production and technological processes (water management), 5A630101- Environmental protection (geoinformation systems), 5A630101-Environmental protection (management of international land and water resources), 5A450301- Mechanization of irrigation and drainage works, 5A320310- Machines and devices of textile and light industry, 5A320902-Technology for the processing of textile raw materials (yarn technology), 5A321202-Primary processing of natural fibers (cotton), 5A320407- Machines and devices for chemical technology (for organic and inorganic production), 5A410501- Technology for primary processing and storage of agricultural products (fruit and vegetable products ), 5A320902-Technology of garments and development of their design and prepared according to the curriculum of the above specialties.

In the training manual materials of the purpose and objectives of the discipline are presented to the method of teaching special disciplines, the teaching and legal documents of higher education, the principles of teaching, the organization and conduct of lecture, laboratory and practical classes in special disciplines. And also the materials on the evaluation and control of students' knowledge, abilities and skills, the analysis of classes and the methods of their conduct are given.

**Taqrizchilar:**

D.O.Ximmataliyev-Toshkent irrigatsiya va qishliq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti, ped.f.d.  
R.M.Muradov-Namangan muhandislik-texnologiya instituti "Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi" kafedrasida professori, tex.f.d.

## MUNDARIJA

|                                                                                |     |
|--------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Kirish.....                                                                    | 4   |
| Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining mazmuni, predmeti va maqsadi..... | 7   |
| Oliy ta'limning me'yoriy-huquqiy xujjatlari.....                               | 17  |
| Ta'lim tamoyillari.....                                                        | 48  |
| Maxsus fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllari.....                          | 65  |
| Maxsus fanlarni o'qitishni metodlari.....                                      | 85  |
| Ta'lim jarayonida ko'rgazmali vositalaridan foydalanish metodikasi.....        | 100 |
| Maxsus fanlardan tajriba - amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi.....   | 113 |
| Talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash.....      | 121 |
| Dars tahlili va uni o'tkazish metodikasi.....                                  | 142 |
| Glossariy.....                                                                 | 152 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....                                        | 162 |

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining ijtimoiy yo‘nalishida amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida oliy ta’lim muassasalari uchun pedagoglarning yangi avlodini shakllantirish, ma’naviy-ahloqiy jihatdan etuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga etkazish vazifalari ham belgilab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida " ... ta’lim jarayonini, oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta’lim jarayoninisifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarini joriy etish asosida yanada takomillashtirish"lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Bunday sharoitda ijtimoiy ahamiyatli bilim va qadriyatlar jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to‘la javob bera olish layoqatiga ega, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o‘zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnatbozorida mutaxassislar malakasiga qo‘yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurita oluvchi mutaxassisni shakllantirishga yo‘naltirilmog‘i lozim.

Xalq xo‘jaligining turli sohalari hamda oliy ta’lim muassasalari uchun etuk pedagog kadrlar zaxirasini tayërlash magistratura ta’limining asosiy vazifalari hisoblanadi. Ushbu vazifani hal etishda o‘quv rejadagi "Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi" fani ham muhim o‘rin egallaydi.

Oliy ta’lim muassasalari magistrantlarining kasbiy-pedagogik rivojlanishi ularning mustaqil fikrlashlari, ijodkorliklari, faolliklari, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining

turg'unlashuvi hamda o'z o'zini tarbiyalashga bo'g'liq bo'lgan ehtiyojlarining shakllanishi, ijtimoiy shaxsiy qiziqishlarining kasbiy-pedagogik yo'nalishga ega bo'lishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak mutaxassis uchun magistraturada ta'lim olish jarayoni bu magistrantlarda ilmiy-pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda kasbiy jihatdan ahamiyatli sanalgan sifat, bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirish davri hamdir. Pedagog shaxsi shakllanishining ushbu davrida bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishda ularni samarali qo'llash kabi jihatlarni o'zida mujassam ettirgan jarayon uzluksizravishda amalga oshirildi. Pedagogik-psixologik faoliyat bilan bog'liq qarash, qadriyat hamda motivatsiyalar mohiyatan o'zgarib, takomillashib boradi. SHu bilan barobar ravishda magistrantlar oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jaraenini amalga oshirish malaka larini ham egallab boradilar.

Magistrantlarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda faol va samarali usul hamda shakllardan foydalaniladi. Ular oliy ta'lim muassasalarida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini ta'lim muassasasi sharoitiga qiyinchiliksiz ko'chira olishi, ta'lim jaraeninitez o'zlashtirib olishi, tarbiyaviy ishlarni zamon talablari asosida olib borishlari kerak.

Hozirgi kunda magistratura mutaxassisliklari o'quv rejalarida tanlov fani hisoblangan "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" o'quv fani barcha mutaxassisliklar uchun 20 soat ma'ruza va 40 soat amaliy mashg'ulot tarzida rejalashtirilgan.

Mualliflar mazkur o'quv qo'llanmada maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari, ta'lim tamoyillari, maxsus fanlardan ma'ruza, tajriba va amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish hamda o'tkazish metodikasi bo'yicha o'quv materiallar o'z aksini topgan. Shuningdek, qo'llanmada talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash hamda dars tahlili va uni o'tkazish metodikasiga oid materiallarini berishga harakat qilganlar.

Mazkur o'quv qo'llanma shu sohadagi qadamlardan biri bo'lib, uning tuzilishi va mazmuni to'g'risida bildirilgan fikr va mulohazalar kelajakda uni yanada takomillashtirishga yordam beradi deb o'ylaymiz.

## 1. MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA MAQSADI

**Tayanch so'z va iboralar:** *“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish, oliy ta'lim tizimi, fanning maqsadi va vazifalari, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, didaktika, metodika, metod, kasbiy pedagogika, o'qitish metodikasi, kasb, mahorat, tadqiqot metodlari, kuzatish usuli, suhbat usuli, pedagogik so'rov usuli, test, so'rovnomalar, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usuli, ijtimoiy tadqiqot usuli, biomexanik usullar, psixofiziologik usullar.*

### 1.1.O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da oliy ta'limga qo'yilgan talablar.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunining maqsadi fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, davlat ta'limi standarti va o'quv rejasi kabi me'yoriy hujjatlarda bugungi kunda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishga qo'yilgan talablar o'z aksini topgan. Ushbu hujjatlarda chuqur bilimli, erkin fikrlovchi, o'zida yuksak insoniy fazilatlarni mujassam etgan barkamol shaxsni tarbiyalash birinchi galdagi vazifa etib belgilangan. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

**shaxs** – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

**davlat va jamiyat** – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

**uzluksiz ta'lim** – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

**fan** – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

**ishlab chiqarish** – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

## **1.2. Oliy ta'lim tizimi.**

O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning joriy etilishi yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarni hamda zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni va tadbik etishni takozo qildi.

Shu nuqtai nazardan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim jarayoni, mazmunini islox qilish asosan, me'yoriy xujjatlar majmuasi (davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari va dasturlari) asosida, kadrlarga ta'lim va tarbiya berish milliy istiqlool g'oyalariga muvofiq amalga oshirilishi alohida ta'kidlab o'tilgan

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi hamda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor sohadir.

Uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustuvorligi ta'minlanadi.

Ta'limning uzluksizligi shunday ma'no beradiki, inson tug'ilgandan boshlab to umrining oxirigacha ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Bunday tizim O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida o'z aksini topgan.

*Oliy ta'lim* – uzluksiz ta'lim tizimining yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. U oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

*Bakalavriat* – o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'lim;

*Magistratura* - aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

*Bakalavr, magistr* – oliy ta'limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajalardir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, bakalavriat va magistratura bosqichiga bo'linadi.

Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asoslarda amalga oshiriladi.

Bakalavriat mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim hisoblanadi.

Bakalavrlilik dasturi tugallanganidan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo'yicha "bakalavr" darajasi beriladi va davlat tomonidan

tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim hisoblanadi.

«Magistr» darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magistrlik dasturining yakunlovchi bosqichidir. Magistr'larga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Ikki bosqichli oliy ta'lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

bakalavriat va magistratura uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

oliy ta'lim muassasalari uchun professor-o'qituvchi kadrlar tayyorlash, shu jumladan xorijiy davlatlardagi etakchi o'quv va ilmiy markazlarda tayyorlash;

oliy ta'lim muassasalarida tarkibiy o'zgartishlar o'tkazish;

oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, bu muassasalarning mustaqilligini kuchaytirish, muassislar, vasiylar kengashlari, jamoat nazorat kengashlari shaklidagi jamoat boshqaruvini joriy etish;

ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish hamda o'zlashtirish;


pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirish;

xalqning boy ma'naviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ta'limning insonparvarlik yo'nalishini ta'minlash.

### 1.3. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi pedagogik fan sifatida. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi fanini predmeti, maqsad va vazifalari.

Bugungi kunda magistratura mutaxassisliklaridagi “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” fani tanlov fani hisoblanib, fanning o‘quv dasturi har bir oliy ta’lim muassasasidagi shu fanni o‘qitishga ma’sul bo‘lgan professor – o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilmoqda.

“Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” fani bo‘yicha o‘quv dasturini tuzishda uning quyidagi maqsad va vazifalarini hisobga olish dastur mukammalligini oshiradi (1.1-rasm).



1.1-rasm. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi fanining maqsadi va vazifalari.

Fanning ma’ruza mashg‘ulotlarida oliy ta’limning me’yoriy-huquqiy xujjatlari, ta’lim tamoillari, maxsus fanlarni o‘qitishning tashkiliy shakllari va amalga oshirish metodlari, maxsus fanlardan ma’ruza, amaliy va tajriba mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodikasi, talabalar bilan kunikma va malakalarini nazorat qilish va baholash kabi mavzular o‘rin olgan.

Amaliy mashg‘ulotlarda esa, fanga oid quyidagi mavzularga o‘rin ajratilgan: oliy ta’lim muassasalarining tuzilmasi va mazmuni, oliy ta’limning me’yoriy – huquqiy xujjatlarini tuzilishi va ularni rasmiylashtirish, ta’lim metodlari va ularni amalga oshirish metodikasi, maxsus fanlarni o‘qitishda innovatsion ta’lim

texnologiyalaridan foydalanish, maxsus fanlardan ma'ruza, amaliy va tajriba mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi, darsni tahlil qilish metodikasi bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

#### **1.4. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining tadqiqot metodlari.**

Maxsus fanlarni o'qitish muammolariga qaratilgan ilmiy izlanishlar o'tkazishdan maqsad o'qitish va o'rgatishning, samarali metodlarni ishlab chiqish va amalda qo'llash, axborot-texnik vositalarni qo'llashga doir masalalarni yechishni o'rganishdan iboratdir. Ilmiy izlanishlar olib borish uchun o'qituvchida fanning mazmunini chuqur bilishni talab etiladi. Ko'pchilik bo'lajak pedagoglar talabalik vaqtlaridayoq pedagogik izlanishlar bilan shug'ullanadilar. Fan bo'yicha metodik ko'rsatmalar, maketlar, mustaqil ishlar uchun materiallar tayyorlaydilar. Ilmiy anjuman va seminarlarda ma'ruzalari bilan qatnashib, o'zlarining pedagogik mahoratlarini oshirib boradilar.

Ilmiy pedagogik izlanishlar jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

##### *1. O'qituvchining adabiyotlarni o'rganish va amaliy ishlar asosida muammolarni aniqlashi.*

O'qituvchi adabiyotlarni o'rganish davomida quyidagilarni aniqlashi kerak:

- ✓ o'rganilayotgan muammo to'g'risida adabiyot muallifining fikr-mulohazasi;
- ✓ o'rganilayotgan muammo to'g'risida usullardan farqli ravish kiritgan takliflari;
- ✓ adabiyotlarda qaysi asosiy masalalar yoritilmagani;
- ✓ muammoni yechish uchun olib boriladigan izlanishlar.

Quyidagilar o'qitish jarayonida yuzaga keladigan muammolar hisoblanadi:

- ✓ o'qituvchi dars jarayonida duch keladigan qiyinchiliklar;
- ✓ kamchilik va qiyinchiliklarning yuzaga kelish sabablari.

##### *2. O'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish.*

✓ Dalillarni taqqoslash orqali asoslangan takliflar beriladi.

### *3. Izlanish natijalarini rasmiylashtirish va o'quv jarayonida qo'llash.*

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasida ilmiy izlanishlarning umumiy va maxsus usullari qo'llaniladi.

Umumilmiy usullarga nazariy izlanish, kuzatish, suhbat, pedagogik so'rov, test, so'rovnomalar, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqalar kiradi.

**Nazariy izlanish usuli** –adabiyotlardan o'rganish va tahlil qilish hamda pedagogic tajribalar asosida olib borilgan izlanishlar. Adabiyotlar ustida ishlashda kitob va jurnallar, maqolalar va patentlar, ilmiy ishlar, to'plamlar va kataloglar, internet tizimidan olingan ma'lumotlardan foydalaniladi

**Kuzatish usuli**- odatda, tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori muomalasidan o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'lim-tarbiya t'siri ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi/ Bu usul tadqiqotchining pedagogic tajribani muayyan bir tomoni va hodisalarni biror maqsadni ko'zda tutib idrok etishi tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish obyekti, Vaqti, pedagogic vaziyatlarni kuzatish uchun ajratilgan tavsif va hokazolar hisobga olinadi.

Qayd qilish usuliga qarab kuzatishlar turlarga bo'linadi. Bevosita va bevosita qayd qilish usuli tadqiqotchiga real pedagogic jarayonda kuzatuvchining xatti-xarakatlari kabilarni yozib qo'yish imkoini beradi. Bevosita qayd qilish usuli biror-bir hodisalarning oqibati haqidagi daliliy materialnin boshqa shaxslar orqali yoki qandaydir asbobni qo'llash vositasida olishga imkon beradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida kuzatishning visual usullari xilma-hil texnika vositalari (kinofilm, videotasvir, teleko'rsatuv)dan foydalanish oprqali tobora ko'p qo'llanilmoqda.

**Suhbat usuli**-so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rastishni talab etadi. Chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshning javoblarini yozmasdan, erkin muomala shaklida qo'llaniladi.

Suhbat usulida-o'qituvchilar va talabalar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan yakka va guruh tarzida olib borilganda qo'llaniladi. Suhbat usulida farqli ravishda intervyu olish usuli oldindan belgilangan savollarni izchillik bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va amaliyotda intervyu olishning ko'p usullari mavjud. Bular:

- guruhlar tarzida;
- jadal;
- sinov va h.k

Talabalar ijodini o'rganishda-ularning o'ziga hos individual tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, xulosalar yasaladi.

**Pedagogik so'rov usuli**- tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogic tajribaning biror tomoni yoki hodisalar haqida axborot olish jarayoni bu usulning asosini tashkil qiladi. So'rash usulida savollarning mantiqiy o'ylangan tizimini, uning aniq foydalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5 ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat'iy shakildagi javobni ("ha", "yo'q") ham taqazo etish mumkin.

**Test, so'rovnomalar**-so'rovnoma, ya'ni anketa usuli ilmiy farazning yangiligini aniqlash, yakka yoki guruh holdagi talabalarning fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

Test savollaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida talabalarning bilimlarini yoppasiga baholashdir.

Mutaxasislarning bilimini va dunyoqarashini aniqlash uslublaridan biri-bu test yordamidagi sinovdir. Test yordamida sinov talaba yoki mutahasisning bilimi, ilmi, ma'naviyati hamda yoshlarning qaysi yo'nalish va mutahasislikka layoqati borligini, iqtidorini zudlik bilan aniqlash va baholashga imkoniy beradi. Test yordamida bilimlarni baholashning pedagogic nuqtaviy nazaridan yutuqlari va kamchiliklari keltirilgan va baholash jarayonini EHM yordamida avtomatlashtirish mumkinligi takidlangan. Test savollari va masalalarning aniqligiga sabab, uning qisqa va lo'ndaligi, umumiy javoblar ichida to'g'ri javobning borligi va ularning

talabalarga ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi, uning topishmoqli o'yingga o'xshashligi va javobni topishda xotira, ichki tuyg'u va topqirliklar qo'l kelishidir. Test savollarini chop etish talabalarning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi.

**Tajriba-sinov eksperiment usuli**-ushbu tajriba ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tatbiqiy jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

**Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usuli** – ta'lim sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarining qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lab statistika usuli orqali aniqlanadi.

**Matematik va kibernetik usullar** – o'qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashnalari yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta'lim va uni mashina orqali boshqarish, o'qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, tabaqalashgan va individual ta'lim berish kabi jarayonlardir.

**Ijtimoiy tadqiqot usuli** – anketaga savollar kiritiladi. Bundan maqsad talaba-yoshlarning kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini, talabalar orasidagi do'stlik munosabatlarini, o'quv yurtidagi shart-sharoitlarini bilish, yutuq va kamchiliklarni, dinga, xususan tasavvuf ilmiga qiziqishlarini aniqlash, talabalarning ma'naviy sifatlarini, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, o'quv taqsimoti, o'qituvchilarning bilim berish darajasi, o'quv qo'llanmalarining sifati, kompyuterda mashg'ulot o'tkazish turlarini o'rganish, ilmiy va kasbiy mahoratni oshirishdagi mashg'ulotlar turi, stipendiyalar miqdori, stipendiyalar talabalarning qanchalik qoplashi, talabalarning haq to'lanadigan ishlarda qatnashishi, otalarining yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, talabalar qo'p boradigan jamoat joylari, yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir etuvchi, mutaxasssi bo'lib yetishishida hal qiluvchi omillar, talabalarining onglilik darajasi, komil inson bo'lish uchun kerak bo'lgan ma'naviy sifatlar, o'zlashtirganlik

darajasi haqida savollar anketaga kiritiladi. Savol-javolarning barchasi kompyuterda qayta ishlanadi va xuldosalar chiqariladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullardan tashqari kasb ta'limida maxsus usullardan ham foydalaniladi.

Kasb ta'limida tadqiqotning maxsus usullari keng tarqalib, unda hodisa va jarayonlarni o'rganishga yo'naltirilgan asbob-uskunalar va apparatlar ob'ektiv miqdoriy kattaliklarni olish maqsadida qo'llaniladi.

Tadqiqotning maxsus usullari shartli ravishda uch guruhga bo'linadi:

- Ish-harakatlarining natijaviy tafsilotini o'rganish (harakatlarni aniq bajarish, sarflanadigan vaqt, ish unumi) ga bog'liq bo'lgan usullar;
- Biomexanik usullar;
- Psixofiziologik usullar.

Ish-harakatlarining natijaviy ko'rsatkichlari bilan bog'liq tadqiqotlarda, shu jumladan, ularni o'zlashtirish jarayonida xronometraj kata rol o'ynaydi. Ish me'yori, maqbul vaqt, shu jumladan, ishlab chiqarish ta'limining turli davrlarida talabalar vaqt me'yori, tartibotini aniqlash maqsadida, shuningdek, harakatlarning vaqtinchalik tuzilmasini o'rganish talablari yoki ishchilarning tayyorgarlik darajasini baholash uchun xronometrajdan foydalaniladi.

Biomexanik usullar - bu ish-harakatining fazoviy vaqt va kuch parametrlarini o'rganishdir. Bunda ularning mukammallik darajasi, ishchining asbob, dastgoh va hokazolar bilan o'zaro kuch ta'sirida, asbob va qo'l harakatining kinematikasi va boshqalar aniqlanadi.

Psixologik usullar o'quv va mehnat faoliyati jarayonida inson organizmining turli a'zolarining funksional holatini o'rganishda foydalaniladi. Bulardan elektromiografiya, elektrokardiografiya, elektrodermografiya usullari keng qo'llaniladi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da oliy ta'limga qanday talablar qo'yilgan?

2. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanini maqsad va vazifalari nimbardan iborat?
3. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining asosiy tushunchalari haqida fikr bildiring?
4. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining umumiy metodlarini tushuntiring?
5. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining maxsus metodlarini tushuntiring?

## **2. OLIY TA'LIMNING ME'YORIY-HUQUQIY XUJJATLARI**


***Tayanch so'z va iboralar:** Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, mutaxassisliklar klassifikatori, o'quv reja, namunaviy va ishchi o'quv reja, o'quv dasturi, namunaviy va ishchi o'quv dastur, taqvimiy mavzular rejasi.*

### **2.1.Davlat ta'lim standarti. Malaka talablari**

“Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga, Kadrlar tayyovlash milliy dasturi qoidalapiga muvofiq respublikada idopaviy bo'ysinishi va mulkchilik shakllapidan qat'i nazir ta'lim muassasalapining barcha tuplari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari (DTS) belgilanadi.

Bakalariat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Davlat ta'lim standartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli hamda 2013 yil 10 iyuldagi 199-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan “Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar” talablariga qat'iy rioya etgan holda tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqariladi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim mazmunini belgilash va uning asosida ta'lim jarayonini tashkil etish davlat ta'lim standarti, o'quv rejasi, o'quv dasturi, metodik materiallar banki, ya'ni darslik yoki o'quv qo'llanmalarda ifodalanadi (2.1-rasm).



2.1 – rasm. Oliy ta’limning me’yoriy-huquqiy xujjatlari.

Oliy ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan DTSlarga uzluksiz ta’limni standartlashtirish bo’yicha texnik qo‘mitaning “Ekspert xulosasi”, turdosh Oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari bilan kelishilganligi to’g’risidagi “Kelishuv bayonnomasi” va “Kelishuv dalolatnomasi”, Fanlar akademiyasining tarmoq ilmiy tadqiqot institutlaridan olingan taqrizlar, Muvofiqlashtiruvchi kengash qoshidagi tegishli o‘quv-uslubiy birlashma bayonnomasidan ko‘chirma, Davlat test markazi ekspert xulosasi ilova qilinadi.

DTS va o‘quv rejalar tayanch OTM rektori tomonidan imzolangan rasmiy xat bilan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Rivojlantirish markaziga takdim etiladi. Xatga ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining amaldagi Klassifikatorga moslashtirilgan ro‘yxati ilova qilinadi.

DTS - standaptlashtirish ob’ektiga nisbatan me’yoplap va talablapni belgilaydi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Standaptlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq tasdiqlanadi va quyidagilarni belgilab beradi:

- ✓kadrlar tayyoplash sifatiga, ta’lim mazmuniga nisbatan qo‘yiladigan talablapni;

- ✓ta’lim oluvchilar tayyopgapligining zapup va etaplicha dapajasini hamda ta’lim muassasalari bitipuvchilapiga nisbatan qo‘yiladigan malaka talablapini;

- ✓o‘quv yuklamasining zapup hajmini;

- ✓ta’lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyoplash sifatini baholash taptibi va mexanizmini belgilaydi.

DTS ta'lim japayonini va ta'lim muassasalari faoliyatini baholashni taptibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlar yaratish uchun asos hisoblanadi.

Davlat ta'lim standartlari joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ✓ ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, pivojlangan demokratik davlat barcha etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;

- ✓ mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbolidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini taptibga solish;

- ✓ ta'limning demokratizatsiyasi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek, ta'lim japayoni samaradorligini oshirish;

- ✓ sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

- ✓ kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va taptibini belgilash;

- ✓ ta'lim japayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv-tarbiya japayonini maqbulashtirish;

- ✓ mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash.

#### **Davlat ta'lim standartlarining vazifalari:**

- ✓ ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;

- ✓ ta'limga va uning natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb-kor malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash taptibi va taptibotiga, shuningdek, ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy bazani yaratish;

✓ xalqning boy intellektual mevasi va umuminsoniy qadpiyatlap asosida ta'lim oluvchilapni ma'naviy-axloqiy tapbiyalashning samapali shakllapi va usullapini jopiy etish;

✓ ta'limning bapcha tuplapi mazmunini, ta'lim va tapbiyani kelishish va ulapning o'zapo bog'liqligi, uzluksiz ta'lim tizimida va kadplap tayyoplashda izchillikni ta'minlash;

✓ o'quv-tapbiya va ta'lim japayoniga, uzluksiz ta'lim tizimining pedagogik texnologiyalapiga va axbopot bilan ta'minlanishiga, ta'lim dapajasini nazopat qilishga, ta'lim muassasalapida ta'lim oluvchilap va ulapni bitipuvchilapining malakasiga nisbatan me'yoplap va talablapni belgilash;

✓ ta'lim va kadplap tayyoplash sifatiga baho bepishning xolis tizimini, ta'lim muassasalapini attestatsiyadan o'tkazish va akkpeditatsiya qilishni jopiy etish;

✓ kadplapni maqsadli va sifatli tayyoplash uchun ta'lim, fan va ishlab chihapishning samapali integpatsiyasini ta'minlash;

✓ milliy standaptlap talablapining ta'lim sifati va kadplap tayyoplashga nisbatan xalqapo talablapga muvofiqligini ta'minlash.

### **DTS ta'limning quyidagi turlari uchun belgilanadi:**

✓ umumiy o'pta ta'lim, shu jumladan boshlang'ich ta'lim;

✓ o'pta maxsus, kasb-hunap ta'limi;

✓ oliy ta'lim (bakalaviat, magistpatupa).

Maktabgacha, maktabdan tashqapi, oliy o'quv yuptidan keyingi ta'lim, kadplap malakasini oshipish va ulapni qayta tayyoplash uchun davlat boshqapuvining vakolatli opganlapi tomonidan davlat talablapni belgilanadi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarini bajarish yuzasidan va oliy ma'lumotli yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'limning uzluksizligi va davomiyligini ta'minlash, jahon ta'lim tizimiga qo'shilish, shuningdek, oliy ta'limning o'quv-metodik va me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan.

**Davlat ta’lim standarti (DTS)** – муайян таълим соҳасига (соҳа таркибига) қўйиладиган малака талаблари, таълим мазмуни, битирувчилар умумий тайёргарлигининг зарурий ва етарли даражасини, кадрлар тайёрлаш сифатини баҳолаш даражаларини белгилайдиган эталон даражаси.

DTS o‘quv jarayonini, ta’lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli me’yoriy hujjatlar (ta’lim sohalarining davlat ta’lim standartlari, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o‘quv rejalari, o‘quv fanlari dasturlari va boshqalar) yaratish uchun asos hisoblanadi.

OT DTS oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashda idoraviy bo‘ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir.

DTSga Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bosqichlarini amalga oshirish jarayonida, shuningdek, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlari, kadrlar tayyorlash borasida jahon tendensiyalaridan kelib chiqqan holda tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.


Oliy ta’lim standartlari quyidagi toifalarga bo‘linadi:

✓ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta’lim standartlari:

- Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar;
- Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori.

✓ Oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta’lim standartlari — ta’lim sohalarining davlat ta’lim standartlari.

Oliy ta'lim standartlari quyidagi toifalarga bo'linadi



2.2-rasm. Oliy ta'lim standartlari toifalari.

Muayyan ta'lim sohasining davlat ta'lim standarti quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- ✓ zarvaraq (titul);
- ✓ mundarija;
- ✓ muayyan ta'lim sohasi (soha tarkibi)ning umumiy tasnifi;
- ✓ bitiruvchilarning soha bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;
- ✓ o'quv reja tuzilmasi;
- ✓ kadrlar tayyorlash sifatini baholash.

Ta'lim sohasining davlat ta'lim standarti ikkita (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari) qismdan iborat bo'ladi.

**Me'yoriy hujjat turlari.** Quyidagilar oliy ta'limning me'yoriy hujjatlari hisoblanadi:

- ✓ oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligining malaka talablari, o'quv rejaları va o'quv fanlari dasturlari;

✓ oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'lim muassasalarining muayyan ish faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar.

**Me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish.** Oliy ta'limning ta'lim sohalari davlat ta'lim standartlari va me'yoriy hujjatlari «OT DTS. Asosiy qoidalar» va Oz DSt 1.0:1998, O'zRST 1.8-94, Oz DSt 1.9-1995. standartlariga muvofiq holda ishlab chiqiladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq o'quv jarayoni o'qitishning modul tizimiga asoslangan oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini mustaqil ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda quyidagi asosiy tamoyillarga alohida e'tibor berish lozim:

✓ Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida kadrlarni ildam tayyorlash, jahon tajribalari, mamlakat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini tegashli sohalarga muvofiqlik nuqtai nazaridan imkon darajasida unifikatsiyalash;

✓ bakalavriat ta'lim yo'nalishi va ularning negizidagi magistratura mutaxassisliklarining DTSlari bir vaqtda ishlab chiqilishi va birgalikda ekspertizadan o'tkazilishiga amal qilish;

✓ DTSlarni ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilish;

✓ har bir ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha malakaviy talablar mamlakatda va xorijda mavjud tajribalarni inobatga olgan holda diqqat bilan qayta ishlab chiqilishi, hamda uni tegishli sohalar bo'yicha amaliyotchi mutaxassislar bilan muhokamadan o'tkazish;

✓ malakaviy talablarda keltirilgan sifatlarni shakllantiruvchi eng zarur fanlarning kiritilishi, ularning hajmlari va ketma-ketligi uzluksiz ta'lim turlari bilan uzviyligini inobatga olgan holda ilmiy asoslash;

✓ bakalavriat va magistratura DTSlaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish;

✓ bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan ijtimoiy-gumanitar hamda tabiiy-ilmiy fanlar tarkibi va mazmunini shakllantirishda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi fanlari bilan uzviilikni ta'minlash;

✓ fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratish;

✓ o'quv rejalariga kiritilgan fanlar sonini bir semestrda 5-7 tadan ortmaslik shartini inobatga olib belgilash;

✓ ajratilgan auditoriya o'quv yuklamalarini semestr haftalariga qoldiqsiz taqsimlanishiga rioya etish;

✓ kichik hajmli fan auditoriya soatlarini bir semestr davomida mumkin qadar haftasiga kamida ikki akademik soatdan belgilash;

✓ DTSlarda belgilangan attestatsiya va nazoratlarga muvofiq bir fan yoki mavzu bo'yicha takroriy sinovlar o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik;

✓ malakaviy amaliyotlar soni, muddatlari va belgilanish davri ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanayotgan sohadagi ishlab chiqarish jarayoni va texnologiyalarining o'ziga xosligini inobatga olish, DTSlarda malakaviy amaliyot sifati va nufuzini oshirish hamda ishlab chiqarish va ularning mazmunini byurtmachilar talablari bilan muvofiqlashtirish;

✓ DTSlar, o'qitiladigan fanlar tarkibi va ularning mazmuniga qo'yiladigan talablar muayyan yo'nalish, mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlarning asosiy buyurtmachi va iste'molchisi bo'lgan vazirlik, idora, korxona va tashkilotlar bilan kelishish nazarda tutilgan.


**Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori** — oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir.

Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari klassifikatori O'zbekiston Respublikasining axborotlarni kodlash va tasniflash yagona tizimining (KTYAT) tarkibiy qismidir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» 1998 yil 5 yanvardagi 5-con qarorini bajarish yuzasidan ishlab chiqilgan.

Klassifikator «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash Milliy dastur to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning davlat dasturi haqida» 1998 yil 10 noyabridagi PF-2107-son Farmoniga asosan tuzilgan.


Klassifikator YUNESKO tomonidan 1997 yil mart oyida qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi (TXSK) prinsiplari asosida tuzilgan.

Unda quyidagi bilim sohalari ko'zda tutilgan (2.3-rasm).



2.3-rasm. Oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklarining klassifikatori.

Klassifikatorda ta'lim bosqichlari, bilim va ta'lim sohalari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari ettita raqamli kod bilan belgilanadi.



Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichlari bakalavriat yo'nalishlarida 5 raqami, magistratura mutaxassisliklarida — 5A (raqam va harf) bilan belgilangan. Masalan: bakalavrlar kodi 5140100, 5211300, 5520400 va hakozi; magistrlar 5A140101, 5A211301, 5A520403 va hakozi.

**Yo'nalishlar va mutaxassisliklar klassifikatoriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi.** Yo'nalishlar va mutaxassisliklar klassifikatoriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar kadrlar iste'molchilari tashabbusi bilan oliy ta'lim muassasalari tomonidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda tegishli qaror qabul qilish uchun kiritiladi.

Yo'nalish va mutaxassisliklar klassifikatorini o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- ✓ yo'nalish yoki mutaxassislikning ilmiy va amaliy ahamiyatini hamda mehnat bozorida mutaxassislarga bo'lgan istiqbol ehtiyojini asoslash;
- ✓ bakalavriat yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligining malaka talablari, o'quv rejasi loyihalari va boshqa o'ziga xos belgilari;
- ✓ yangi yo'nalish yoki mutaxassislikning ilmiy-pedagogik va moddiy-texnik ta'minoti mavjudligini asoslash.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorining etalonini O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi olib boradi.

Mazkur klassifikator tayyorlov yo'nalashlarining nomlari va kodlari, oliy ta'lim muassasalarida kasblar va ixtisosliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni belgilaydi.

Amaldagi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida 182 ta ta'lim yo'nalishlari va 434 ta mutaxassisliklar mavjud bo'lib, ular bilim sohalari bo'yicha quyidagicha taqsimlangan (2.1-jadval).

2.1-jadval

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini  
bilim sohalari bo'yicha taqsimlanishi

| Bilim sohalari nomi                    | Bilimlar sohasi bo'yicha ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari |                                     |
|----------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|-------------------------------------|
|                                        | Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari soni                              | Magistratura mutaxassisliklari soni |
|                                        | 5-bosqich                                                          | 5A-bosqich                          |
| Gumanitar soha                         | 59                                                                 | 113                                 |
| Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq        | 25                                                                 | 60                                  |
| Ishlab chiqarish-texnik soha           | 59                                                                 | 154                                 |
| Qishloq va suv xo'jaligi               | 19                                                                 | 47                                  |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot | 9                                                                  | 43                                  |
| Xizmatlar sohasi                       | 11                                                                 | 17                                  |
| <b>Jami</b>                            | <b>182</b>                                                         | <b>434</b>                          |

Oliy ta'limning tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat klassifikatori respublikaning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish istiqbollari mutaxassis tayyorlashda iqtisodiyot tarmoqlarining talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqildi va takomillashtirildi.

Oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari - ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash, o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

Oliy ta'lim muassasasi muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda malaka talab asosida o'quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

**Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:**

✓ mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish,

samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchilari;

- ✓ ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

- ✓ o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

- ✓ bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ✓ oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- ✓ oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- ✓ ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

**Muayyan ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- ✓ ilmiy-tadqiqot;

- ✓ tashkiliy-boshqaruv;

- ✓ loyiha – izlanish;

- ✓ ishlab chiqarish, texnologik;

- ✓ umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- ✓ turli xizmatlar ko'rsatish kabilarni o'z ichiga oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

**Ta'lim yo'nalishi uchun malaka talablarida quyidagilar o'z aksini topgan:**

- ✓ bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi;

- ✓ qo‘llanish sohasi;
- ✓ ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi;
- ✓ ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar;
- ✓ bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar;
- ✓ ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo‘yiladigan malaka talablari;
- ✓ ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar;
- ✓ ta’lim yo‘nalishi o‘quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar;
- ✓ malakaviy amaliyotga qo‘yiladigan talablar;
- ✓ ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi yuklama hajmi;
- ✓ malaka talablarining amal qilish muddati.

**Magistratura mutaxassisligining malaka talablari.** Oliy ta’limning malaka talablari magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash, o‘quv reja va fan dasturlarining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi. Oliy ta’lim muassasasi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash vakolatiga ega bo‘lganda ushbu malaka talablari asosida tayyorlangan o‘quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

**Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:**

- ✓ mazkur ta’lim sohasining magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o‘quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas’ul oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari;
- ✓ ta’lim sohasi magistratura mutaxassisliklarning o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

✓ o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari);

✓ bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

✓ oliy ta’lim muassasasini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

✓ oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

✓ ta’lim sohasining magistratura mutaxassisliklardan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo‘lgan bakalavrlar, ota-onalar va boshqa manfaatdorlar.

### **Mutaxassislik bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

✓ ilmiy-tadqiqot faoliyati;

✓ ishlab chiqarish faoliyati;

✓ tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

✓ oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

✓ konsalting xizmati faoliyati va shu kabilarni o‘z ichiga oladi.

Mutaxassislik bo‘yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta’lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta’lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

## **2.3. O‘quv reja va ishchi o‘quv reja.**

Ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi, asosiy xujjat - o‘quv rejalari hisoblanadi.

**O‘quv rejasi** - ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fan, ularning bo‘limlari, o‘qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o‘qitilishi, ularning o‘quv yili va haftasida qancha miqdorda o‘tilishi kerakligini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O‘zbekistonda o‘quv rejasi tegishli vazirlik tomonidan

tasdiqlanadi. Bir tipdagi ta'lim muassasalari uchun o'quv rejası yagona va majburiydir. SHu bilan birga, har bir ta'lim muassasasi o'quv rejasini belgilangan miqdorda o'zgartirishi mumkin. o'quv rejası O'quv rejasining umumiy va majburiyligi ta'lim tizimi bosqichlarining uzluksizligini, jamiyatning barcha a'zolariga ilm olishning bir xil imkoniyatlarini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilganligi uchun ham o'quv rejasida ta'limning insonparvarlashuviga alohida e'tibor berilgan. O'quv rejası muayyan qismlardan iborat bo'lib, ularda ta'lim muassasasi talabasi, talabasi yoki tinglovchisida shakllantirilishi lozim bo'lgan ilmiy, ma'naviy, kasbiy sifatlar hamda amaliy ko'nikma va malakalar hisobga olingan.

**O'quv reja** - oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari, kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan me'yoriy xujjatdir.

O'quv rejalari ikki turga bo'linadi: namunaviy va ishchi o'quv rejalari.

**Namunaviy o'quv reja** – oliy ta'lim muassasalarining aniq bir ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi uchun o'rnatilgan tartibda Davlat ta'lim standartlariga asosan tayanch oliy ta'lim muassasalarining tegishli kafedrasining yetakchi professor-o'qituvchilari tomonidan turdosh oliy ta'lim muassasalarining shu soha bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarini hamda kadrlarni buyurtmachilarini jalb etgan holda ishlab chiqiladigan me'yoriy huquqiy xujjatdir.

**Ishchi o'quv reja** - oliy ta'lim muassasasining aniq bir ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi uchun namunaviy o'quv reja asosida har o'quv yili uchun ishlab chiqiladigan va o'rnatilgan tartibda OTMning rektori tomonidan tasdiqlanadigan o'quv jarayonining asosiy me'yoriy hujjatidir.

O'quv rejada quyidagilar o'z ifodasini topadi:

1. Tayyorlov yo'nalshi (ixtisoslik) 5 kodi va uning nomlanishi, o'qish muddati, o'qishni tugatgandan so'ng olinadigan akademik darajasi.

2. Ta'lim shakli.
3. O'quv davrining taqsimoti (jadvali).
4. O'quv jarayonining rejası.

6.1.O'rganiladigan o'quv predmetlari.

6.2. Har bir o'quv predmetini o'rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori.

6.3. O'rganish uchun ajratilgan vaqtni – nazariy, amaliy va tajriba mashg'ulotlari, seminarlar, kurs ishlari va mustaqil ta'limga qanday miqdorda taqsimlanganligi.

6.4. O'quv predmetini qaysi kurs, semestrlarda, haftasiga qancha soatdan o'rganish tartibi.

7. Davlat Attestatsiyasi.

8. Tanlov fanlarinig ro'yxati

9. Izohlar

O'quv rejalarini ishlab chiqishda bo'lg'usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o'rganilayotgan o'quv fanlari miqdoriga va o'rganish davriga aniq mos tushishini e'tiborda tutmoq lozim. Bo'lg'usi mutaxasislarning bilim va ko'nikmalarining shakllanishini, har bir fanni bosqichma – bosqich chuqur o'rganishlari, qulay va muhimligini ham nazarda tutishi kerak bo'ladi.

O'quv rejasini ishlab chiqishdagi eng muhim masalalardan biri o'rganilishi lozim bo'lgan fanlarni aniqlashdan iborat. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish mazmunini aniqlash, odatda, amaliy tajribalar asosida hal qilinadi.

O'qitish mazmunini aniqlashda, asosan, oliy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifaga - doimo o'sib borayotgan ishlab chiqarish sharoitida faoliyat olib borishga qobil malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash vazifasiga asoslaniladi.

**Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari o'quv rejalariga qo'yiladigan umumiy talablar:**

Bakalavriatda o'quv rejaları va fanlar dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga

olgan holda ishlab chiqilishi va talabaning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o'zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

- gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va matematik hamda tabiiy-ilmiy;
- umumkasbiy fanlar;
- ixtisoslik fanlari;
- qo'shimcha fanlar.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlariga muvofiq ayrim oliy ta'lim muassasalari yoki ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha boshqa fanlar bloklari belgilanishi mumkin.

Kasb faoliyati ko'nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o'tilishi nazarda tutilishi shart.

O'quv rejalar majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejalarini o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uning o'quv rejalariga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

**Bakalavriat o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.**

***Gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va matematik hamda tabiiy-ilmiy fanlar bloki:***

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida olingan bilimlarni to'ldirishi va rivojlantirishi; milliy istiqlol g'oyasi va demokratiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida ilmiy va gumanitar dunyoqarashni, yuksak ma'naviyat va demokratik madaniyatni, iqtisodiy, huquqiy va ijodiy tafakkurni, e'tiqod va ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirishi;
- ta'limning tarix, falsafa, xalq an'analari, urf-odatlar bilan uzviy birligini, O'zbekiston xalqlari madaniyatini asrash va boyitishni, boshqa xalqlar tarixi va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ta'minlashi;
- insonparvarlik, vatanparvarlik va baynalminalchilik ruhini rivojlantirishi;

- ta'lim va tarbiya jarayonining mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qilishga qodir, har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilganligini ta'minlashi;

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzviylik hamda uzluksizlikni inobatga olgan holda bilishning matematik usullari, informatika hamda axborot to'plash, ularni qayta ishlash va uzatish usullarining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati haqida oliy darajadagi tasavvurlarni shakllantirishi;

- koinotning tabiiy ob'ekt ekanligi va uning evolyusiyasi; tabiiy fanlarning o'zaro fundamental birligi; zamonaviy tabiiy hodisalarni tadqiq etish konsepsiyasi; tabiatdan oqilona foydalanish va inson faoliyatining ekologik tamoyillari; tabiatga putur etkazmaydigan texnologiyalar yaratish istiqbollari haqidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantirishi;

- muayyan bilim sohasi uchun zarur bo'lgan fundamental fanlarni chuqur o'rganishning ilmiy va nazariy asoslarini ta'minlashi lozim.

#### ***Umumkasbiy fanlar bloki:***

- matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan maxsus fanlar o'rtasida ilmiy va nazariy bog'liqlikni ta'minlashi;

- maxsus fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi;

- modelli tasavvurlarni tajriba usullari va olingan natijalarni qayta ishlash yo'riqlariga oid bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini ta'minlashi lozim.

#### ***Ixtisoslik fanlari bloki:***

- bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

- tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishi;

- talabaning muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga ongli munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi lozim.

### ***Qo'shimcha fanlar bloki:***

- talabalarning bakalavriat ta'lim fanlari bo'yicha qo'shimcha ravishda chuqur bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishi;

- ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablar va mehnat bozori kon'yunkturasi tez o'zgarayotgan sharoitda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalar va fanlar dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo'lishini ta'minlashi lozim.

Magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalar va fanlar dasturi mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang'ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo'yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni ko'zda tutgan holda shakllantiriladi.

Magistratura mutaxassisliklari o'quv rejalar va fanlar dasturlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalar va fanlar dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o'zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:

- umummetodologik fanlar;
- mutaxassislik fanlari;
- ilmiy faoliyat.

O'quv rejalar va fanlar dasturlari majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi lozim.

Talabalarning o'quv rejalar va fanlar dasturlarini o'zlashtirishida o'quv fanlarining bir qancha masalalari va muammolari bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi zarur.

Magistratura mutaxassisliklari uning o'quv rejalariga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

**O'quv rejaning o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.**

### ***Umummetodologik fanlar bloki:***

- milliy istiqlol g'oyasi va gumanitar, texnik va tabiiy fanlarning falsafiy masalalari bo'yicha bilimlar berilishi;

- insoniyatning global muammolari, ma'naviy hayot, shaxs va jamiyat ehtiyojlari, ta'limning insonparvarlik ruhi, zamonaviy sivilizatsiya va uning taraqqiyot yo'nalishlari, axborot tizimlari va bilimlarni taqdim qilish usullari to'g'risidagi tasavvurlar shakllantirishi;

- ilmiy va ilmiy-texnik axborot bilan ishlash ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishi, tadqiq etiladigan mavzular bo'yicha muntazam ravishda mustaqil tahlil va xulosani tayyorlashi;

- ilmiy ijod metodologiyasi, ilmiy tadqiqotlar asoslari, bilishning umumiy usullari, empirik va nazariy tadqiqot usullari, qonunlar va qoidalar mantig'i, asoslash va inkor qilish usullariga, shuningdek nutq madaniyati asoslari bilimlariga, pedagogik texnologiyalar, mutaxassisliklar bo'yicha menejment va iqtisodiyotga doir bilimlarni ta'minlashi;

- amaliy xorijiy tilni, mutaxassislikka yo'naltirilgan axborot texnologiyalari va tizimlarini o'zlashtirishni ta'minlashi;

#### ***Mutaxassislik fanlari bloki:***

- muayyan mutaxassislik bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, uquv va ko'nikmalarni shakllantirishi;

- mutaxassislik bo'yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi;

- magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy uquv va ko'nikmalarni ta'minlashi kerak.

Ilmiy faoliyat bloki ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida muayyan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

#### ***Ilmiy-tadqiqot ishlari:***

- mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;

- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishi;

- talabalarga fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

### ***Ilmiy-pedagogik ishlar:***

- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishi;

- o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

Stajirovka ilmiy tadqiqot ishlari taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

### ***Stajirovka:***

- ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi;
- iqtisod, fan, madaniyat va sog'liqni saqlash va boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi;

- amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi;

- kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim.

Bunda stajirovkaga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarishi ko'zda tutiladi.

Bakalavriatda barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat qilib belgilanishi lozim.

O'qishning me'yoriy muddati to'rt yil bo'lgani holda o'quv jarayoni 204 hafta davom etishi zarur.

O'quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

- nazariy ta'lim — 63 — 70%;
- attestatsiya — 8 — 10 %;
- ta'til — 12 — 16 %;
- malaka amaliyoti — 6 — 12 %;
- bitiruv malakaviy ishi — 2-3%.

Nazariy ta'lim hajmi bilim sohalariga qarab fanlar bloklari bo'yicha quyidagi jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

O'quv yilida ta'til davrining umumiy hajmi 6-10 hafta qilib belgilanadi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalarining malaka amaliyotini o'tash tartibi va bitiruv malakaviy ishini bajarish tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

Magistratura ham haftalik barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi bakalavriatdagi kabi belgilangan.

Magistraturada o'qishning me'yoriy muddati 2 yil bo'lganda o'quv jarayoni 100 haftani tashkil etishi zarur.

O'qish davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanishi zarur:

- ✓ nazariy ta'lim – 25-30%;
- ✓ attestatsiya – 4-7%;
- ✓ ta'tillar – 13-16%;
- ✓ ilmiy faoliyat – 50-55%.

Ilmiy faoliyat magistratura talabasining yakka tartibdagi kalendar ish rejasi asosida amalga oshiriladi va quyidagilarga bo'linadi:

- ✓ ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash – 70-75%;
- ✓ ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti – 25-30%.

Nazariy ta'lim hajmi magistratura mutaxassisligiga qarab quyidagi tarzda fanlar bloklari bo'yicha taqsimlanadi:

- ✓ umummetodologik fanlar – 30-35%;
- ✓ mutaxassislik fanlari – 40-50%;
- ✓ tanlov fanlari – 13-30%.

Magistratura mutaxassisliklari talabalarining ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash tartibi va malaka amaliyoti(stajirovka)ni o'tash tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv rejalarini tuzishda fanlarni o'rganishning quyidagi uch usuli hisobga olinadi:

***parallel o'rganish*** - barcha fanlar bir vaqtda o'rganiladi; bu usul pedagogika jihatidan hamma vaqt ham to'g'ri bo'lavermaydi, chunki fanlararo mazmunli bog'lanishlar o'rgatish imkoniyatini cheklab qo'yadi; asosan, bir yillik o'quv rejalarini tuzishda qo'llaniladi;

***ketma-ket o'rganish*** - o'zaro bog'langan fanlar ketma-ket o'rganiladi; bu usul fanlararo bog'lanish uchun eng yaxshi sharoit yaratadi; o'qitish muddati uzoq (3-4 yil) bo'lganda o'quv fanlari soni cheklangan o'quv rejalarida qo'llaniladi;

***aralash o'rganish*** - fanlar o'quv rejasiga ham parallel, ham ketma-ket kiritiladi; bu usul o'qitish muddati 2-3 yil bo'lgan o'quv rejalarini tuzishda eng ko'p tarqalgan.

Fanlararo bog'lanishlarni ta'minlash uchun umumkasbiy va asosiy umumta'lim fanlari, odatda, o'qitishning birinchi bosqichida o'rganiladi, bu davrda ishlab chiqarish ta'limiga va maxsus fanlarni o'rganishga ajratiladigan vaqt bir oz qisqartiriladi.

## **2.4. O'quv dasturi va ishchi o'quv dasturi.**

**O'quv dasturi** - ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O'zbekistonda o'quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar tomonidan tasdiqlanadi. Har bir o'quv dasturi so'z boshi, o'quv fani mazmunining qisqa bayoni, talabalarining bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar singari

3 qismdan iborat. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish o'quv dasturining muhim belgisidir.

Ta'limning o'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

**O'quv fani dasturi** – ta'lim mazmuni, ularning talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan me'yoriy hujjat.

**Namunaviy o'quv dastur** - o'quv rejadagi aniq fanlar bo'yicha davlat ta'lim standartlariga asosan tayanch oliy ta'lim muassasalarining tegishli kafedralari tomonidan ishlab chiqiladigan, o'quv materiallarni o'zlashtirishga va o'qitish mazmuniga qo'yiladigan majburiy talablarni o'z ichiga oladigan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan, oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari talabalari uchun tavsiya etiladigan me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Namunaviy o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i bilan tayanch etib belgilangan oliy ta'lim muassasalari kafedralarida tegishli fan sohasidagi etuk olimlar, mutaxassislar va tajribali professor-o'qituvchilardan tashkil topgan ijodiy guruh tomonidan tuziladi.

Namunaviy o'quv dasturi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ Kirish;
- ✓ asosiy qism;
- ✓ amaliy mashg'ulot mavzulari;
- ✓ seminar mavzulari;
- ✓ mustaqil ta'lim mavzulari;
- ✓ tavsiya etiladigan darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati.

Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqib, ma'lum fanlardan chizma-hisob, kurs ishlari, loyihalari va ularning mavzu va yo'nalishlari ham keltirilishi mumkin.

Dastur fan, texnika, texnologiyaning so‘nggi yutuqlari, oliy ta’lim rivojlanishining jahon tendensiyasini hisobga olish, Respublikada joriy etilgan uzluksiz ta’lim tizimining ta’lim turlari o‘rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta’minlashi, ayniqsa umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’limda uzluksiz o‘qitiladigan fanlarda mavzularning mantiqiy ketma-ketligi, oddiydan murakkablikka, xususiyydan umumiylikka o‘tib borish tamoyillariga amal qilishi shart. Dasturda ta’lim oluvchilarning mustaqil bilim izlash va uni o‘zlashtirish, o‘qitish jarayonini interaktiv pedagogika asosida tashkil etishga mavzularning bir xil talqinida takrorlanmasligiga e’tibor berilishi zarur. Namunaviy o‘quv dasturi tayanch oliy ta’lim muassasasining tegishli kafedrası, fakultet yoki OTM uslubiy kengashida muhokama qilinadi.

Ijtimoiy, gumanitar va iqtisodiy fanlar bo‘yicha tuzilgan namunaviy o‘quv dasturlari maxsus metodologik komissiyasiga muhokama qilish uchun topshiriladi.

Barcha fanlar bo‘yicha tuzilgan o‘quv dasturlari oliy ta’lim muassasalariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash ekspertizasidan o‘tishi shart va uning tavsiyasi bilan vazirlik tomonidan ro‘yxatga olinadi va amalga kiritiladi.

Namunaviy o‘quv dasturlari vazirlikning tegishli boshqarmasi tomonidan tasdiqqa tavsiya etiladi va ro‘yxatga olinadi. Bu haqda o‘quv dasturning bosh varog‘iga belgi qo‘yiladi. Namunaviy o‘quv dasturning etalon nusxasi vazirlikda saqlanadi. O‘quv dasturi tasdiqlangan va ro‘yxatga olingan kundan boshlab amalga kiritiladi.

Namunaviy o‘quv dastur davlat ta’lim standartlariga o‘zgartirishlar kiritilgan taqdirda yoki o‘zga xollarda 5 yilda bir marta qayta ishlab chiqilishi va ushbu tartibga asosan qayta ekspertiza va tasdiqdan o‘tishi zarur.

**Ishchi o‘quv dasturi** - OTMning aniq bir bakalavriat ta’lim yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligi talabalari uchun o‘quv rejadagi aniq bir fan bo‘yicha o‘quv dasturiga asosan professor-o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladigan, fanning mazmuniga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan, mavzularning o‘qitish

ketma-ketligiga rioya qilingan holda fanga ajratilgan soatlar aniq ko'rsatilgan me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Ishchi o'quv dasturi tegishli ta'lim standartlarini konkretlashtiradi, o'quv jarayonini uslubiy, informatsion va texnik jihatidan ta'minlanishini nazarda tutadi. OTMlarda talabalarni tayyorlash va o'qitish xususiyatlarini aks ettiradi.

O'quv dasturi asosida tuzilgan ishchi o'quv dasturida aniq mavzular, ularga ajratilgan soatlar, mavzular bo'yicha qo'llaniluvchi didaktik va texnik vositalar, mavzular va bo'limlar bo'yicha bilimni nazorat qilish turlari hamda tegishli uslubiy tavsiyalar aniq ko'rsatiladi shuning uchun uning hajmi cheklanmaydi.

**Ishchi o'quv dasturida quyidagilar o'z aksini topishi lozim:**

- ✓ DTS talablari;
- ✓ o'quv dasturlarini mazmuniga qo'yiladigan majburiy talablar;
- ✓ talabalar uchun beriladigan o'quv materiallarining maksimal hajmi;
- ✓ bitiruvchilarni tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar;
- ✓ OTM tomonidan o'quv rejaga asosan belgilangan o'quv yuklamasining hajmi;
- ✓ ta'lim dasturlarining maqsadi va vazifalari.

YUqorida keltirilganlar asosida ishchi o'quv dasturining tuzilishi ishlab chiqiladi va uning tarkibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ titul varag'i;
- ✓ kirish so'zi;
- ✓ fanning maqsadi va vazifalari;
- ✓ fanni o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar;
- ✓ talabalarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar;
- ✓ fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, uslubiy jihatidan uzviyligi va ketma-ketligi;
- ✓ fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni;
- ✓ fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar;
- ✓ fan bo'yicha soatlar taqsimoti;

- ✓ nazariy mashg'ulotlar mavzulari mazmuni;
- ✓ amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari va rejalari;
- ✓ mustaqil ta'lim mavzulari;
- ✓ foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

### **Ishchi o'quv dasturlarini tuzish va tasdiqqa kiritish tartibi:**

1. Ishchi o'quv dasturlari OTMlarining tegishli kafedralarining professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi.

2. Ishchi o'quv dasturlarini DTS talablari va o'quv dasturlarga mos holda ishlab chiqilishiga tegishli kafedra mudiri va professor-o'qituvchilar mas'ul hisoblanadi.

3. Ishchi o'quv dasturining kirish qismida o'qitiladigan fanning dolzarbligi, sohaning tarixi, jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishdagi ahamiyati va o'rni ochib beriladi. SHuningdek, fanni o'qitishning asosiy maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi ko'rsatiladi.

4. Ishchi o'quv dasturida uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketlikligi hamda o'qitish turlari o'qitishning interaktiv uslublari va vositalari hamda fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'lim jarayonini optimallashtirish uchun omil bo'ladigan mexanizmlar ko'rsatiladi.

5. Ishchi o'quv dasturlarida o'quv jarayoni uchun zarur texnik vositalar, axborot-resurs markazidagi tegishli o'quv adabiyotlari, didaktik vositalar, ashyolar va boshqa moddiy-texnik baza to'g'risida ma'lumotlar kiritilishi maqsadga muvofiq.

6. Ishchi o'quv dasturining titulida amaldagi Klassifikator bo'yicha tegishli bilim, ta'lim sohalari va ta'lim yo'nalish (mutaxassislik) larning shifri va nomlari hamda ishchi o'quv rejaga muvofiq fanning to'la nomi ko'rsatiladi.

7. Ishchi o'quv dasturining yaratilishiga mas'ul kafedraning nomi, mualliflar va taqrizchilar to'g'risida ma'lumotlar (famiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni), tasdiqqa tavsiya etuvchi uslubiy Kengashlarning bayonnomasi raqami va sanasi ko'rsatiladi.

8. Ishchi o'quv dasturining foydalaniladigan manbalar ro'yxatiga asosiy adabiyotlar va qo'shimcha adabiyotlar kiritiladi.

9. Ishchi o'quv dasturining matni A-4 format, Times New Roman shriftida, 14-chi o'lchamda, chap tomonidan - 3 sm, pastidan - 2 sm, yuqoridan – 2 sm, o'ng tomonidan - 1,5 sm o'lchamida xoshiyalanadi. Betlarni raqamlash – pastki qismining markazida joylashtiriladi.

10. Ishchi o'quv dasturi har o'quv yili kafedra yig'ilishida ko'rib chiqib muhokama qilinadi va tegishli o'quv – uslubiy kengashida ko'rib chiqib ma'qullanadi hamda OTMning ruxsat etilgan kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.

11. OTM o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlanadi.

Mutaxassislar tayyorlashga qo'yilgan talablarning hujjatli asosini tasvirlaydigan o'quv dasturlarida pedagogik maqsadlarning to'liq va aniq belgilanishini talab qilinadi. *To'liqlik* deganda mazmunning barcha zaruriy va qo'yilgan maqsadga erishish uchun etarli elementlari kiritish tushuniladi. *Aniqlik* deganda esa real o'quv jarayonida berilgan mazmunda joriy qilish yo'lini ko'rsatadigan elementlar va belgilar tasavvur etiladi.

O'quv dasturlarida talabalar o'quv rejasiga kiritilgan har qaysi fandan nimani va qanday izchillikda o'rganish kerakligi, shuningdek, talabalar bilib olishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi belgilab beriladi.

O'quv dasturlarining mazmuni kasb tavsifnomalarning talablari asosida aniqlanadi. Dasturlarni ishlab chiqishda didaktik tamoyillarga va malakali mutaxassislar tayyorlash mazmuniga qo'yiladigan talablarga amal qilinadi.

O'quv materialini tanlashda mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt va talabalarining materialni o'zlashtira olish-olmasligi hisobga olinadi.

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari dasturlarida shunday o'quv materiali bo'ladiki, talabalar bu materialni o'rganib, ishlab chiqarishning hozirgi zamon texnikasi va texnologiyasi asoslarini o'rganilayotgan kasbni ongli ravishda, puxta va chuqur egallash hamda ishlab chiqarish malakasini yanada oshirish uchun zarur bo'lgan hajmda o'zlashtiradilar.

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari dasturlarida o'quv materiali mazmunini aniqlashda avvalo ilmiylik tamoyiliga asoslaniladi. Bu tamoyilga muvofiq, o'rganish uchun ilmiy tadqiqotlar bilan asoslab berilgan va tajribada tekshirib ko'rilgan jarayon, hodisa va faktlar, fan hamda texnikada qabul qilingan tushuncha, atama, qoida va belgilar tanlab olinadi. Ilmiylik tamoyili o'quv materialni mantiqiy izchillik bilan bayon etishni, har bir yangi hodisa yoki narsani har tomonlama o'rganishni, mazkur ob'ektning o'ziga o'xshash boshqa ob'ektlar bilan ham, o'zidan farq qiladigan ob'ektlar bilan ham bog'lanishidagi xilma-xillikni aniqlashni talab etadi.

Umumkasbiy fanlari dasturlarida o'quv materialining mazmunini va uni o'rganish ketma-ketligini aniqlashda, asosi ochib berilayotgan fanning mazmuni, mantiqiga asoslaniladi. Masalan, elektrotexnika, gidravlika va pnevmoyuritmalar, amaliy mexanika, issiqlik texnikasi, ekologiya kabi fanlarning dasturlari mazmuni jihatidan eng barqaror dasturlardir.

Dasturlardagi o'quv materialini mazmunini aniqlash tamoyillaridan biri uni talabalarga tushunarli bo'lishidir. O'quv materialining tushunarli bo'lishi deganda, uni soddalashtirish yoki engillashtirish tushunilmasligi kerak. O'quv materialining tushunarliliigi deganda, uning talabalar uncha qiynalmay o'zlashtira oladigan darajada ochib berilishi tushuniladi. Shunday qilinganda talabalarning tafakkuri, xotirasi, irodasi rivojlanadi. O'quv materialini tushunadigan qilib tanlashda bilimlar hajmini va o'quv materialinint ochib berilish chuqurligini aniqlash ko'zda tutiladi.

Dasturning har bir mavzusi bo'yicha bilimlar hajmini belgilashda zarur bo'ladigan asosiy materialga, shuningdek, ko'rgazmali va ma'lumotnoma materialga asoslaniladi hamda uning hajmi bilan talabalarning fikrlash va xotirada saqlab qolish imkoniyatlariga taqqoslab ko'riladi. Bunda o'qitish davri, mavzuga ajratilgan vaqt, o'quv materialining muhimligi, talabalarning tayyorgarlik darajasi, fanlararo bog'lanishlar hisobga olinadi.

Ochib berilish chuqurligi jihatidan olganda o'quv materialini shartli ravishda uch guruhga: oson, o'rtacha va qiyin o'zlashtiriladigan materiallarga bo'lish

mumkin. Ma'lumki, faktlar eng oson material; faktlar tizimi - o'zlashtirilishi qiyin material; o'rganiladigan mashina, jihoz, mexanizm, materiallar sifati, texnologik jarayonning muhim alomatlarini aniqlash yanada qiyin. Tushunish va o'zlashtirish eng qiyin material - sabab-natijali bog'lanishlarni topish, chunki ular tarkibida ancha murakkab o'quv material bo'ladi. Sabab-natijali bog'lanishlarni aniqlash zarurati, ko'pincha, mashinalarni sozlovchilarda, dastgohda ishlovchilarda, yig'uvchi-chilangarlarda, haydovchilarda, montajchilarda va ko'pgina boshqa kasb ishchilarida paydo bo'ladi. Bunda sabab ma'lum bo'lsa, natijani topish, aksincha - natijani bilaturib, sababni topishga qaraganda oson bo'ladi.

Talabalarni sababni qidirib topishga o'rgatish ularda texnologik tafakkurning rivojlantirilishini talab qiladigan juda qiyin jarayondir. Bu muhim talab dasturlar tuzishda hisobga olinadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, o'quv materialining qiyinlik darajasi o'rganiladigan tushunchaning ichki bog'lanishlariga bog'liq. Bog'lanishlar qanchalik kam bo'lsa, tushunchani o'zlashtirish shunchalik oson, bog'lanishlar qanchalik ko'p bo'lsa, tushunchani o'zlashtirish shunchalik murakkab bo'ladi. Bu ham dasturlardagi o'quv materialining ochib berilish chuqurligini aniqlashda e'tiborga olinadi.

Dasturlardagi o'quv materialining ochib berilishi chuqurligi ko'p jihatdan talabalarining umumiy o'rta ta'limdan olgan tayyorgarlik darajasiga ham bog'liq. Dasturlarda mashina va jihozlarning tuzilishi, texnologik ish jarayoni hamda hisoblashga oid nazariy materiallarni chuqur asoslab berish, tipaviy texnologiya, jarayonlar qonuniyatlarining ilmiy asoslarini anglab olish ko'zda tutiladi. Yig'ish va ta'mirlash-rostlash ishlarining puxtaligi, aniqligi va sifatini oshirish masalalariga, ularni ob'ektiv tashxislash alomatlariga ko'ra asboblarning vositasida tekshirish sinashga alohida e'tibor beriladi. Fanni o'rganish uchun talabalardan turli tip, rusum va modifikatsiyadagi juda ko'p mashinaning tuzilishini bilish talab qilingan hollarda dasturlarda shunga o'xshash mashinalarning tuzilishiga, ishlashiga oid printsipl sxemalarni, tipaviy texnologik jarayonlarni o'rganish

hamda shu asosda eng zamonaviy va xarakterli konkret konstruktsiyalarning xususiyatlarini o'rganish ko'zda tutiladi.

Dasturlar tuzishda o'quv materialiga nisbatan qo'yiladigan talablar bo'lgan amaliylik va zamonaviylik hisobga olinadi. Bunda talabalarning oliy ta'lim muassasalarida oladigan bilimlari ishlab chiqarishda va ijtimoiy tajribada tatbiq etilgan taqdirdagina katta ahamiyatga ega bo'lishiga asoslaniladi. Shuning uchun o'quv materialini tanlashda dasturlarga ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyalarining hozirgi darajasiga javob beradigan faoliyati bilan bevosita bog'langan materiallar kiritiladi. SHu nuqtai nazardan ixtisoslik fanlarining o'quv dasturlari mazmuni vaqt-vaqti bilan (3 yilda) qayta ko'rib chiqiladi va yangilanadi.

Snu narsa an'anaga aylanib qoldiki, o'quv dasturlari faqat o'qitish mazmunini, ya'ni talabalarga nimani o'qitish kerakligani ochib beradi. O'qitish metodikasini, ya'ni qanday o'qitish kerakligini esa, odatda, o'qituvchining o'zi hal qiladi. OTMLar uchun umumkasbiy va ixtisoslik fanlar bloki dasturlarini tuzishda dasturlarda o'qitish metodikasining ba'zi masalalarini ochib berishga harakat qilinadi. Chunonchi, amaliy mexanika, ekologiya, elektrotexnika, hayotiy faoliyat xavfsizligi, muhandislik va kompyuter grafikasi kabi fan dasturlarining har bir mavzusida o'qituvchi uchun qisqacha metodik tavsiyalar berilishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalari ixtisoslik fanlar bloki fanlarining dasturlari uchun shu narsa xoski, talabalar bilimlarni ancha ongli va puxta o'zlashtirishi, ularning bilish faoliyatini faollashtirish hamda texnik tafakkurini rivojlantirish maqsadida bu dasturlarda anchagina hisoblash ishlari, texnologik jarayonlarni mustaqil ishlab chiqarish mashqlari, tajriba-amaliy ishlar, mustaqil ishlar, ma'lumotnoma adabiyotidan foydalanib mustaqil bajariladigan ishlar, shuningdek, o'quv ishining olingan bilimlarning hammasini amalda tatbiq qila bilishni talab etadigan boshqa shakllari ko'zda tutilgan. Tajriba-amaliy mashg'ulotlar, hisoblash ishlari va mashqlar ruknini aniqlashda quyidagi masalalarni hal qilish nazarda tutiladi: mashina, jihoz, agregat va qurilmalarining konstruktsiyasani o'rganish; texnologik jarayonlardagi fizikaviy va kimyoviy hodisalar mohiyatini hamda ularning qonuniyatlarni o'rganish; nuqsonlarni tashxislash va aniqlash, mashina, jihoz va

agregatlarni asboblarni vositasida tekshirish hamda rostlash usullarini o'rganish; ish rejimlarini hisoblash, texnik xizmat ko'rsatish, yig'ish, ta'mirlash, sozlashga doir texnologik jarayonlarni mustaqil ishlab chiqish ko'nikmalarini hal qilishni nazarda tutadi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. Bakalavr va magistr tushunchalarini izohlab bering?
2. Oliy ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim standartiga tushuncha bering?
3. Ta'lim yo'nalishining malaka talablari nimalarni aks ettiradi?
4. O'quv reja qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?
5. O'quv reja va ishchi o'quv rejani farqini tushuntiring?
6. O'quv dasturi qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?
7. O'quv dasturi va ishchi o'quv dasturining farqini tushuntiring?
8. Ishchi o'quv dasturini ishlab chiqish va rasmiylashtirish tartibini tushuntiring?

## **3. TA'LIM TAMOYILLARI**

***Tayanch so'z va iboralar:*** *Ta'lim tamoyillari, faollik tamoyili, namunalaridan foydalanish tamoyili, ta'lim oluvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili, o'qitishda nazariya bilan va amaliyotni bog'liqligi tamoyili, ko'rgazmalilik tamoyili, ilmiylik tamoyili, o'qitishda tizimlilik va izchillilik tamoyili, o'qitishda talabalarning onglilik va faolligi tamoyili, o'qitishning tarbiyalovchi xarakterlilik tamoyili.*

### **3.1. Ta'lim tamoyillari to'g'risida tushuncha.**

Ta'lim tamoyillari tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonining xarakteri, yo'nalishi, ta'lim oluvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar hosil

qilishning asosiy qonun va qoidalarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga ta'lim tamoyili ikkita faoliyatni, ya'ni ta'lim oluvchi va ta'lim oluvchining faoliyatini ham o'z ichiga oladi. SHunga ko'ra, o'qitish tamoyili ta'limning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

**Ta'lim tamoyillari** deb - o'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga o'quv rejasi va o'quv dasturlari talablari asosida u yoki bu fandan bilim berish, malaka hosil qildirish hamda iqtidorli qilishga qo'yiladigan asosiy qoidalar majmuiga aytiladi.

Buyuk pedagoglar YA.A.Komenskiy, J.J.Russo, CH.R.Pestalotssi, V.Disterverg, K.D.Ushinskiy va boshqalar o'z asarlarida ta'lim (didaktika) tamoyillarini asoslab bergan edilar. Ta'lim tamoyilari tizimi o'qitish jarayoni qonuniyatlarini ifodalaydi va tarbiya maqsadlari bilan belgilanadi. SHunga ko'ra, o'qitish tamoyili ta'limning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

M.N.Skatkin ta'lim tamoyillarini quyidagicha belgilaydi: ilmiylik, har tomonlamalik, hayot bilan aloqadorlik, tabaqalashtirish, tizimlilik, o'quv fanlari orasidagi o'zaro aloqadorlik, joriylilik .

M.G.Ogorodnikov esa o'z tadqiqotlarida ilmiylilik, g'oyaviylik, tarixiylik, tizimlilik, nazariya va amaliyotning birligi, ta'limning hayot bilan aloqasi kabilarni tamoyillar sifatida ajratib ko'rsatgan.

S.Ya.Batishev - kasb ta'limi mazmunini ishlab chiqarish va mehnat jarayoni rivojlanishi bilan uzviy bog'langan holda tasavvur etish kerak deb hisoblaydi va ta'limning quyidagi tamoyillarini qayd etgan: ilmiylik, tizimlilik va joriylilik, nazariy ta'lim bilan ishlab chiqarish mehnatining birligi.

V.A.Skakun - kasb ta'limi tamoyillarini ilmiylik va g'oyaviylik; ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning birligi; ilmiy-texnika taraqqiyotiga ta'limning bog'liqligi, politexnizm: malakali ishchilarni tayyorlash barcha tomonlarining bir-biriga aloqasi; ta'limning tabaqalashtirish deb biladi.

A.P.Belyayeva ta'limda xalqchillilik, ilmiylik, politexnikaviylik, tizimlilik, muqobillik, politexnik va kasbiy ta'limning birligi hamda o'zaro aloqasi; fanlararo va majmuaviy o'zaro aloqadorlik, kasbiy safarbarlik, ta'limning moslashuvchanligi va turg'unligi, mujassamlangan hamda tabaqalashganligini asosiy tamoyil sifatida talqin etadi.

Maxsus fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda didaktik tamoyil (printsip) talablarini hisobga olish zarur. Bunda maxsus fan o'qituvchisining o'qitish qonuniyatlarini bilishligini emas balki, ularni amalga oshirish (tushuntira olish) uchun qulay sharoitlar yaratishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga esa o'quv jarayonini tashkil etishda o'qitishning asosiy tamoyillariga tayanish kerakligini anglagan taqdirdagina erishish mumkin. Bu tamoyillar didaktikada ta'lim tamoyillari yoki didaktik tamoyillar deb ataladi.

**Didaktika** (yunoncha didaktikos — o'rgatuvchi, ta'lim beruvchi) — pedagogikaning tarmog'i hisoblanib, u ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanadi. "Didaktika" atamasi ilk bor Evropada 17-asrda o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlagan. CHex pedagogi YA.A.Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asari (1657 yil)da bolalar va o'smirlarni ma'lumotli qilish va ularga ta'lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Nemis pedagogi A.Disterveg o'zining "Nemis ta'lim beruvchilarini ma'lumotli qilishga rahbarlik" (1834-1835 yy.) asarida didaktikaning pedagogikada ta'lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qism ekanligini ta'kidlagan. Shundan keyin didaktikaga ta'lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta'lim va ma'rifat berish nazariyasi bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta'lim mazmunini aniqlash, ta'lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o'qitishning eng samarador usul va yo'llarini topish didaktikaning asosiy muammolaridir. Didaktikaning mohiyatini belgilash, yo'nalishini aniqlashda falsafiy-nazariy asosning o'rni katta. Didaktika umumiy psixologiya, o'qitish psixologiyasi hamda bilish nazariyasi bilan uzviy bog'liq. Bu fanlarning har biri ta'lim oluvchining bilish faoliyati va uni amalga oshirilish jarayoni to'g'risida alohida bilim beradi.

Ta'lim mazmuni va usullarini belgilash borasida ham mazkur aloqadorlik katta ahamiyatga ega. Didaktika har qanday alohida predmetni o'qitish va uning mazmunini tayin etish qonuniyatlarini aniqlaydigan fan sifatida ta'lim va ma'rifat ishlarini samarali tashkil etishning umumiy usullarini belgilab berishi lozim. Ayni vaqtda, alohida predmetlarni o'qitish metodikasi ta'lim amaliyotining aniq tajribalaridan kelib chiqqanligi uchun didaktikaning tamoyillari ta'lim jarayonida uchraydigan har xil favqulodda hodisalarning o'ziga xosligini hisobga olgan holda tuziladi.

O'zbek milliy pedagogikasi tarixida ham didaktikaning asosiy xususiyatlarini aks ettirishga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar mavjud. Garchi turkiy mutafakkirlarning asarlarida didaktika hozirgi nom bilan atalmagan bo'lsada, lekin ular ta'lim jarayonining qonuniyatlarini belgilashi, uni tashkil etishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatishi jihatidan beqiyos ahamiyatga ega. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad al Farg'oniy, Marg'inoniy, Davoniy, Alisher Navoiy, Munis, Abdulla Avloniy singari mutafakkirlarning ta'limni uyushtirish, uning samaradorligini oshirish, o'qitish jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi munosabatlari borasidagi qarashlari jahon pededagogikasi taraqqiyotining o'ziga xos bosqichini tashkil etadi. Muayyan yoshdagi ta'lim oluvchilarni jamoa tarzida bir joyda o'qitishning samaradorligi ilk bor Ibn Sino tomonidan ko'rsatib berilgan bo'lsa, muallimning o'zida ezgu insoniy sifatlar bo'lmasa, ta'lim oluvchilarda bunday xislatlarni shakllantirish mumkin emasligi Navoiy asarlarida aks etgan. Marg'inoniy esa, bilimlarni o'zlashtirish yuzasidan umumiy tavsiyalar beribgina qolmay, o'rganilgan tushunchalarni ta'lim oluvchilar xotirasida uzoqroq saqlash yuzasidan aniq metodik usullar ham tavsiya etgan. O'zbek milliy didaktikasining shakllanishida jadidchilik harakati, xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir SHukuriy, A.Ibodiev, M.Behbudiy, A.Avloniy, S.Saidazizov, R.YUsufbekov kabi ma'rifatparvar pedagoglarning faoliyati alohida muhim bosqich bo'ldi. 20-asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik turkiy xalqlarning qadimiy shonu shuhratini tiklash uchun uni ma'rifatli qilishdan o'zga yo'l yo'qligini to'g'ri belgiladi. Jahon pedagogikasining eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lgan, ayni

vaqtda ta'limni tashkil etishda ko'p asrlik milliy tajribalarni hisobga olgan, didaktikaning metodologik asosi sifatida islomiy e'tiqodni belgilagan jadidlar o'qitish borasida yuksak natijalarga erishdilar. Jadid mutafakkirlar ta'limni uyushtirishning amaliy jihatlari bilangina shug'ullanib qolmay, uning nazariy masalalarini ham tadqiq etganliklari diqqatga sazovordir. Jadidlarning didaktik qarashlari ularning ko'plab pedagogik asarlari, darslik va qo'llanmalarida aks etgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'zbek pedagogika fani va amaliyoti milliy asoslarga tayangan holda didaktikaning tamomila yangicha yo'nalishda taraqqiy etishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ongning o'zgarishi pedagogik tafakkurning sog'lomlashuviga, u esa, o'z navbatida, didaktikaning milliy asoslarda rivojlana boshlashiga olib keldi. Bunda milliy didaktikaning asosiy tamoyillarini to'g'ri belgilash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri ta'limning insoniylashuvidir. Mazkur tamoyil ta'lim jarayoni uchun bilim emas, balki ta'lim oluvchi shaxsi asosiy qadriyat ekanligini anglatadi. Bunda ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirishga ustuvor o'rin beriladi. Ta'limning insonparvarlashuvi tamoyili o'zbek didaktikasining asosiy talablaridan bo'lib, ta'lim mazmunini belgilash va pedagogik amaliyotni tashkil etishda shaxs ma'naviyatini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv fanlariga ustuvor ahamiyat berilishini kuzda tutadi. Estetik, badiiy turkumdagi predmetlarni o'qitishga alohida e'tibor qaratish yo'li bilan bolalarning hissiyotini shakllantirishga erishish, ularda iroda xususiyatlarini tarkib toptirish muhimdir. Ta'lim oluvchi ma'naviyati bilan uning o'zlashtirishi o'rtasida uzviy aloqa borligi zamonaviy psixologiya fani tomonidan asoslab berilgan. Bu holatni hisobga olmay ish ko'rgan pedagog muvaffaqiyatsizlikka mahkumdur. Milliy didaktika taraqqiyotini ta'minlaydigan tamoyillardan yana biri ta'limning yaxlitligidir. Dunyodagi narsa-hodisalar yaxlit va bir-biridan ajralmagan holda mavjud ekan, uni o'rganish ham imkon qadar yaxlit tarzda amalga oshirilishi kerak. Ta'lim jarayonida o'quv predmetlari miqdorini ko'paytirish emas, balki olamni bilish vositasi bo'lmish o'quv fanlarini imkon qadar umumlashtirish

yoʻlidan borish lozim. Shuning uchun ham mustaqil Oʻzbekistonning yangilangan oʻquv rejalarida taʼlimning asosiy etti tarmogʻi belgilangan boʻlib, oʻquv fanlari miqdorini zaruratga qarab oʻzgarib turishi koʻzda tutilgan. Taʼlim jarayonida taʼlim oluvchilarning alohida jihatlarini hisobga olish ham didaktikaning asosiy tamoyillaridan sanaladi. U oʻqitish jarayonini har bir taʼlim oluvchiga xos xususiyatlarni koʻzda tutgan holda tashkil qilishni taqozo etadi. Maʼlumki, har qanday shaxs muayyan geografik muhitda shakllanadi. Uning tabiatida oʻsha muhitga xos jihatlar muhrlangan boʻladi. Shuning uchun ham oʻqitish jarayonida mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyili ham didaktikaning zarur talablaridan biridir. Oʻzbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da mazkur tamoyilga alohida eʼtibor qaratilgan. Tarbiyaning ustuvorligi ham bugungi oʻzbek didaktikasining asosiy tamoyillaridan sanaladi. Komil shaxsni tarbiyalash har qanday taʼlim muassasasining asosiy vazifasiga aylandi. Maʼnaviyatni shakllantirish maqsad darajasiga koʻtarilgan sharoitda tarbiyaga ustuvor maqom berilishi tabiiydir. Milliy didaktika taʼlim oluvchilarni taʼlim jarayonining ishtirokchilarigina emas, balki ijrochilari deb qarashni ham koʻzda tutadi. Taʼlim taʼlim oluvchilarning ichki ehtiyojiga aylanmasa, ular bu jarayonda faol ishtirok etmasalar, hech qanday ijobiy samaraga erishib boʻlmaydi.

Didaktika taʼlim usullari muammosini ham qamrab oladi. Taʼlim beruvchi biror predmet boʻyicha taʼlim oluvchilarning tizimli bilim olishini taʼminlash maqsadi sari intilar ekan, maʼlum ishlarning bajarilish namunasini koʻrsatadi. Ayni vaqtda, u taʼlimning barcha bosqichlarida taʼlim oluvchining faolligi va mustaqilligini taʼminlaydi. Taʼlim oluvchilar taʼlim beruvchi rahbarligida tajriba va kuzatuvlari asosida yangi bilimlarni oʻzlashtiradi. Ularga chuqur va mustaqil oʻzlashtirishlari, oʻrgangan bilimlarini amaliyotda ijodiy qoʻllashlari uchun maxsus topshiriqlar beriladi.

Didaktika oʻqitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi. Pedagogik nazariyaning taʼlimotiga koʻra didaktika va metodika bir-biri bilan uzviy bogʻliq. Metodika ilmiy usullar haqidagi fandir. Bunda didaktika “nima oʻqitish” va “nima uchun oʻqitish” kerak degan

savollar bilan shug'ullansa, metodika esa u bilan uzviy bog'liq holda "qay tarzda" va "nimalar yordamida" o'qitish masalalari bilan shug'ullanadi. Bunda amaliy usullar tizimi maxsus sohaning mazmuniga bog'liqligini hisobga olish zarur. O'qitish metodikasi –turli yo'llar va metodlar tizimi bo'lib, o'quv didaktik materiallardan foydalangan holda belgilangan maqsadlarga erishish uchun nazariy dars jarayonida qo'llaniladigan usullar yig'indisini anglatadi.

Didaktika xususiy metodikalar bilan bog'langan holda barcha o'quv fanlari uchun umumiy qonun va qoidalarni belgilab beradi, ya'ni tarbiya bilan chambarchas bog'liq ta'lim jarayonini tashkil etishga asos bo'ladigan etakchi qoidalar didaktik qoidalar deyiladi. Bu o'qituvchilarning faoliyatini, ta'lim oluvchilarni bilim faoliyatini, xususiyatini belgilaydigan asosiy qoidalar hisoblanadi.

Didaktika pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasi bayon etiladigan muhim qismidir. Unda ta'limning ilmiy asoslangan mazmuni o'qitishning metodlari va tashkiliy shakllari (qanday o'rgatish) beriladi.

### **3.2. Ta'lim tamoyillari.**

O'qituvchi faqat o'qitishning qonuniyatlarini bilishgina emas, balki ularni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratib bera olishi ham muhim. Bunga ayrim etakchi boshlang'ich qonuniyatlarni chuqur tushunish va ularni o'quv jarayonida qo'llash orqali erishiladi. Bunday qonuniyatlar didaktikada ta'lim tamoyillari yoki didaktik tamoyillar deb nom olgan.


Ta'lim tamoyillarining majmuasi mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi (3.1 -rasm):

**Ta'limda onglilik va faollik tamoyili** - talaba o'zi harakat qilgan paytda yaxshi o'rganadi va o'zlashtiradi. Shuning uchun o'quv jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, talaba ilm olishga ongli munosabatda bo'lsin.

Talabalar har bir darsga faol qatnashishi kerak. Chunki talaba qandaydir ish bajarishda u ishni ongli ravishda o'zlashtiradi va bu bilim xotirasida chuqurroq o'rnashib qoladi. Natijada talabalar darslarni yaxshiroq va chuqurroq o'zlashtirgani

uchun mukammal bilimga ega bo'lish bilan birga, ularning bu sohada qiziqishi ortadi. Mustaqillik va individual ravishda o'rganish kabilarga faqat shu tarzda erishish mumkin. Buning uchun, o'qituvchi juda yaxshi uslubiy qobiliyatlarga va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Ta'limni ongli o'zlashtirish tamoyili, bir tomondan ta'lim oluvchilarning mustaqil, faol fikr yuritishlarini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, aynan shu jarayon davomida ta'lim oluvchilarning mustaqillik va faolliklarining hamda, mantiqiy, erkin fikrlash faoliyatlarini tarbiyalab, takomillashtirib borishni o'z ichiga oladi. O'qitishda onglilik va faollik dastavval, aqliy fikrlash faoliyatidagi aniqlikka bog'liqdir. Tafakkur qilishdagi faollik esa, bayon qilingan o'quv materiallari yoki tevarak – atrofni o'rab olgan ob'ektiv borliqdagi narsa va hodisalar, voqealar ustida fikr yuritishdir. Faol fikrlash operatsiyalarida, ya'ni taqqoslash, solishtirish, tahlil – sintez qilish, abstraksiya va umumlashtirishda namoyon bo'ladi. SHunga ko'ra, ongli va faol o'zlashtirishga erishish uchun ta'lim jarayoni (har bir dars) ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishga qaratilgan bo'lishi lozim.



3.1-rasm. Ta'lim tamoyillari.

O'qitishda onglilik va faollik tamoyili - o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadigan bo'lsin.

O'qitishdagi onglilik tamoyili talabalardagi ta'lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o'rganilayotgan dalil, hodisa, jarayonlar va ular o'rtasidagi bog'lanishni tushungan holda o'zlashtirib olish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilish kabi me'yorlarni anglatadi.

Talabalarining faolligi ularning nazariy materialni egallab olishida va sinfda, laboratoriyada, ustaxona hamda ishlab chiqarish sharoitlarida o'quv-mehnat topshiriqlarini bajarishida namoyon bo'ladi. Faollik talabalarining o'quv va mehnat faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish bilan mustahkam bog'liq.

**O'qitishda nazariya bilan amaliyotning bog'liqlik tamoyili** - dars jarayonida ta'lim oluvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda nazariya bilan amaliyotni birgalikda qo'shib olib borishni taqozo etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi mavqeini kuchaytirish quyidagi yo'llar bilan ta'minlanishi belgilab qo'yilgan:

- ✓ ta'limni karxonadagi umumli mehnat bilan, shu jumladan ishlab chiqarish amaliyoti jarayonidagi mehnat bilan qo'shib olib borish asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

- ✓ kadrlar tayyorlash hamda birgalikda ilmiy-texnologiya ishlanmalarini olib borishda korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish;

- ✓ ta'lim oluvchilarni mehnat jamoalarida tarbiyalash (mehnat, ma'naviy va jismoniy tarbiyalash);

- ✓ ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlarini inobatga olib, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning yangi yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

- ✓ pedagog kadrlarning ilg'or texnologiyalar sohasidagi malakasini bevosita ishlab chiqarishda muntazam oshirib borish;

✓ ishlab chiqarishning yuqori malakali kadrlarini ta'lim jarayoniga va pedagogik faoliyatga jalb etish;

✓ ishlab chiqarish amaliyotini o'tish uchun ta'lim oluvchilarni ish joylari bilan ta'minlash;

✓ o'zaro integratsiyalangan ta'lim muassasalarini zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblardan jihozlash.

Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo'lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog'langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o'zlashtirish va amalda qo'llay bilish ham kerak.

Talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallash jarayonidan boshlanadi. Keyinchalik u tajriba va amaliy mashg'ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg'ulotlarda talabalar o'qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olingan bilimlarini tekshiradilar, mustahkamlaydilar va chuqurlashtiradilar. Ularni amalda qo'llanish ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladilar.

Ishlab chiqarish ta'limi talabalar amaliy faoliyatining muhim bosqichidir. Ular egallagan nazariy bilimlari asosida tanlagan kasblariga doir mehnat ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladilar. Shu bilan birga, nazariy bilim ham to'ldirilib, aniqlashtirilib boriladi.

Bu tamoyil ta'lim beruvchi o'quv materialini bayon qilishda fanning birorta qoidasi va qonunini tushuntirilayotganda, shu qonun – qoidalardan amaliyotda qanday va qaysi holatlarda foydalanilishi ham ko'rsatib berishni talab etadi. Ta'lim beruvchi nazariyani – amaliyot bilan bog'lashda ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlarini misollar echishda, masalalar hal qilishda, o'quv laboratoriyasi, o'quv ustaxonalari va har xil fan to'garaklarida amalda qo'llashga o'rgatishni unutmasligi kerak. Chunki amaliyot – bilishning mezoni, etalonidir.

**Ta'limda ko'rgazmalilik tamoyili.** Ta'limning ko'rsatmalilik tamoyili o'quv materiallarini konkret obrazlar orqali bevosita ta'lim oluvchilarning idrok qilishlarini ta'minlashga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Zotan ko'rsatib, anglatib, tahlil va sintez qilib, amaliy sur'atda ishlatib berilgan bilim,

malaka va ko'nikmalar ta'lim oluvchilar ongiga tezroq singadi, xotirasida uzoq saqlanadi.

O'qitishning ko'rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar talabalarda o'rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog'liq muayyan hissiy - amaliy tajriba bo'lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli ravishda o'zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish mumkin. Bu tamoyil o'qitish jarayonida turli sezgilardan: ko'rish, eshitish, badan bilan sezish va boshqalardan foydalanishni talab etadi. Buyum qanchalik har tomonlama idrok qilinsa, talabalarning shu buyum haqidagi bilimi ham shunchalik to'la va chuqur bo'ladi.

Ko'rsatmalilik tamoyili o'qitish maqsadlariga mos bo'lib, materialning mazmuni bilan belgilanadi. Bu materialni o'rganish esa talabalarni chinakam ilmiy va hayotiy bilimlar bilan qurollantirishi kerak. Ko'rsatmalilik bu bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirib olishga hamda ularning hayot bilan, mehnat amaliyoti bilan bog'lanishiga yordam beradi. Mashg'ulotlarda turli xil ko'rsatmali qurollarni qo'llash talabalarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi, ularning diqqatini aynan o'tilayotgan mavzuga jalb etadi. Shuning uchun ko'rsatmalilik vositalari o'qitishning hamma bosqichlarida talabalarning yangi mavzuni tushunishlarida, bilimlarini mustahkamlashda, tekshirish hamda amaliy faoliyatida va ishda qo'llashlarida, mehnat ko'nikmalari va malakalarini hosil qilishda tatbiq etiladi. Bilimlarni iloji boricha ko'rgazmali va real hayotga yaqin qilib tatbiq etish bir tomondan tilning tushunarligini va o'qitish jarayonida audio-vizual vositalardan foydalanishni talab qilsa, ikkinchidan, u bevosita ish jarayonida va real holatda o'qitishni talab etadi.

Ko'rgazmali qurollar darsning maqsadi, mavzuning xarakteri va mazmunini hamda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib qo'llaniladi.

**O'qitishning tushunarli bo'lishlilik tamoyili** o'rganilayotgan material mazmunini, hajmi va o'qitish usullariga ko'ra talabalarning yoshiga, tayyorgarlik darajasiga, jismoniy kuchi va bilish imkoniyatlariga mos bo'lishini talab etadi.

O'qitishning tushunarli bo'lishi deganda uni oson o'zlashtiriladigan bo'lishi tushunilmaydi. Haddan tashqari oson materialni talabalar ortiqcha kuch-g'ayrat sarflamay o'zlashtirib oladilar. Bunday o'qitish talabalarning aqliy bilish imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam bermaydi. O'qitishni tushunarli bo'lishi talaba imkoniyatlarining eng yuqori chegarasi va uni asta-sekin oshirib borish bilan belgilanadi. Ta'lim jarayonining borishida talabalar oldiga qo'yiladigan o'quv va mehnat topshiriqlarini izchillik bilan murakkablashtirib borish ularning aqliy imkoniyatlari va jismoniy kuchlarini rivojlantiradi. O'quv materialining mazmuni shunday tanlangan va tuzilgan bo'lishi kerakki, talabalar uni o'zlarining avval olgan bilimlari bilan bog'lay olishlari va uni tushunishda qiynalmasligi lozim.

**Namunalardan foydalanish tamoyiliga** ko'ra o'qituvchi o'quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim yaxshi namunalar tanlashga harakat qilishi kerak. Yaxshi model, amaliyotdan tipik misollar, yaxshi yoki yomon mahsulotlar ham kutilgan darajadagi natijaning sifati qanday bo'lishi yoki bo'lmasligini aniq ko'rsatadi.

**Didaktik reduksiya tamoyilida** talabaning bilimlarni yuqori darajada o'zlashtirishi uchun bu o'quv materialini kerakli miqdorgacha qisqartirilishi lozim. Agar o'quv materialining hajmi juda katta bo'lsa, undan kerakli qismlar tanlab olinishi kerak. Majmuaviy va murakkab topshiriqlar osonlashtirilishi lozim, lekin ma'nosi o'zgarmasligi shart. Shuning uchun, agar faqat boshlang'ich bilimlar berish kerak bo'lsa, o'quv materialini iloji boricha oddiyroq tushuntirishga va nihoyatda ko'p va keng o'quv materialini talabani qiynamaslikka harakat qilish kerak. Tajribali o'qituvchi murakkab jarayonlarni oson so'zlar bilan tushuntira oladi.

**Ilmiylik tamoyili** talabalarga o'rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak.

Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo'lishi va talabada nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishi hamda uning ijodiy qobiliyatini shakllantirishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi o'z

ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib bonshi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim. Talaba o'rganayotgan bilimlar, albatta, nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi kerak.

**Tarbiya bilan ta'limning birligi tamoyili.** Mustaqillik tufayli O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishni amalga oshirilmoqda. Bunda ta'lim-tarbiya tizimi ham tubdan isloh etilmoqda.

A.Avloniy ta'lim bilan tarbiyani uzviy ravishda olib qaraydi va **dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurg'on, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kapidur** - deb ta'kidlaydi.

I.Kariimovnnng "YUksak ma'naviyat – engilmas kuch asarida" **ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi** – deb ta'kidalanadi.

O'qitish va tarbiyalash jarayonlari bir-biriga uzviy bog'liq bo'ladi. O'qitish bilim berish vazifalarini hal qilish bilan birga talabalarga juda katta tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. U talabalarning bilish imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning o'quv va mehnat faoliyatidagi faolligi va mustaqilligini, bilimga qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Biroq o'qitish jarayonidagi tarbiyaning maqsadi, mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va talabalarga ta'sir etish samaradorligi bir qator shartlarga bog'liq bo'lib, ulardan asosiylari: o'rganilayotgan fanning mazmuni, o'quv mashg'ulotlarining tashkil etilishi va metodikasi hamda bu mashg'ulotlarni o'tkazayotgan pedagogning shaxsiy fazilatidir.

O'quv mashg'ulotlarining to'g'ri tashkil etilishi va ularni o'tkazish metodikasi talabalarga juda qattiq tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulotlarda talabalarning bilim, ko'rtikma va malakalarni egallashga doir individual ishlari ham, bu ishlarning guruhli ko'rinishlari ham qo'llaniladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida tarbiyaviy yo'nalishning ustuvorligini ta'minlash asosiy mezon hisoblanadi.

Tarbiya orqaligina inson o'z shaxsini anglaydi. O'z-o'zini anglagan kishigina o'z qobiliyatlari va imkoniyatini bilgan holda ehtiyojini shakllantirish zaruratini vujudga keltiradi.

Ta'lim jarayonida o'tilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri belgilash ham uni ta'lim bilan birga bir butunlikda amalga oshirishni ta'minlash juda muhimdir. Ta'lim va tarbiyaning birligi:

- ✓ o'zlashtirilayotgan ilmiy bilimlar orqali ta'lim oluvchilarda ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish;

- ✓ shu jarayonda ta'lim oluvchilarga muayyan ma'naviy sifatlar, ahloq normalarini singdirish;

- ✓ ta'lim oluvchilarning aqliy kamoloti, qobiliyatlarini yanada rivojlantirib borish va hokazo.

**O'qitishda tizimlilik va izchillik tamoyili-** tizimlilik va izchillik tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni talab etadiki, bunda o'quv fanlarini o'qitish qat'iy mantiqiy tartibda olib boriladi. Talabalar bilim, ko'nikma hamda malakalarni izchillik bilan egallab boradilar va ayni zamonda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganadilar. Tizimlilik va izchillik tamoyili pedagogik jarayonning hamma bo'g'mlarida amalga oshiriladi. Uning talablari darsliklar va dasturlarni tuzishda o'z aksini topadi. Ulardagi material bir qator didaktik talablar bo'yicha joylashtiriladi. O'quv dasturida nazariy va amaliy mashg'ulotlar bir-biriga uzviy bog'lanishi saqlanishi kerak. Har bir darsda o'quv maqsadini aniq belgilash va belgilangan maqsadga muvofiq keluvchi mazmunni tarkib toptirish kerak. Har bir kasbiy fan uchun o'quv dasturi talabiga mos holda dastavval tayanch tushunchalarni aniq belgilab olib, ularning darajasi va me'yorini aniqlash kerak. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan usullarni aniq belgilab, yuqori samara beruvchi usullardan foydalanish, mashg'ulotlar davomida berilayotgan bilim va ko'nikmalarning talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini belgilovchi nazorat va tekshirishning turli usullari hamda testlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning ma'lumot darajasi oshib borishiga va rivojlanishiga qarab predmetni bayon qilishning didaktik tizimi fan tizimiga tobora

yaqinlashib boradi. Mashg'ulotlarni o'tkazishda dasturga aniq rioya qilish va talabalarning darslik bilan ishlashi ularning bilimlarni muayyan tizimda o'zlashtirib olishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida tizimlilik va izchillik tamoyilini amalga oshirishda ta'lim beruvchi o'quv materiallarini oldingisini keyingisi uchun asos bo'lishi, keyingisi esa, oldingisining davomi va oldingisi bilan mustahkam bog'liq bo'lishini ta'minlashi lozim.

Darsning tizimli va izchil bo'lishida quyidagilarga e'tibor berish, ya'ni ma'lumdan – noma'lumga, osondan – qiyinga, oddiydan – murakkabga, yaqindan – uzoqqa, yakkadan – umumiyga, umumiydan – juz'iyga, konkretan – abstraktga, misollardan – qoidalarga o'tish tavsiya etiladi. Amaldagi qo'llanib kelayotgan DTS talablari asosidagi o'quv rejalari va dasturlari ham ta'limning tizimli va izchil bo'lishiga amal qilingan holda tuzilmoqda. Xullas, ta'limning ilmiy, tizimli va izchil bo'lishi tamoyili ta'lim jarayonida bir – biriga mustahkam bog'langan holda umumiy birlikni tashkil etadi.

**O'qitishda talabalarning yoshi va individual imkoniyatlarini hisobga olish tamoyili.** Har bir talaba o'zining individual (jismoniy, psixik va b.) xususiyatlariga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi. Pedagogning bu xususiyatlarni o'rganishi va hisobga olishi ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va har bir talabaning ijobiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Talabaning bunday xususiyatlarini o'rganish uzoq vaqt mobaynida olib boriladi. Pedagog talabalarning mashg'ulotlardagi va ishlab chiqarish ta'limi vaqtida ustaxonalaridagi ishini, uy vazifalarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi, yozma ishlari va tayyorlagan buyumlarini tekshiradi, darsdan tashqari vaqtlarda ular bilan suhbatlashadi. Talabaning kuchli va ojiz tomonini bilib olishga, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganishga, uning xarakteri va iroda sifatlarini yaxshi bilib olishga harakat qiladi, hayotiy va mehnat tajribalarini, ularning o'qishga kelishdan oldingi faoliyati xususiyatlarini o'rganadi.

Ta'limda ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish – jonli va samarali dars o'tish garovlaridan biridir. Ta'lim beruvchi o'quv materialini ta'lim oluvchilar uchun tushunarli qilib o'tishi uchun, ularning yoshi va individual xususiyatlarini diqqat markazida saqlashi shart. O'quv materiallari ta'lim oluvchilarning yoshi va ma'lumotiga qanchalik loyiq, mos bo'lsa, bu o'quv materiali ta'lim oluvchiga yaxshi tushunarli bo'ladi va uzoq vaqt xotirasida saqlanadi. O'quv materialini ta'lim oluvchining yoshiga va individual xususiyatiga mos holda o'tish uchun ta'lim beruvchi quyidagi shartlarga amal qilishi lozim:

- ✓ ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarining anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi;

- ✓ ta'lim beruvchining o'quv rejasi, o'quv dasturi, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va zarur qo'shimcha adabiyotlarni qunt bilan o'rganib chiqishi;

- ✓ guruhdagi ta'lim oluvchilar tarkibi, fan va mavzuning maqsadi hamda xarakteriga, darsning maqsadiga qarab o'qitishning yangi – yangi usullarini qo'llashi;

- ✓ dars jarayonida o'z nutqini izchil, tizimli va emotsional, ta'sirli bo'lishiga erishish;

- ✓ dars jarayonida ta'lim oluvchilar diqqatini markazlashtira olishi va hokazo.

**Bilimlarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili.** Nazariy va amaliy ta'lim jarayonida talabalar o'zlarining bo'lajak kasbiy faoliyatlari uchun kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallab boradilar. Bundan tashqari, avvalgi mashg'ulotlarda hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalar ancha murakkabroq materialni o'zlashtirib olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy bilimlarni egallash talabalarning xotirasi, mantiqiy tafakkuri, xilma-xil faoliyat turlaridagi ijodiy faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi. Lekin hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarning kelgusida ilmiy bilimlar tizimini o'zlashtirishda asos bo'lishi uchun ular puxta o'zlashtirilgan bo'lishi va talabalarning xotirasida saqlanishi kerak. Mustahkamlik tamoyilining talablari

shulardan iborat bo'lib, bularga rioya qilmaslik talabalarning sust o'zlashtirishiga, o'qishda ulgurmasligiga sabab bo'ladi.

Ta'lim oluvchilarga har bir fandan beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalar, ular tomonidan ongli, puxta va mustahkam o'zlashtirilgan bo'lishi shartdir. Buning uchun esa har bir fan ta'lim beruvchisi o'zi beradigan o'quv materialini o'quv rejasi, o'quv dasturi va ta'lim oluvchilarning individual yosh xususiyatlariga mos qilib tushuntirish, ta'lim oluvchilarning sezgi a'zolarini ko'proq ishtirok etishiga erishish, ko'rgazmali qurollardan, texnika vositalardan samarali foydalanish, darsda ta'lim oluvchilarni amaliy faoliyatini tashkil etish, ularni mustaqil ishlashga, mustaqil tafakkur qilishga, mantiqiy xulosalar chiqarishga erishishi katta ahamiyatga ega. Darsni ta'lim oluvchilarning yoshlariga mos qilib o'tish, dars davomida turli xil usullardan, vositalardan mohirona foydalanish, dars jarayonida hamma ta'lim oluvchilarni ongli – faol ishtirok etishini ta'minlash, o'quv materialini ilmiy, izimli, izchil, jonli va obrazli bayon qilish, konkret dalillarni ko'rsatish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. Ta'limda qanday tamoyillar mavjud?
2. Didaktika tushunchasini izohlang?
3. *Faollik tamoyilini tushuntirib bering?*
4. *O'qitishda ta'lim oluvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyilini tushuntirib bering?*
5. *Ko'rgazmalilik tamoyilini tushuntirib bering?*
6. *O'qitishda tizimlilik va izchillilik tamoyili tushuntirib bering?*
7. *O'qitishda talabalarning onglilik va faolligi tamoyilini tushuntirib bering?*
8. *O'qitishning tarbiyalovchi xarakterliligi tamoyilini tushuntirib bering?*
9. *O'qitishning tarbiyalovchi xarakterliligi tamoyiliga oid buyuk mutaffakkirlar qarashlarini aytib bering?*

## 4. MAXSUS FANLARNI O'QITISHNING TASHKILIIY SHAKLLARI

**Tayanch so'z va iboralar:** *Nazariy ta'lim, ma'ruza, amaliy va tajriba mashg'ulotlari, ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya darsi, o'quv ustaxonasida o'qitish.*

### 4.1. Ta'limni tashkil etish shakllari.

Fan-texnika taraqqiyoti ta'lim jarayoniga asosan yangicha yondashishni, ta'limning faol metodlari va texnologiyalarini qo'llashni talab qilmoqda, chunki xotira kuchiga asoslangan an'anaviy ta'lim berish usuli ta'lim oluvchilarning fikr yuritish va bilish faolligining o'sishiga ham yordam beradi.

Hozirgi vaqtda respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar oldida ta'lim oluvchilarga tayyor bilimlarni beribgina qolmasdan, balki ularga mustaqil fikr yuritish, ijodiy izlanish, faollik va ziyraklik ko'nikmalarini singdirishi kerakligi masalasi turibdi.

**O'qitishning tashkiliy shakllari** deganda, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o'tadigan faoliyati tushuniladi. O'qitishning u yoki bu tashkiliy shakli jamoaviy va yakka tartibda o'qitishning har xil ko'rinishda qo'shib olib borilishi, o'qitishda ta'lim oluvchilar mustaqilligining turli darajasi, ta'lim oluvchilarning o'qishga o'qituvchi rahbarligining har xil usullari bilan tavsiflanadi. O'qitishni tashkil etish shakllarini tanlash ta'lim-tarbiyaviy vazifalar bilan belgilanadi va o'quv ishining mazmuni hamda metodlariga bog'liq bo'ladi.

Ta'limni tashkil etish shakllari pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bo'lgan, barqaror va mantiqiy tugallangan ko'rinishi bo'lib, unga muntazamlilik va yaxlitlik, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibining doimiyligi, o'tkazishning muayyan tartibi mavjudligi xosdir.

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning tashkiliy shaklini anglatadi.

Maxsus fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllari deganda o'quv-ishlab chiqarish faoliyati uchun talabalarlar jamoasini tashkil etish yo'llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek, o'quv mashg'ulotlarini tuzilish tarkibi tushuniladi.


Ta'limni u yoki bu shaklini tanlashda, talabalarni kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish jarayonida ularning mutloq maqsadi va yaqin vazifalari, mazmun hamda metodlari, shuningdek, moddiy sharoitini belgilaydigan asosiy faktor (ko'rsatkich)larini u yoki bu shakllariga bog'liq.

Kishilik jamiyatining taraqqiyot etish jarayonida ta'limning tashkiliy shakllari turlicha bo'lgan.

Qadimgi paytlarda yakka tartibda o'qitish usuli keng tarqalgan bo'lib, ma'lum ijodiy jihatlarga ega bo'lganligi bois bu usul hozirgacha saqlanib qolgan. O'rta asrlarga kelib, ta'lim-tarbiya kichik guruhlar shaklida o'tkazila boshlagan. Chunki bu davrda sanoat ishlab chiqarishi yo'lga qo'yilayotgan davr hisoblangan.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida chex pedagogi Ya.A.Komenskiy sinf-dars tizimini nazariy jihatdan isbotlab berdi.

Hozirgi paytda maxsus fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllari tahsil oluvchilarning soni, o'qitish joyi va o'quv vaqtining davomiyligiga ko'ra quyidagicha guruhlanadi (4.1-rasm):



4.1-rasm. Maxsus fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllari

## **4.2. Nazariy va tajriba-amaliy mashg'ulotlarning asosiy shakllari.**

Ijtimoiy talablar, maxsus fanlarning maqsad va vazifalari, ta'lim oluvchilarning talab hamda ehtiyojlari, ta'lim-tarbiya qonuniyatlari, tamoyillari kabilarga ko'ra maxsus fanlar mashg'ulotlariga quyidagi talablar qo'yilishi lozim:

- ✓ fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so'nggi yutuqlari, ilg'or pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslanib, dars tuzilmasini maqbullashtirish;

- ✓ darsda barcha didaktik tamoyillarning maqbul nisbatini ta'minlash;

- ✓ ta'lim oluvchilarning qiziqishi, ehtiyojlari, moyilligini hisobga olgan holda yuqori samarali o'quv-bilish faoliyati uchun shart-sharoit yaratish;

- ✓ o'quv materialini mukammal o'zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish;

- ✓ ta'lim oluvchilar tomonidan ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda ish ko'rish;

- ✓ ta'lim oluvchilarning barcha ijobiy jihatlarini rag'batlantirish, o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish yo'li bilan rivojlantirishga erishish;

- ✓ darsning barcha bosqichlarida mantiqiy va his-tuyg'ularga asoslanish;

- ✓ didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish;

- ✓ nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog'lab o'rganish;

- ✓ zarur bilim, ish-harakat, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko'rsatish usullarini tarkib toptirish;

- ✓ ta'lim oluvchilarda uzluksiz ravishda o'qib-o'rganish, o'z bilimi va kasbiy mahoratini oshira borish malakasini shakllantirish;

- ✓ darslarni mukammal rejalashtirish natijalarini oldindan bashorat etish va tashxislash.

Maxsus fanlar bo'yicha zamonaviy darslarda bir-biri bilan uzviy bog'liq ta'lim, tarbiya va rivojlantiruvchi maqsadlarni uyg'unlashtirish bu sohadagi aniq maqsadlarni ham aniqlashtirib olishni talab etadi.

Maxsus fanlarni o'qitishda zamonaviy darslarga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

- ✓ har bir darsning ta'lim-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifasini aniq belgilab olish;
- ✓ ijtimoiy talab va tahsil oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini maqbullashtirish;
- ✓ o'quv-bilish faoliyatini samarali pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish;
- ✓ ta'limning turli shakl, metod va vositalarining uyg'unligini oqilona ta'minlash;
- ✓ dars tuzilmasini ijodiy yondashgan holda shakllantirish;
- ✓ tahsil oluvchilarning turli o'quv-bilish faoliyatlarini uyg'unlashtirish;
- ✓ ta'lim jarayoni ishtirokchilari orasida tezkor-teskari aloqani ta'minlash, ta'sirchan boshqaruv mexanizmini ishlatish;
- ✓ darsni ilmiy-uslubiy asosda tashkil etish.

Amaliyotda sinf-dars tizimi keng ko'lamda qo'llanilganligi sababli maxsus fanlarni o'qitishda ham sinf-dars ta'lim-tarbiya ishining asosiy shakli deb hisoblanadi.

**Dars** deganda o'qituvchining o'quv guruhiga uyushgan, tayyorgarlik darajasi bir xil, tarkibi o'zgarmas o'quvchilar bilan mashg'ulot o'tkazishi tushuniladi.

Sinf – dars shaklining quyidagi o'ziga hos xususiyatlari mavjud:

- ✓ deyarli bir hil tarkib, yoshi va tayyorgarlik darajadagi ta'lim oluvchini ishtirok etishi;
- ✓ ta'lim tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq alohida–alohida qismlar ko'rinishiga ega bo'lishi;
- ✓ har bir darsning o'quv rejasiga kirgan ma'lum bir o'quv predmetiga oid bo'lishi;
- ✓ darslarni jadval asosida muntazam ravishda almashinib turishi;
- ✓ darslarda ta'lim beruvchining rahbarlik qilishi;

✓ ta'lim oluvchilarni turli ko'rinishdagi o'quv-bilish jarayonida ishtirok etishidir.

Sinf – dars shaklining quyidagi ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.

| <i><b>Ijobiy tomonlari</b></i>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | <i><b>Salbiy tomonlari</b></i>                                                                                                                                                                                 |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ qat'iy tashkiliy tizilmaga ega ekanligi;</li> <li>✓ bir o'qituvchi bir vaqtni o'zida ko'p sonli ta'lim oluvchilar bilan faoliyat olib borganligi sababli iqtisodiy ko'rsatkichlarning nisbatan yuqoriligi;</li> <li>✓ o'qituvchi va ta'lim oluvchini o'zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga qulay sharoit yaratilganligi.</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ darsni sinfdagi o'rtacha ta'lim oluvchilarga mo'ljal-langanligi;</li> <li>✓ har bir ta'lim oluvchi bilan individual shug'ullanish imkoniyatining yo'qligi.</li> </ul> |

Har bir dars o'quv jarayonining bir qismi hamda bilim, ko'nikma va malakalarni egallashning bir butun mantiqiy yakunlangan bosqichi hisoblanadi.

Dars muvaffaqiyatli o'tishi uchun uni tashkil etish bo'yicha o'qituvchi faoliyatining maqsadini aniqlash lozim.

Har qanday darsning uchta maqsadlari mavjud ( 4.2 - rasm).



4.2-rasm. Darsning maqsadlari.

**Darsning ta'limiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:**

✓ yangi tushunchalarni shakllantirish;

- ✓ yangi qonun, qonuniyat, xususiyat va belgilarni uzlashtirishni ta'minlash;
- ✓ yangi harakat usullarini o'rgatish;
- ✓ bilimlardagi etishmovchiliklarni bartaraf etish;
- ✓ bilimlarni umumlashtirish va tizimga solish;
- ✓ malakalarni shakllantirish;
- ✓ ma'lum harakat usullarini mustahkamlash;
- ✓ tushunchalar orasidagi bog'lanishlarni aniqlash bo'yicha talabalarda biror narsa to'g'risida tushunchalarni shakllantirish;
- ✓ dunyoqarash g'oyalari va muammolarini aniqlash;
- ✓ talabalarda u yoki bu harakatni, voqealarni baholash bo'yicha bilimlarni shakllantirish;
- ✓ xulosa chiqarishga tayyorlash, o'zlashtirishga erishish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadlari** talabalarda quyidagi muayyan shaxs sifatleri va xarakterini tarkib toptirishdan iborat:

- ✓ dunyoqarashni va kasbga qiziqishni;
- ✓ o'z-o'zini tekshirish va o'zaro yordamni;
- ✓ voqeliklar orasidagi bog'lanishlarni aniqlash va tahlil qilish ko'nikmalarini;
- ✓ bir sohadan ikkinchi sohaga bilimlarni ko'chirish ko'nikmalarini;
- ✓ fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish ko'nikmalarini;
- ✓ nutq madaniyatini;
- ✓ vatanparvarlikni;
- ✓ mehnatga ongli munosabatni;
- ✓ ongli intizom va yaxshi xulqni;
- ✓ ta'lim olishga ijobiy munosabatni;
- ✓ estetik qarashlarni;
- ✓ ish o'rnini tashkil etish va o'z faoliyatini tekshirishni;
- ✓ e'tiqodni.

**Rivojlantirish maqsadi** — dars jarayonida talabalarning psixologik sifatlarini diqqat, xotira, texnik taffakkur va bilish qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Psixologik adabiyotlarni tahlil qilish talabalarda tafakkurni, politexnik, mehnat, bilish (anglash) va aqliy ko'nikmalarni, iroda va mustaqillikni rivojlantirish, ularni kelgusi darslarga tayyorlash zarurligini ko'rsatadi.

Agar bilimlarni shakllantirish va maqsadli tarbiyalash talabalarning bilish qobiliyatini takomillashtirsa, buni rivojlantiruvchi ta'lim deb tan olinadi.

Didaktik maqsadlar bo'yicha darsning quyidagi turlari mavjud:

***Yangi materialni bayon etish darsi.*** Yangi materialni bayon etish darslari suhbat o'tkazish, hikoya qilish, tushuntirish, turli ko'rgazmali vositalardan foydalangan holda muammoli vaziyatlar yuzaga keltirish usullari bilan o'tkaziladi. Bunday darsning asosiy maqsadi dastur materialini tushunarli ravishda bayon qilishdir. O'qituvchi darsning ayrim mavzularini tushuntirish jarayonida ta'lim oluvchilar yangi materialni qanday qabul qilayotganini tekshirib (ta'lim oluvchilarga birma-bir qisqa savol berish yo'li bilan), ta'lim oluvchilarni darsda faol ishtirok etishga jalb qiladi. Bu darslar, odatda, mavzuni bayon etish va darsdan ko'zlangan maqsadni ochib berishni, yangi materialni navbati bilan bayon etish yoki ta'lim oluvchilarning o'quv adabiyoti, texnika adabiyoti (jurnallar, byulletenlar, albomlar, chizmalar, sxemalar, texnologik jarayon kartalari va shu kabilar) yoki ma'lumotnoma adabiyot bilan mustaqil ishlashini tashkil etishni, ta'lim oluvchilarning savollariga javob qaytarishni, ta'lim oluvchilarning yangi materialni o'zlashtirish sifatini tekshirishni, qo'shimcha tushuntirishlarni, uyga vazifalar berishni o'z ichiga oladi. Bunday darslar, odatda, o'rganiladigan material tavsifiy xarakterda va o'zlashtirish uchun engil bo'lgan hollarda o'tkaziladi.

***Bilimlarni mustahkamlash darsi.*** Bunday darslarda oldin o'rganilgan materiallar yuzasidan ta'lim oluvchilar bilan suhbatlar, tajriba-amaliy ishlar o'tkaziladi, har xil masalalar echiladi, texnologik jarayonlar ishlab chiqish mashqlari, yozma grafik ishlar, ilgari o'rganilgan materialni mustahkamlash va tizimga solish yuzasidan turli mustaqil ishlar (sxemalar tuzish va ularni o'qish, jadvallar tuzish, texnikaviy hujjatlarni tahlil qilish va shu kabilar) o'tkaziladi, kinofilmlar ko'riladi, ta'lim oluvchilar ma'ruza va referatlar bilan chiqadilar. Bu ish davomida bilimlar esga solinadi, etarli dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar

ta'lim oluvchilar ongi va xotirasida mustahkamlanadi. Buning natijasida bilimlar ancha puxta bo'ladi.

***Takrorlash-umumlashtirish darslari.*** Bu darslardan ko'zlangan maqsad – o'rganilgan material yuzasidan olingan bilimlarni esga tushirish va tizimga solish, bu esa bilimlardagi kamchiliklarni to'ldirishga, mavzuning, bo'limning va butun fanning asosiy g'oyalarini, masalalarini yanada chuqur ochib berishga yordam beradi. Bu turdagi darslar dasturdagi mavzuni yoki bo'limini o'rganish so'nggida va o'quv yilining oxirida o'tkaziladi. Takrorlash-umumlashtirish darslariga nisbatan qo'yiladigan asosiy talablardan biri ularning mundarijasiga albatta ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatiga doir yangi ma'lumotlar va metodlar kiritishdir.

Takrorlash-umumlashtirish darslari ikki xil bo'ladi: o'qituvchi mavzuning, bo'lim yoki kursning o'rganilgan materiali yuzasidan umumlashtiruvchi sharhlovchi ma'ruza o'tkazadi yoki ta'lim oluvchilar bilan kengaytirilgan suhbat tashkil qiladi. Suhbat vaqtida ta'lim oluvchilar o'qituvchi rahbarligida umumlashtiruvchi mashqlar, yozma ishlar va boshqa topshiriqlarni bajaradilar.

***Sinash-tekshirish darsi.*** Bu darslarda mavzu, bo'lim yoki butun kurs yuzasidan batafsil og'zaki savol-javob, test sinovi, yozma yoki grafik nazorat ishlari o'tkaziladi, nazorat qurilmalari, kartochka-topshiriqlar, sharhlash-takrorlash jadvallari yordamida ta'lim oluvchilar bilimi tekshiriladi, amaliy xarakterdagi topshiriqlar bajariladi. Bunday darslardan ko'zlangan asosiy maqsad har bir ta'lim oluvchining tayyorganlik darajasini asosli baholash uchun ma'lumotlar olish, bilimlarni qanchalik ongli va chuqur o'zlashtirilganligini, olingan uquv hamda malakalarning qanchalik puxta ekanligini aniqlashdan iborat. Bundan tashqari, bunday darslarni o'tkazishda o'qituvchi ta'lim oluvchilar bilimi hamda uquvidagi kamchiliklarni to'ldiradi.

***Muammoli dars.*** Bunday darslarda ko'zlangan maqsad o'quv jarayonini yanada takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqilligini rivojlantirish, o'qitishning eng samarali shakl va metodlaridan foydalanishdir.

Muammoli vaziyatlar yaratish, ularni hal qilish yo'llarini izlash va aniqlash, muammoni hal qilish jarayonining o'zi, chiqarilgan xulosalarning qanchalik to'g'ri ekanligini amalda tekshirib ko'rish o'quv jarayonining muhim elementlari bo'lib qolmoqda.

Muammoli vaziyat hosil qilish ta'lim oluvchilar faol aqliy faoliyatining zarur shartidir. Ta'lim oluvchi oldiga muayn vazifa qo'yilgan, bu vazifa unda qiziqish uyg'otadi va u bu vazifani hal qilishga urinadi, ammo o'z bilimlari hamda tajribasining etarli darajada to'la va chuqur emasligini payqaydi, ya'ni muayyan qiyinchilikka duch keladi. Ta'lim oluvchida hosil bo'lgan vaziyatdan chiqish yo'lini topishdek ichki ehtiyoj paydo bo'ladi, qiyinchilikni his etish paydo bo'lgan shroitni tahlil qilishga va qo'yilgan masalani echish yo'llarini izlashga undaydi. SHunday qilib, bilish lozim bo'lgan va amaliy vazifalar bilan ta'lim oluvchilarning bilimlari darajasi orasida ziddiyat hosil bo'ladi, bu ziddiyat yuzaga kelgan qiyinchilikni bartaraf etishga qaratilgan intensiv fikrlash faoliyatini uyg'otadi.

Muammoli vaziyatni hal etish asosida tashkil qilingan o'quv jarayoni pedagogikada ***muammoli o'qitish*** deb ataladi. Muammoli o'qitish vaqtida hamma vaqt masala (muammo) qo'yiladi va hal qilinadi. Bu muammo savol, topshiriq, masala tarzida beriladi.

Muammoli vaziyatlar yaratishda pedagogika fani ishlab chiqqan hamda amalda tekshirib ko'rilgan quyidagi qoidalarga amal qilishi zarur:

1. Muammoli vaziyat yaratish shunday amaliy yoki nazariy vazifani nazarda tutadiki, bu vazifani bajarishda ta'lim oluvchi o'zlashtirilishi kerak bo'lgan yangi bilimlar yoki harakatlarni "kashf etishi" lozim.

2. Masala quyidagi shakllarda berilishi mumkin: savol shaklida, bunda ma'lumotlar so'roq gapga kiritilgan bo'ladi; bunda savolniig ta'rifi, uning mohiyati vazifani bajarishda ta'lim oluvchida paydo bo'ladigan real savolga mos kelishi kerak; topshirik shaklida, bunday masalada xulosa chiqarish, nimanidir tushuntirish, asoslash taklif etiladi.

3. Masala hamisha ta'lim oluvchining bilim va uquvlariga asoslanishi lozim. Ular savol yoki vazifaning mohiyatini, tub maqsadni va echish yo'llarini tushunish uchun etarli bo'lishi kerak.

4. Ta'lim oluvchiga taklif etiladigan muammoli vazifa ta'lim oluvchining intellektual imkoniyatlariga mos kelishi zarur. Vazifaning qiyinlik darajasi ikkita asosiy ko'rsatkich: o'zlashtirilishi kerak bo'lgan o'quv materialining yangilik darajasi va uning umumlashtirilganlik darajasi bilan baholanadi.

5. Odatda, muammoli vazifa o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv materialidan oldin berilishi darkor. Ammo ta'lim oluvchilarda muammoli vazifani hal qilish uchun etarli darajada bilim va uquvlar bo'lmasa, ularga zarur ma'lumotlarni bayon etish yoki ularni muayyan harakatlarga o'rgatish lozim. Bunday hollarda o'qituvchi jarayonlarni xususiyatlari, aniq ma'lumotlar va shu kabilarni aytib beradi, ta'lim oluvchilar esa ana shu ma'lumotlar asosida, o'rganiladigan harakatlarning umumiy qonuniyatlarini, bajarish usullari hamda shartlarini ijodiy o'zlashtiradilar.

6. Ta'lim oluvchilarning muammoli masalalar echish yo'li bilan yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga o'qituvchi doimo bevosita rahbarlik qilishi kerak. O'qituvchi muammoli vaziyat yuzaga keltiradi, masalani ta'riflaydi, shundan keyin yordamchi savollar berish, aniqliklar kiritish, ba'zi narsalarni aytib berish yo'li bilan ta'lim oluvchilarga talab etiladigan qonuniyatni mustaqil tushunish hamda ta'riflashga, qilinadigan ish usuli yoki shartini topishga, zarur xulosa chiqarishga yordam beradi.

7. Bilim va harakatlarning ma'lum darajada murakkab tizimini muammoli o'zlashtirishni ta'minlash uchun muammoli vaziyatlar yaratishda muayyan muammoga rioya qilish kerak:

✓ murakkab topshiriqni ancha mayda, xususiy topshiriqlarga bo'lish zarur; ba'zi hollarda asosiy masala bir necha dars yoki, hatto, butun boshli mavzu doirasida yagona bo'ladi va xususiy vazifalar sifatida echiladi;

✓ har bir muammoli vaziyatda bitta noma'lum elementni (xossa, nisbat, harakat qonuniyati yoki uni bajarish shartini va shu kabilarni) izlanuvchi element sifatida belgilab olish lozim;

✓ har xil muammoli vaziyatlar uchun xos bo'lgan didaktik funksiyalarni farq qilish kerak: mavzuni o'rganish boshida hosil qilinadigan birinchi muammoli vaziyat ta'lim oluvchilarda o'rganilayotgan umumiy qonuniyatni o'zlashtirish uchun ehtiyoj uyg'otishi darkor; shundan keyingi aniq muammoli vaziyatlar tizimining hammasi shu asosiy masalani ochishga xizmat qiladi;

✓ muammoli vaziyatlar sharoitida o'qituvchi bayon etadigan o'quv materialini va ta'lim oluvchilar mustaqil o'zlashtiradigan materialni aniqlashga differensiallangan tarzda yondoshish kerak; bir darsning o'zida, odatda, ikkala tipdagi materialdan foydalaniladi.

Bu darslardan maqsad talabalar qo'yilgan muammolarni echa olish yoki echa olmasligini aniqlashdir. Bunday darslar talabalar maxsus fanlardan ma'lum bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lganlaridan keyin o'tkaziladi.

***Umumiy yoki aralash dars.*** Bunday darslarda har xil didaktik masalalar hal etiladi - uy vazifalarini va talabalarniig bilimlarini tekshirish, yangi materialni bayon qilish va boshqalar amalga oshiriladi. Ular maxsus fanlarni o'rganishda eng ko'p tarqalgan. Aralash dars o'quv jarayonining bir-biriga eng yaqin zvenolarini o'z ichiga oladi, bu esa talabalar bilimlarni puxta va ongli o'zlashtirishini ta'minlash uchun muhimdir.

#### **4.4. O'quv laboratoriyalarida o'qitish**

Laboratoriya (lotinchadan "*laboro*"- ishlayman) - ilmiy muassasa, vazirlik, korxona, o'quv yurti tarkibidagi ilmiy, ishlab chiqarish-nazorat tajribalari yoki o'quv mashg'ulotlari olib boruvchi mustaqil muassasa yoki bo'lim, bo'linma. Oliy ta'lim muassasalarida laboratoriya 3 turga ajratiladi: o'quv laboratoriya (ayrim o'quv fanlaridan) - talabalar bilan laboratoriya mashg'ulotlari olib boriladi; muammoli laboratoriya - asosiy fanlar bo'yicha yirik ilmiy-texnikaviy izlanish

masalalari hal qilinadi; soha laboratoriya - ishlab chiqarishning muayyan tarmog'idagi dolzarb masalalar hal etiladi.

O'quv laboratoriyalarining vazifalari. O'qitishning moddiy - texnika bazasi yaxshi tashkil etilgan taqdirdagina yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash imkoniyati tug'iladi.

O'qitishning boshlang'ich davri uchun juda muhim hisoblangan ta'lim oluvchilar guruhining ishlab chiqarish sharoiti yaratilgan o'quv laboratoriyasida mas'ul o'qituvchi nazoratida ishlashini ta'minlovchi me'yorli o'quv jarayonini tashkil etish juda qiyin, ba'zan esa ikoniya ham bo'lmaydi. SHu sababli ta'lim muassasasining o'zida ham, korxonalarda ham yaxshi jihozlangan o'quv laboratoriyasi, o'quv maydonlarini albatta tashkil qilinishi nazarda tutiladi. Ta'lim oluvchilar bu erda ish o'rnini oqilona tashkil qila bilish malakalarni egallaydilar, ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan mexanizmlar, jihozlar, asbob-uskunalar bilan tanishadilar, operatsiyalar va ishlar kompleksini texnologik tartibda bajarishning mehnat usullarini, ishlab chiqarish madaniyatini egallaydilar, o'quv vaqtdan oqilona foydalanishni, xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish va texnologik intizom talablariga royiya qilishni o'rganadilar.

O'quv laboratoriyalarining mavjudligi ta'lim oluvchilarni frontal o'qitish uchun zarur sharoitlar yaratadi, nazariy mashg'ulotlarni ishlab chiqarish ta'limi bilan oqilona ravishda almashlab turish imkonini beradi, materiallarni dasturga muvofiq izchil o'rganishni ta'minlaydi.

O'quv laboratoriyalari, o'quv maydonchalarini tashkil qilish, ularni jihozlash va rejasini tuzish ta'lim muassasasi turi, tayyorlanadigan ixtisosliklarning tavsifi va ishlab chiqarishning xususiyatlariga muvofiq holda amalga oshiriladi.

O'quv laboratoriyalarining tarkibi hamda maydoni sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, transport, aloqa, savdo va maishiy-maishiy xizmat ko'rsatishning tegishli sohalarini loyihalashtirishning texnologik me'yorlariga shuningdek, qurilish me'yor va qoidalariga javob berishi kerak.

O'quv laboratoriyalari odatda birinchi qavatda joylashtiriladi. O'quv laboratoriyalarida shovqin chiqaradigan dastgohlar bo'lishini e'tiborga olib,

nazariy bilim berishga mo'ljallangan binolardan ularni iloji boricha alohida qanotga yoki uzoqroqqa joylashtirish kerak.

O'quv laboratoriyalaridagi havoning harorati qishda 15-16°C dan past bo'lmashligi yozda 20°C dan oshmasligi kerak. Bunday harorat ishlash uchun eng qulay sharoitni ta'minlaydi. O'quv laboratoriyalariga yangi havoning doimo oqimi tabiiy yoki havo almashuvini etarlicha ta'minlovchi sun'iy ventilyasiya orqali kelib turishi zarur.

Ta'lim muassasasi binosiga tutash holda qurilgan o'quv laboratoriya xonalari boshqa xonalardan tovush yutuvchi vositalar bilan himoyalangan bo'lishi lozim.

O'quv laboratoriya xonalaridagi chiqindilar har doim yig'ishtirib olinishi lozim.

O'quv laboratoriya xonalarining poli issiq, tekis va tozalash uchun qulay bo'lishi lozim.

O'quv laboratoriya xonalarining devorlari silliq bo'lishi, bo'yoq bilan qoplanishi va namlab tozalab turish uchun qulay bo'lishi lozim.

O'quv laboratoriya xonalari ichimlik suvi bilan ta'minlanishi lozim.

O'quv laboratoriya xonasida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun tibbiyot qutichasi (aptechka) bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

O'quv laboratoriya xonalarida ta'lim oluvchilarning ustki kiyimlarini saqlash uchun alohida shkaf ajratilgan bo'lishi lozim.

O'quv laboratoriya xonalari va bo'limlarining maydoni hamda sanitariya-texnika me'yorlari ta'lim muassasasida tayyorlanadigan ixtisosliklarga qarab me'yorlar bilan belgilanadi. O'quv laboratoriyalarining rejasini tuzishda qo'yiladigan umumiy talablar quyidagilardan iborat:

- ✓ o'quv laboratoriyalari mashg'ulotlarni dasturiga muvofiq o'tkazishga moslashtirilgan va operatsion kompleks tizimga muvofiq bo'lishi kerak;


- ✓ har bir bo'lim maydoni va asbob-uskunalar miqdoriga ko'ra hamda beriladigan kasbga muvofiq 25 - 30 yoki 12 - 15 kishilik ta'lim oluvchilar guruhini bir vaqtda o'qitishga mo'ljallanadi;


✓ laboratoriya xonalari butun guruhni (frontal) o‘qitishga moslangan bo‘lishi kerak;

✓ agar laboratoriya xonasi bir necha guruhni bir vaqtda o‘qitishga mo‘lallangan bo‘lsa, o‘quv guruhining ish mintaqasidan o‘tish yo‘lini berkitish uchun laboratoriya xonasi bo‘limlari bir-biridan ajratiladi. Bu bilan ishlab chiqarish ta’limi ustasining barcha guruh bilan mashg‘ulot o‘tkazish uchun zarur sharoit yaratiladi;

✓ o‘quv laboratoriyalarida har bir kasbning o‘ziga xos xususiyatini nazarda tutib, alohida bo‘limlar, shuningdek, asbob-uskunalar va materiallar saqlanadigan omborxona, chilangar-mexanika bo‘limi va hokazolar tashkil qilinadi;

✓ texnologik jarayon jihatidan bog‘liq bo‘lgan bo‘limlarni bir-biriga yaqinroq joylashtirish kerak. Masalan, chilangar-mexanika ustaxonalarni dastgoh o‘rnatilgan bo‘limlarga-tokarlik ustaxonasini-frezlash va silliqlik bo‘limlariga yaqin joylashtiriladi;





4.1-rasm. O'quv laboratoriyalarining o'quv-ishlab chiqarish muhitiga qo'yiladigan talablar.

✓ devorning bir tomoniga guruh ko'rsatkichlari oynasi (guruh tarkibi, uning majburiyatlari, o'quv-ommaviy ishlar rejasi) o'rnak ko'rsatgan ta'lim oluvchilarning ismi shariflari (suratlari) o'rnatiladi;

✓ laboratoriya xonalarining ko'rinadigan joyiga birinchi yordam ko'rsatish uchun dori-darmon solingan aptechka va qaynatib sovutilgan suvli bak qo'yiladi;

✓ ta'lim oluvchilarning ish o'rnidagi individual asbob uskunalar komplekti va cho'tka, supurgi, qirindini olib tashlash uchun maxsus xokandoz va ilgaklar bo'lishi kerak;

✓ laboratoriya xonalarida tozalash uchun ishlatiladigan materiallar, qirindi, qipiqni yig'ishga mo'ljallangan qopqoqli yashik; qirindi va qipiqni yig'ishtirib olish uchun xokandoz-belkurak, ustaxonani tartibga keltirish uchun cho'tkalar bo'lishi kerak;

✓ yong'inga qarshi zaruriy asbob-uskunalar albatta bo'lishi shart.

**O'quv laboratoriyalarini jihozlash.** O'quv laboratoriyalari ta'lim oluvchilar fan dasturi talablariga muvofiq topshiriqlarni bajarishlari uchun zarur

bo'ladigan, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablariga javob beradigan yakka va ommaviy foydalanishga mo'ljallangan asosiy hamda yordamchi asbob-uskunalar bilan jihozlanadi.

**Jihozlarni o'quv laboratoriya xonalariga joylashtirish.** Jihozlarni o'quv ustaxonalariga joylashtirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ✓ o'qituvchiga o'z ish o'rnida turib ta'lim oluvchilar guruhiga jamoaviy yo'riqnoma berish imkoniyatini;


- ✓ ta'lim oluvchilarning ishlashlari uchun eng qulay va xavfsiz sharoitni;

- ✓ ishlash va ta'mirlash vaqtida, shuningdek materiallar, detallar, chiqindilarni tashishda har tomondan kelishning qulayligini. Bunda dastgoh orasidan o'tish joylarining kengligi 0,5-0,8 m, dastgohlar qatori orsidagi o'tish yo'lining kengligi eng kamida 1,2 m, aravacha, elektrokar va boshqa transport o'tadigan joyning kengligi kamida 2 m dan qilib belgilanadi.

Barcha turdagi jihozlarning xavfli joylari to'r, kojux yoki to'siqlar bilan to'sib qo'yiladi.

Ko'pincha turli maqsadlarga mo'ljallangan, maydonining shakli turlicha bo'lgan binolarga o'quv laboratoriya xonalariga joylashtiriladi. O'quv jihozlarini joylashtirish ko'p jihatdan bino shakliga, shuningdek, binoning yoritilishi holatiga (bir tomonlama, ikki tomonlama va aralash) bog'liqdir. Bu omillarni e'tiborga olib, o'quv laboratoriya xonalarida asbob-uskunalarini frontal (4.2-a rasm) yoki qatorasiga (4.2-b rasm) o'rnatish mumkin.

Qatorasiga joylashtirish qulay bo'lib bunday jihozlar ishlab chiqarish ta'limi ustasining ish o'rniga qaratib uch-to'rt qator qilib joylashtiriladi, bu esa o'qituvchiga butun guruh ishini kuzatib turish imkonini beradi. Bundan tashqari, jihozlarni qatorasiga joylashtirish binoning bir tomonlama yoritilishida ham ikki tomonlama yoritilishida ham tabiiy yoritilishidan yaxshiroq foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari, jihozlarni qatorasiga joylashtirish binoning bir tomonlama yoritilishida ham tabiiy yoritilishdan yaxshiroq foydalanish imkonini yaratadi.



4.2-rasm. Jihozlarni o'quv laboratoriya xonasida joylashtirish.

Dastgohlarni laboratoriya xonalariga joylashtirishda dastgohlar orasida, dastgohlar bilan devor orasida hamda qatorlar orasida tegishli masofa bo'lishini ta'minlash zarur. O'rta guruhdagi dastgohlar qatorasiga joylashtirilganda old tomondan ularning oralig'i 0,5 m dan kam bo'lmasligi kerak. O'rtacha kattalikdagi dastgohlar ko'ndalangiga joylashtirilganda ularning oralig'i 0,9 m dan kam bo'lmasligi kerak. Agar ta'lim oluvchining ish o'rni orqa tomondan dastgohlar qatori bilan emas, balki kolonna yoki devor bilan cheklansa, bu oraliq 0,8 m gacha qisqartirilishi mumkin.

Dastgohlar devor bo'ylab o'rnatilganda dastgohlarning orqa gabarit nuqtasi bilan devor oralig'i (o'rta guruhdagi dastgohlar uchun) 0,5 m dan kam bo'lmasligi kerak. Bu oraliqlar ba'zan etarli bo'lmaydi, shuning uchun dastgohni tuzatish va tekshirish vaqtida elektryuritgichni olish hamda o'rnatish, boshqarish shkafi eshigini ochish va shu kabi ishlarni bajarish imkoniyatini yaratish uchun oraliqni kengaytirish zarur bo'ladi.

Har bir dastgohni o'quv ustaxonasiga o'rnatish jarayonida uning barcha konstruktiv va texnologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Dastgohlar tabiiy yorug'lik ish zonasiga o'ng tomondan yoki old tomondan va o'ngdan tushadigan qilib o'rnatilishi kerak. Mahalliy yoritishda dastgohning derazaga nisbatan joylashuvi ixtiyoriy bo'lishi mumkin.

**O'quv laboratoriya xonalarida ish tartibi.** Ish o'rnida mehnatni ilmiy asosda tashkil etish insondagi yuksak mehnat qobiliyati va sog'liqni saqlashni


ta'minlovchi to'g'ri mehnat va dam olish rejimiga asoslanadi. Tadqiqotlarni ko'rsatishicha, ta'lim oluvchilarning ish qobiliyati kun va hafta davomida sezilarli o'zgarishlarga duch keladi. U yuqori darajada saqlanishi yoki aksincha, tez pasayishi (kundalik rejim buzilganda, yoritish yomon bo'lganda, yuqori harorat, shovqinlar ta'sir qilganda, kam yoki betartib ovqatlanish va shu kabilarda) mumkin.

Ish kuni davomida ta'lim oluvchilarni ishlash qobiliyatlari uch bosqich bilan tar'riflanadi: birinchisi-ta'lim oluvchi ishga «sho'ng'iydi» (ishlash qobiliyati qat'iy bo'lgan holat) uning mehnat unumdoligi asta-sekin oshib boradi; ikkinchisi-yuqori unumdorlik davri; uchinchisi-charchash natijasida unumdorlikning pasayishi.

Ish joyida mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning asosiy shartlaridan biri ish o'rningining etarli darajada yoritilishidir.

Yoritish Davlat standarti talablariga muvofiq bo'lishi, yuzalarni etarli darajada yoritilishini ta'minlashi, ish vaqti davomida doimiy bo'lishi, yorug'ligi bo'yicha teng taqsimlanishi, ko'z nuriga ta'sir ko'rsatmasligi lozim.

Yoritishning me'yorda bo'lishi eng avvalo yorug'lik manbaining joylashishiga bog'liqdir. 4.3-rasmda yorug'lik manbaining to'g'ri (a) va noto'g'ri (b, v, g) joylashtirilishi ko'rsatilgan. Birinchi holat eng to'g'risidir, chunki yorug'lik manbai ishlovchining boshi tepasiga, chap tomonga joylashtirilganligi tufayli u ko'z nurini olmaydi va ish zonasiga soya tushurmay to'g'rida-to'g'ri ish stolini yoritadi. Qolgan uch holatda yorug'lik manbai noto'g'ri joylashtirilgan.



4.3-rasm. Yorug'lik manbalarini joylashtirish variantlari:

*a-soya bermaydi va yorug'lik nurini ko'zga tushurmaydi; b-notekis yuzada soya dog'lari hosil qiladi; v-yorug'likning qaytarilishi tufayli ko'zni qamashtiradi; g-yorug'lik manbaiga qarshi soya beradigan yorug'lik manbai.*

Ish o'rnining etarli yoritilmaganligining sababi yorug'lik manbaiga mas'uliyatsiz qarash, lampaning iflos bo'lishi, abajur yoki reflektorning yo'qligi yorug'likni 30 foiz yoki undan ko'proq kamaytirish mumkin.

O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, ish o'rnining to'g'ri yoritilishi ta'lim oluvchilarning ish unumdorligini 10-30 foiz, yorug'lik manbalarining toza saqlanishi esa 5-15 foizga oshirishi mumkinligidan dalolat beradi. Tadqiqotlar natijasida 30 lk yoritilganlik ko'proq charchashga, 800-1000 lk yoritganlik kamroq charchashga sabab bo'lishi aniqlangan. Yoritganlik 1000 lk bo'lganda xatolarga kamroq yo'l qo'yiladi. Metallga ishlov berish ustaxonasida sun'iy yoritilganlik darajasi lyuminessent lampa – 300 lk, cho'g'lanma lampa – 200 lk, tikuvchilik ustaxonasida lyuminessent lampa – 400 lk, cho'g'lanma lampa – 300 lk bo'lishi lozim.

O'quv laboratoriya xonalari binosining qanday rangda bo'lishi (bo'yalishi) estetik intererni yaratishda muhim element hisoblanadi. Biroq bo'yash vaqtida bo'yoqning rangiga bino va jihozlarni bezash nuqtai nazardan qarab bo'lmaydi, chunki rang odamga va umuman butun mehnat jarayoniga turlicha ta'sir qiladi. Masalan, oq rang 75 foiz, och kulrang 55 foiz, sarg'ish rang 70 foiz, och sariqrang 45 foiz, kulrang 35 foiz, to'q jigarrang esa faqatgina 15 foiz nurni qaytaradi. O'quv ustaxonalarni bo'yashda ana shularni hisobga olish kerak.

Odamning ko'rish organlari va asab tizimiga qizil, to'q sariq, binafsha, to'q qizil rang salbiy ta'sir etishi tadqiqotlar natijasida aniqlangan. Ana shunday ranglarga bo'yalgan binolarda ishlovchilarning ko'rish organlari tez charchaydi, mehnat unumdorligi pasayadi, ziyraklik va ish sifati yomonlashadi. Yashil, ko'kimtir, yashil va sariq ranglar odamning ko'rish organi va psixofiziologik funksiyalariga yaxshi ta'sir etadi, mehnat unumdorlini oshiradi, charchashni kamaytiradi. Turli ranglarni inson kayfiyatiga quyidagicha ta'sir etishi aniqlangan: qizil rang asab tizimini qo'zg'atadi; yashil rang tinchlantiradi; binafsha rang kishi ruhini tushursa; sariq rang ruhni tetiklashtiradi.

Ustaxonalarda havoning holati, ya'ni havoning tozaligi, harorati va namligi mehnatning sog'lom sharoitlarini yaratishda juda muhim ahamiyatga egadir. Havoning changligi, gazlashganligi, ortiqcha namlik yoki quruq haroratning baland yoki past bo'lishi ta'lim oluvchilar organizmiga salbiy ta'sir etadi. Kuzatishlar gigienik talablarga javob beruvchi havoda ishlash mehnat unumdorligini 10 foizgacha oshirishini ko'rsatdi. Bunga yaxshi ishlaydigan oquvchi-so'ruvchi ventilatsiyani o'rnatish orqali erishiladi. Keyingi vaqtlarda havoni konditsionirlash qo'llanilmoqda (havoga ishlov berib, doimiy meteorologik sharoitni-haroratni, tozalik va namlikni saqlash).

Ish o'rnidagi mehnatni ilmiy asosda tashkil etish o'quv ustaxonalaridagi shovqin va tebranishni kamaytirish, ishlash uchun osoyishta sharoit yaratish masalasini o'z ichiga oladi. Mehnat gigienasi va kasb kasalliklari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar ishlab chiqarishdagi shovqin odamning eshitish organlariga ta'sir etishini, garanglikka olib kelishini shuningdek, asab tizimiga salbiy ta'sir etib, boshqa organlarning me'yorda ishlashining buzilishiga sabab bo'lishini ko'satadi. SHovqin va tebranish gipertoniya, yara-chaqa, oshqozon sekretiya bezining buzilishi va boshqa kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Shovqinga qarshi kurashdagi asosiy yo'nalishlar-tovush izolyasiyasi, tovushni yutish va tebranishni izolyasiya qilishdir. SHovqinni yo'qotishning iloji bo'lmagan ba'zi mashinalarni shovqin yutuvchi to'siqlar bilan ajratib qo'yiladi.

#### **4.5. Ishlab chiqarish korxonalariga amaliy darslarni tashkil etish**

Ishlab chiqarish korxonalarida ta'lim oluvchilarni o'qitishning samaradorligini oshirish masalalari ta'limni samarali tashkil etishdagi muhim vazifalardan biri bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda.

Korxonalarda o'qitish vaqtida ta'lim oluvchilarda ishga bo'lgan talablarni to'g'ri tushunish, uning xususiyatlari va bajarilish shartlarini hisobga olish, o'z mehnatini tashkil qilish va rajalashtira bilish, kamchiliklarning oldini olish, texnologik jarayonlarni hamda mehnat unumdorligini oshirish uchun o'z

bilimlaridan to'la foydalana bilishda o'z aksini topuvchi kasbga oid mustaqillik to'liq tarkib topadi. Kasbga oid mustaqillik yosh mutaxassislarda tinimsiz tarbiyalanishi kerak bo'lgan mehnat natijalariga yuksak ma'naviy javobgarlikni his qilish, kasb sharafiga his etish bilan birikib ketadi.

Ta'lim oluvchilar yuqori malakali mutaxassislar va ishlab chiqarish ilg'orlari bilan muomalada bo'lar ekanlar, ularning tajribalarini o'zlashtiradilar, korxonalarining ijtimoiy va ishlab chiqarish hayoti bilan tanishadilar, ishlab chiqarish jamoasining ishlab chiqarish rejasi va korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini bajarish va oshirib bajarishdagi kurashda faol ishtirok etadilar.

Har bir ixtisoslik yoki mutaxassislik bo'yicha bevosita korxonada o'qitish hajmi, mazmuni va muddatlari tegishli o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq belgilanadi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. Maxsus fanlarni o'qitishning qanday shakllari mavjud?
2. Darsga qanday maqsadlar qo'yiladi?
3. O'qitishning sinf-dars shakli qanday afzallik va kamchiliklarga ega?
4. Didaktik maqsadlar bo'yicha darsning qanday turlari mavjud?
5. Korxonalarda o'qitish qanday tashkil etiladi?
6. O'quv ustaxonalarida qanday mashg'ulotlar tashkil etiladi?
7. Ishlab chiqarish korxonalariga amaliy darslar qanday tashkil etiladi?

### **5. MAXSUS FANLARNI O'QITISHNI METODLARI**

**Tayanch so'z va iboralar:** *Ta'lim metodlari, og'zaki metodlar, ma'ruza, xikoya, bahs-munozara, amaliy metodlar, ko'rgazmali metodlar, ta'lim metodlarini tanlash, interfaol metodlar.*

#### **5.1. Ta'lim metodlarining tasniflanishi.**

**Ta'lim metodi** deganda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikdagi faoliyat yo'llari tushuniladi. Bularning yordamida ta'lim oluvchilar bilim,

ko'nikma, malaka, kasbiy mahoratlarni egallashga erishadilar, aqliy va jismoniy kuch va ijodiy qobiliyat rivojlanadi.


Pedagogikada ta'lim metodlarini tasniflanishiga va belgilashga bir xil yondashuv mavjud emas. "Ta'lim metodi" tushunchasining mazmunini ochish to'g'risida munozaralar hozirgi vaqtda ham davom etib kelmoqda. Ba'zi olimlar metodni belgilashda bilish manbalarining xususiyatlarini asosiy deb hisoblaydilar, boshqalari ta'lim oluvchilarning tafakkuridagi ijodiy faollik va mustaqillik, ba'zi olimlar esa ta'lim oluvchilar faoliyatida ta'limning turli bosqichlaridagi tavsifini muhim deb hisoblaydilar.

Ta'lim berishda uning ikki tomoni: o'qitish va o'qish tomonlari hamma vaqt aniq ajralib turadi.

**O'qitish** – ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilarga bilim, ko'nikma va malakalar tizimi berish, ularning bilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi faoliyati.

**O'qish** – ta'lim oluvchilarning o'quv fani materialini o'zlashtirish borasida qiladigan tizimli va ongli mehnatidir.

O'qitish jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, nihoyatda xilma-xil va turli xarakterdagi omillarga bog'liq. O'qituvchi o'qitish metodlarining bitmas-tuganmas xazinasiga ega. O'qitish metodlarini quyidagicha tasniflanadi (5.1-rasm).



5.1-rasm. O'qitish metodlarining tasniflanishi

O'qitish metodlari o'quv jarayonining amalga oshirish, ya'ni o'qitish va o'qish metodlari bo'lganligidan, har bir metodga o'qituvchi faoliyati va talabalar faoliyati nuqtai nazaridan qarash lozim. Shuning uchun ham, ta'lim metodlarini o'quv materiallarini uzatish va idrok etish manbalari bo'yicha quyidagicha guruhlash mumkin (5.1-jadval).

5.1-jadval

**Ta'lim metodlarini o'quv materiallarini uzatish va idrok etish  
manbalari bo'yicha guruhlari**

| Og'zaki metodlar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | Ko'rgazmali metodlar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | Amaliy metodlar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none"> <li>• suhbat: maqsadni tushuntirish talabalarga muammoli savot berish, talabalarining javoblarini</li> <li>• o'quv adabiyoti bilan mustaqil ishlash; maqsadni tushuntirish: topshiriqning mazmun va talabalarining ish tartibini aniqlash, talabalar ishiga rahbarlik qilish. yakun yasash.</li> <li>• ovoz yozishdan va radio, televidiniadan, multimedia resurslaridan foydalanish: maqsadni tushuntirish axborot va multimedia vositalarini boshqarish; talabalarni idrok etishiga rahbarlik qilish va yakun yasash.</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>• ko'rgazmali o'quv adabiyotlari rasmlar va chizmalarni, videotasvirlar, multimedialar, tajribaviy mehnat usullarini namoyish qilish; maqsadni tushuntirish; topshiriqni aniqlashi texnika vositalarini boshqarish, tajribalarni amalda ko'rsatish,</li> <li>• talabalarining ob'ekt va jarayonning mustaqil kuzatishlari; maqsadni tushuntirish, kuzatish ob'ektlarini aniqlash; talabalarining kuzatishlariga rahbarlik qilish, yakun yasash.</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>• tajriba va amaliy mashg'ulotlar; maqsadni tushuntirish, talabalar ishini, tartibini va mazmunini aniqlash hamda rahbarlik qilish; yakun yasash;</li> <li>• Mashqlar: maqsadni tushuntirish; talabalarining ishini tartibini va mazmunini tushuntirish; yakun yasash.</li> <li>• talabalarining ijodiy ishlari; maqsadni tushuntirish, muammo qo'yish; talabalar ishiga rahbarlik qilish va yakun yasash.</li> </ul> |

**5.2. Og'zaki metodlar.**

Agar talabalar asosiy o'quv axborotini o'qituvchining o'quv mulohazalari va isbotlari jarayonida yoki darslik mavzulari asosida olsalar, bunday metodlar og'zaki metodlar jumlasiga kiradi (tushuntirish, hikoya, suhbat va h.k.). Og'zaki metodlarga o'quv materialining o'qituvchi tomonidan og'zaki bayon qilinishiga, hikoya, tushuntirish, suhbat ta'lim oluvchilarning texnik adabiyoti bilan mustaqil ishlashi yozma instruktsiya berish, ovoz yozuvchi televidenie kabilar kiradi.

Talabalarga o'quv materialini bildirishning asosiy metodlaridan biri so'zlab berish, tushuntirish, ma'ruzani o'z ichiga oladigan og'zaki bayon etishdir. Bularning hammasida ta'lim berishning faqat bir vositasidan - o'qituvchi so'zidan foydalaniladi.

***So'zlab berish*** o'quv materialini hikoya tarzida bayon etishni ko'zda tutadi. Bu metod o'quv materiali, asosan, tavsifiy xarakterda bo'lib, mantiqiy izchilligi bilan farq qiladigan hollarda qo'llaniladi. So'zlab berish yordamida, odatda, kirish mavzulari, mashina va mexanizmlarning umumiy tuzilishi, materiallarning xossalari va ishlatilishi, ishlab chiqarishning umumiy texnologiyasi masalalari va shu kabilar bayon etiladi.

***Tushuntirish*** o'quv materialini og'zaki bayon etishni ko'zda tutadi. Tushuntirish jarayonida o'qituvchi solishtirish, taqqoslash, deduktsiya, induktsiya, asoslash, qonuniyatlar chiqarish, masalalar echish va shu kabilardan foydalanadi. Tushuntirish, asosan, xususiy va konkret ma'lumotlarni bildirishda qo'llaniladi. O'qituvchilarning ish tajribasidan so'zlab berish va tushuntirish sof holda kamdan-kam uchraydi, ular ko'pincha so'zlab berish-tushuntirishdan iborat bo'lgan kompleks metod tarzida qo'llaniladi.

***Ma'ruza***, so'zlab berish va tushuntirishdan farqli o'laroq, ancha aniq tuzilgan bo'ladi. Ma'ruzalar, odatda, o'quv dasturining yirik, muhim masalalari yuzasidan o'qiladi. Ma'ruzada o'quv materiali yaxlit va izchillik bilan bayon etiladi, o'zaro bog'langan tushunchalar, qonuniyatlar tizimi ochib beriladi, kursning turli mavzulari orasida ichki bog'lanishlar o'rnatiladi. Kirish ma'ruzalari, sharh ma'ruzalar, rukn ma'ruzalar va xotima ma'ruzalar bo'ladi.

Ma'ruza so'zlab berishga qaraganda uzoq davom etadi (u, odatda, butun darsga mo'ljallanadi) va talabalarning yozib borishini (konspekt tuzishini) ko'zda tutadi. Ma'ruzani eshitish so'zlab berishni eshitishga qaraganda qiyinroq, chunki ko'proq diqqat-e'tiborni talab etadi. Ma'ruzalar, odatda, oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonida qo'llaniladi.

Og'zaki metodlarni qo'llash jarayonida ko'rgazmali qurollardan ham foydalanish mumkin. Ammo ular yordamchi rol o'ynaydilar.

Og'zaki metodlardan foydalanishning muvaffaqiyat ko'rsatkichlari - talabalarning yangi bilimlarni eslab qolishlari va takror aytib bera olishlaridir. Og'zaki metodlarda talabalar o'qituvchi mulohazalari jarayonini takrorlaydilar, unga taqlid qiladilar.

Talaba o'qituvchining tushuntira olish mantiqiga qanchalik yaqinlashsa, materialni shunchalik muvaffaqiyatliroq o'zlashtiradi.

Og'zaki metodlardan yangi materialni o'rganish paytida foydalaniladi va bu o'rganish fanlarni egallashning boshqa usullari bilan qo'shib olib borilsagina ular ta'limda yaxshi samara beradi.

### **5.3. Ko'rgazmali metodlar**

**Ko'rgazmali metodlar** deganda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar va texnika vositalariga ko'p darajada bog'liq bo'lgan o'quv materialini o'zlashtirish shakllari tushuniladi.

Ta'limning ko'rgazmali vositalari bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish xarakterini belgilaydi. Masalan, tikuv mashinasi detallarining namunalari ko'rsatilganda, mexanizmlarning ishlashini virtual model orqali yoki tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayonning videotasviri namoyish qilinishi orqali tushuntirish mumkin,

Ta'limning bunday usullaridan foydalanilganda talabalarning bilish faoliyati ko'rgazmali vositalar yordamida shakllanadigan yoki esga tushiradigan hissiy obrazlarga, tasavvurlarga bog'liq bo'ladi. Ko'rgazmali qurollar bilimlarni bir tizimga solish va boyitishda, shuningdek, talabalarning fikr yuritish faoliyatini faollashtirishda yordam beradi.

Ta'limning ko'rgazmali usullari talabalarning bilish faoliyatida obrazli va mantiqiy, konkret va abstrakt, hissiy va aqliy jihatlarining nisbatini chuqur tushunishni talab etadi.

Ko'rgazmali vositalarni namoyish qilish (ko'rsatish) yordamida talabalarda mashina va mexanizmlar tuzilishini, texnologik jarayonlarni, mehnat harakatlarini muayyan va aniq obrazi shakllanadi. Ular unga taqlid qiladilar va o'z harakatlarini

qiyoslaydilar. Mazkur metodning qo'llanilishi maxsus fanlarni o'qitishda ko'rgazmalik tamoyilining yaqqol namunasi bo'lib hisoblanadi. Maxsus fanlar darslarida ko'rsatmali qurollarning turli xil va shakllaridan foydalanish o'qituvchining tushuntirishlarini yaxshi idrok qilish hamda o'zlashtirishlarga, malakalarning mustahkam shakllanishiga yordam beradi. Slaydlar, rllakatlar, sxemalar, modellar, maketlarni namoyish qilish bilan bir qatorda harakatdagi ish quroli, asboblari, moslamalar xom-ashyolar, buyumlarning haqiqiy namunalari va hokazolarni ko'rsatish ham katta ahamiyatga ega.

#### **5.4. Amaliy metodlar**

Mashqlar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va tajriba-sinov ishlari asosida o'quv materialini egallash shakllari ta'limning amaliy metodlari jumlasiga kiradi. Ana shu metodlar yordamida amaliy ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Bunday ko'nikmani shakllantirish jarayoni o'quv faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ko'nikmalarni egallashning muvaffaqiyati uni shakllantirish sharoitiga bog'liq.

*Birinchi shart*-ko'nikma nima maqsadda shakllantirilishini anglashdir. Har qanday ko'nikma-avtomatlashgan darajaga etkazilgan harakatlar tizimidir. Agar talaba o'quv materialini o'zlashtirishda ularning ahamiyatini tushunmasa, bu harakatlarni shakllantirish qiyin bo'ladi. Masalan: tikuv mashinasi kiyimni qaysi qismlarini tikishga mo'ljallanganligini va buning uchun kiyim materialiga mos ravishda ip va ignalar tanlanishi tartibini bilmasa, shu ishlarni bajarishdagi harakatlarni shakllantirish qiyin bo'ladi.

*Ikkinchi shart*-mashqlarning tizimli bo'lishi. Odatda, ko'nikmalarni egallashdagi kamchiliklarga o'quv mashqlari tizimini tashkil etish va o'tkazishdagi kamchiliklar sabab bo'ladi, ya'ni mashqlarni o'tkazish uchun kerakli vositalar bilan ta'minlanmaganligi.

*Uchinchi shart*-amaliy harakatlarni anglagan holda bajarish. Talabalar harakatlarning muayyan fikriy rejasiga asoslanishlari, ish jarayonlarining izchilligini yaxshi tushunishlari zarur. Ularni mexanik tarzda takrorlashga va yodlab olishga yo'l qo'ymaslik kerak.

*To'rtinchi shart*-dastlabki amaliy harakatlar va jarayonlarga puxta tayyorlanish. Ular ongli ravishda reja asosida bajarilsa, ko'nikma tezroq, muvaffaqiyatliroq shakllanadi. Buning uchun talabalar nazariy bilimlarni yaxshi egallashlari kerak.

*Beshinchi shart*-mashqlarni mustaqil bajarish va o'zini o'zi nazorat qilish. Talaba ko'nikmani mustaqil bajara boshlaganida u o'z harakatlarini nazorat qiladi. O'qituvchi talabaga o'z-o'zini nazorat qilish usullarini o'rgatishi zarur. Masalan, talaba kiyimni bironta detaliga bezak berish jarayonini amaliy o'rgangandan keyin, uyda o'zi mustaqil ravishda bajarishga va baho berishga o'rganadi.

*Oltinchi shart*-bajarilgan mashqlar, amaliy ishlar tahlili va ularni baholash. O'quv ko'nikmalari va malakalarida ijobiy va salbiy jihatlar bo'ladi. Talabalar yo'l qo'yadigan tipik xatolar namoyon bo'ladi. Lekin o'quv xonasida yaxshi ishlarni namoyish qilish, rag'batlantirish kerak. Ijobiy namuna asosida o'qitish afzalroqdir.

Agar ko'nikmani shakllantirish shartlariga rioya qilinsa, o'qitishning amaliy metodlari o'quv materialining muvaffaqiyatli egallanishiga olib keladi.

Amaliy metodlarga mashqlar, instruktaj (yo'llanma)lar, o'quv qo'llanmalar bilan ishlash, laboratoriya tajribalari, kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish kiradi.

*Mashqlar* – ta'lim jarayonini tadqiq qilish har bir yangi operatsiyani qisqa muddatli (5-15 minut) mashqlardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu mashqlarni shartli ravishda ta'limiy mashqlar deyiladi. Amaliy ishlarni bajarish jarayonida talabalar har xil buyumlar tayyorlar ekan, mehnat usullari va harakatlarini bajarish bo'yicha mashq qilishni davom ettiradilar. Bunday mashqlarni tayyorgarlik mashqlari deyiladi.

Amaliy metod hisoblangan mashq talabalarning ko'nikma va malakalar hosil qilish maqsadida muayyan amallarni ko'p marta va ma'lum maqsadni ko'zlab bajarilishini ko'zda tutadi. Umumkasbiy va maxsus fanlarni o'rganishga tadbiquan olganda, mashqlardan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarning bilimlarini mustahkamlash hamda takomillashtirish, ularda olingan bilimlarni har xil ishlab chiqarish masalalarini echishga tatbiq etish ko'nikmalari hosil qilishdan iborat.

Mashqlar odatda, dars davomida o'tkaziladi, ular o'quv faoliyatining barcha bosqichlari uchun xos bo'lib, o'quv jarayonidagi o'rniga qarab har xil didaktik vazifalarga ega bo'ladi va muayyan pedagogik talablarga javob berishi kerak.

Mashqlarga nisbatan qo'yiladigan zarur talablardan biri ularning *ma'lum maqsadga qaratilganligidir*. Talabalar o'zlaridan nima talab qilinishini va ular nimaga intilishlari kerakligini aniq tasavvur qilganlari taqdirdagina muvaffaqiyat qozonishlari mumkin. Maqsadga bunday intilish talabalarni faollashtiradi, topshiriqni bajarish uchun mavjud bilimlarni ijodiy tatbiq etishlariga yordam beradi.

Mashqlarni bajarishda ta'lim oluvchilarning ma'lum maqsadga intilishlari ularning yuqori darajada ongli bo'lishini nazarda tutadi. Ana shundagina o'zlari o'zlashtirgan qoidalarni yoki o'rgangan harakat usullarini o'z oldilariga qo'yilgan vazifani hal qilish uchun tatbiq etibgina qolmay, balki bu qoida va usullarni o'zlarining shaxsiy misollari bilan tasdiqlay oladilar, bu misollarni berilgandan farq qiladigan boshqa sharoitda bajara oladilar. Ular nima uchun boshqacha emas, ana shunday qilayotganlari sababini tushuntirib bera oladilar. Onglilik talabalarining aqliy kuchlarini faol zo'riqtirishlarini, amaliy ishlarda tashabbus ko'rsatishlarini nazarda tutadi. SHu munosabat bilan, mashqlar jarayonida talabalarining ongli ravishda maqsadga intilishlari to'g'risida gapirish mumkin.

Mashqlardan ko'zda tutiladigan asosiy maqsad, talabalarda olingan bilimlarni o'quv-ishlab chiqarish masalalarini hal qilishda tatbiq etish ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iborat. Bu hol, tabiiyki, *o'quv jarayoniga mashqlarni talabalar zarur bilimlar olganlaridan keyin kiritishni* talab etadi. Bu talab barcha mashqlarga avvalo, o'qitishning boshlang'ich bosqichlarida o'qtkaziladigan mashqlarga taalluqlidir. Ammo keyinroq, talabalar etarli darajada bilim va amaliy tajribaga ega bo'lganlaridan keyingina shunday mashqlar berish mumkinki, bu mashqlarni bajarish uchun talabalarda zarur bilimlarning ba'zilar bo'lmaydi. Bunday hollarda mashqlar, mavjud bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish bilan bir qatorda, yangi bilimlarni o'zlashtirish vositasi bo'ladi.

Fanni o'rganish vaqida o'tkaziladigan mashqlar majmui yaxshilab o'ylangan, *pedagogik asoslangan tizim* bo'lishi kerak. Mashqlar tizimi, avvalo, ularning qat'iy izchilligini ko'zda tutadi. Har bir yangi ko'nikma, yangi malaka mustahkam asosda rivojlanib, o'quv fani tizimiga kiritilgan taqdirdagina oson hosil qilinadi. Ishning har bir yangi turiga talabalar o'zlarining bundan oldingi faoliyati bilan tayyorgarlik ko'radi. Mashqlar tizimi murakkabligi va bu mashqlarni bajarishda talabalarning mustaqillik darajasi sekin-asta ortib boradigan qilib tuzilishi lozim.

Talabalarning mustaqillik darajasini sekin-asta oshirib boruvchi mashqlarni tanlashda, ularning xilma-xil bo'lishi kerakligini ham esdan chiqarmaslik zarur. Bu hol, bir tomondan, talabalarning qiziqishini so'ndirmaslik uchun, ikkinchi tomondan, talabalarni o'z bilimlarini har xil sharoitda tatbiq etish usullariga o'rgatish uchun muhimdir.

Bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirishning hamda mashqlar jarayonida uquv va malakalar hosil qilishning samaradorligi mashqlarning soniga, ularni o'kazish tizimlilikiga va muntazamligiga, shuningdek, vaqt jihatidan taqsimlanishiga bog'liq. Vaqt jihatidan taqsimlanishi esa, o'z navbatida, o'rganiladigan materialning xarakteriga bog'liq. Tarkibida asosiy masalalar bo'lgan, mavzu yoki fanning asosiy qonun-qoidalarini aks ettiradigan material puxta mustahkamlanishi kerak, bu esa bilimlarni bundan keyingi o'zlashtirilishiga ishonchli asos bo'ladi. O'rganish vaqtida talabalar qiynaladigan va tipik xatolarga yo'l qo'yadigan materialga oid mashqlar tez-tez va ko'p o'tkazilishi darkor. Ammo boshqa hollarda ham, o'rganiladigan materialning muhimligi hamda murakkabligiga qaramay, mashqlar o'quv ishining majburiy elementi bo'lishi, tizimli va muntazam ravishda har qaysi darsda o'tkazilishi lozim. Bu esa talabalarning ish sohasidagi mehnatida muayyan uslub yaratadi, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta hamda tizimli o'zlashtirilishiga yordam beradi. Bir tipdagi mashqlar o'tkazishda avval ularni tez-tez, keyin siyrakroq takrorlash zarur. O'rganilgan material esdan chiqib qolishining oldini olish va uni yanada mustahkamlash maqsadida, bundan keyingi mashqlarga uni tadbiq etishga oid topshiriqlar kiritib turish zarurki, bu mashqlarda yangi topshiriqlar asosiy bo'lib qoladi.


Yuqorida aytib o'tilganidek, fanlararo bog'lanishlarning tiplaridan biri - talabalarda hosil qilinayotgan uquvlar bo'yicha bog'lanishdir. SHunga asoslanib, mashqlar o'tkazishda *talabalarda fanlararo xarakterdagi ko'nikmalar* - o'z ishini rejalashtirish ko'nikmalari, umumiy xarakterdagi intellektual va amaliy ko'nikmalar, kitob bilan ishlash ko'nikmalari, tashkil etish ko'nikmalari hosil qilishga alohida e'tibor berish zarur. Bu hol talabalarning bir fanni o'rganishda orttirgan bilim va ko'nikmalarini boshqa fanlardan qilinadigan ishga ko'chirishga yordam beradi.

### **5.5. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish.**

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan. Bunday metod talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndiradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar (innovatsion pedagogik texnologiyalar)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormokda. Innovatsion texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustakil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog - olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida quyidagi



savollariga javob izlash bilan bir qatorda *qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin* degan savolga ham javob qidirdilar. Bu esa, pedagogika sohasi olim va amaliyotchilarini o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab-chikarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga

aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi. Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga e'tibor berilayotganining asosiy sababi qo'yidagilardir:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojintiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da rivojlatiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talaba (yoki ta'lim oluvchi)dan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlatini talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talabani kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim xayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga kodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustakil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari - interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'zni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda ko'llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

**Innovatsiya** (inglizcha *innovation*) yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol ("*inter*" - bu o'zaro, "*act*" - harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol metodlari -bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'zni qisman talabalarining faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular fakat pedagog va talabalarining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orkali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

- ✓ talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;
- ✓ talabalarining o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiyligini ta'minlanishi;
- ✓ talabalarining fanga bo'lgan qiziqishlarini mustakil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;

- ✓ pedagog va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi.

Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. *O'quv jarayonidagi **pedagogik texnologiya** - bu aniq ketma-ketlashdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir matssadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirshgan va kafolatlangan natija berishiga tsaratilgan pedagogik jarayondir.*

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda talaba larning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'lar. Bularning hammasi o'qituvchi va talabalarga bog'liq.

SHu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va shiroitni, eng asosiysi, talabalarning imkoniyati va extiyojini va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. SHundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqacha aytganda, talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalaridagi o'qitish jarayonida "Juftlikda ishlash", "Kontseptual xarita", "Hamkorlikda ishlash", "FSMU", "Blits-so'rov", "Zig-zag", "Davra suhbat", "Nilufar guli", "Kichik guruhlarda ishlash", "Sinkveyn", "Pinbord", "Bumerang", "Debatlar", "Insert", "Aqliy hujum", "Klaster", "Kubik", "Tushunchalar tahlili", "T-sxema", "Venn diagrammasi", "BBB strategiyasi", "Ikki qismli kundalik", "Esse", "Taqriz", "Keys-stadi", "Baliq skleti", "Assesment", "Zinama-zina", "Rolli o'yinlar" va shu kabi yuzlab

har xil innovatsion ta'lim texnologiyalari ishlab turibdi va pedagoglar o'z dars mashg'ulotlarining mazmuniga ko'ra ulardan samarali foydalanmoqdalar.

### **5.6. Ta'lim metodlarini tanlash.**

Ta'lim metodlarini tanlash *birinchidan*, darsda ko'zda tutilgan o'quv maqsadlariga bog'liq. Masalan, darsning maqsadi yangi bilimlarni o'rganishdan iborat bo'lsa, o'qituvchi bu bilimlarni o'zi bayon etadi yoki talabalarning kitob bilan mustaqil ishlashini tashkil qiladi. Birinchi holda u turli xil narsalarni ko'rsatish bilan qo'shib olib boriladigan hikoya, tushuntirish, ma'ruza yoki suhbat usulidan foydalanishi mumkin. Agar darsda talabalarda amaliy ko'nikmalar hosil qilinishi kerak bo'lsa, buning uchun mashq qilish usuli qo'llaniladi.

*Ikkinchidan*, o'rganiladigan fanning mazmuni va darsning aniq materialiga bog'liq bo'ladi. Masalan, «Tikuv buyumlari texnologiyasi» fanida o'rganish kiyimga ishlov berishda bir xil usullar, ishlab chiqarish ta'limi darslarida esa butunlay boshqa usullar qo'llaniladi. Ayrim hollarda o'rganilayotgan texnologik jarayonlarni talabalar bevosita kuzatishlari mumkin. SHuning uchun o'qituvchi bu kuzatishni tajribalarda yoki mehnat faoliyati jarayonida tashkil etadi. Agar ularni bevosita kuzatish mumkin bo'lmasa, o'qituvchi turli xil ko'rsatmali qurollarni namoyish qilishdan foydalanadi.

*Uchinchidan*, talabalarning ilgarigi tayyorgarlik darajasiga va shaxsiy tajribasiga bog'liq. Agar yangi material talabalarga butunlay notanish bo'lsa, o'qituvchi buni ko'rsatmali qurollar va tajribalarni ko'rsatish bilan qo'shib o'zi bayon qiladi.

Nihoyat, *to'rtinchidan*, ma'lum bir o'qitish usulini tanlash asbob-uskunalar, ko'rsatmali qurollar va o'quv jarayonining normal o'tishini ta'minlaydigan boshqa shart-sharoitlarning borligiga, shuningdek, o'qituvchining tajribasi, ish uslubi va shaxsiy sifatlariga bog'liq. O'qituvchining vazifasi-bu shart-sharoitlarni yaxshilash hamda o'zining pedagogik mahoratini doimo takomillashtirib borishdan iborat.

Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

✓ zamonaviy didaktikaning etakchi g'oyalari, ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;

✓ o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi;

✓ xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi;

✓ muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;

✓ u yoki bu mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt;

✓ ta'lim oluvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;

✓ ta'lim oluvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi;

✓ o'quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta'minlanganlik darajasi, jihozlar, ko'rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi;

✓ o'qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darajasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatlari;

✓ o'quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o'rnatilganligi.

O'qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og'zaki, ko'rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq echimlar qabul qiladi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

8. Ta'lim metodlari deganda nimani tushunasiz?

9. O'qish va o'qitish tushunchalarini izohlab bering?

10. Ta'lim metodlari qanday tasniflanadi?

11. Og'zaki ta'lim metodlarini qanday turlari mavjud?

12. Suhbat metodini o'ziga xos xususiyatlari nimada?

13. Og'zaki bayon etishda o'qituvchi nutq texnikasi qanday bo'lishi kerak?

14. Ko'rgazmali metodlarni afzalliklarini tushuntirib bering?

15. Mashq nima?

16. Innovatsiya tushunchasiga ta'rif bering?

17. Ta'lim metodlarini tanlash qanday mezonlarga asoslanadi?

## 6. TA'LIM JARAYONIDA KO'RGAZMALI VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

**Tayanch so'z va iboralar:** *Ko'rgazmalilik tamoyili, ta'lim vositalari turlari, yassi tasviriy ko'rsatma, hajmiy tasviriy ko'rsatma, maket, model, grafik organayzerlar, haqiqiy namunalar, o'quv xona doskasiga chiziladigan rasm, o'qitishning axborot texnik vositalari, o'quv videofilmi, o'quv videofilmini namoyish qilish metodikasi.*

### 6.1. Ko'rgazmalilik-didaktik tamoyillari asosida.

Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda ko'rgazmalilik metodlar ham alohida ahamiyatga ega.

Ko'rgazmalilik metodlardan foydalanish zaruriyati ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko'rinadi. Inson miyasining 30 foiz hajmini ko'rishni, faqat 3 foizigina eshitishni ta'minlovchi neyronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ladiki, shaxs tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko'rish retseptorlari yordamida o'zlashtiriladi. Demak, o'zbek xalqi tomonidan ko'p bora qo'llaniladigan "YUz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi" maqoli ilmiy asosga ega ekan.

Namoyish metodi o'rganilayotgan ob'ekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Tabiiy ob'ektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan ob'ektlarning sub'ekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa o'quv xonasi doskasiga chizish yoki o'qituvchining maxsus jihozlar yordamida ko'rsatib berishi hisobiga amalga oshadi, bunda ushbu tajriba asosida yotuvchi tamoyillarni tushunish osonlashadi.

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko'proq didaktik samara beradi, biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har

doim ham mumkin bo'laermaydi. SHu bois o'qituvchilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, dastgohlar bilan ishlab chiqarish korxonalarida tanishish) yoki sun'iy ravishda yaratilgan ob'ektlar (maket, model, mulyaj, skelet va boshqalar)dan foydalaniladi.

Bu metod yordamida o'qituvchi ta'lim oluvchilarni mustaqil ravishda ob'ektlarni o'rganish, zaruriy o'lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni o'rnatish, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab etishga bir so'z bilan aytganda faol bilish jarayoniga yo'naltirishi lozim. Namoyish samarasi ko'p jihatdan o'qituvchini ko'rgazmali materialni ta'lim oluvchining tayyorgarlik darajasiga mos holda to'g'ri tanlanishi hamda mumkin qadar ularning diqqatini namoyish etilayotgan predmetning muhim jihatlariga yo'naltirishiga bog'liqdir.

Tasvir (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi. Ilyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi.

Namoyish va tasvir metodlari o'zaro bog'liqlikda bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi. Agar hodisa va jarayonni ta'lim oluvchi yaxlit holda qabul qilishi zarur bo'lsa namoyishdan foydalanish, agar hodisa mohiyati hamda uning unsurlari o'rtasidagi bog'lanishlarni anglash talab etilsa illyustratsiyaga murojaat qilinadi.

Tasvirning samarasi ko'pincha o'qituvchi tomonidan ko'rsatuv texnologiyasi qay darajada o'zlashtirilganligiga bog'liq bo'ladi. Ko'rsatmalardan foydalanishning bilish jarayonidagi didaktik ahamiyati o'rganilayotgan ob'ekt mohiyatini to'laqonli yoritish bilan belgilanadi. Aslida illyustratsiyalar oldindan tayyorlanib, dars jarayonida zarur o'rinlarda kerakli hajmda ko'rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi ta'lim oluvchilarni hodisa mohiyatini anglashda chalg'itadi. Ayrim hollarda tarqatma materiallar (fotosurat, jadval, tabiiy ob'ektlar va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to'g'ri keladi.

Ko'rgazmali metodlardan foydalanishda samaradorlikka erishish uchun quyidagi shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- ko'rgazmalilikning ta'lim oluvchilar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi;
- namoyish etilayotgan ob'ektlar barcha ta'lim oluvchilarga yaxshi ko'rinib turishi;
- namoyishda uning boshlang'ich bosqichi va asosiy jarayon (holat)larning ajralib turishi;
- tajribalar namoyishi maket, jihoz, qurollar yoki tajriba sxemasini chizib ko'rsatish asosida tashkil etilishi;
- namoyish va illyustratsiya o'quv materialining mazmuni bilan uyg'un bo'la olishi lozim.

Didaktikada ko'rsatmalilik tamoyili konkret bilan abstraktning birligi to'g'risidagi qoidasi asosida ko'rib chiqiladi. Narsa yoki hodisaning aslini yoki tasvirini idrok etish inson uchun atrofdagi borliqni, biror haqiqatni bilishning dastlabki va eng oddiy akti hisoblanadi hamda o'rganilayotgan narsalar, jarayonlar, hodisalar to'g'risida aniq tasavvurlar va abstrakt tushunchalar hosil qilish uchun asos vazifasini o'taydi.

O'qitishning ko'rsatmaliligiga sabab bu insonning fikrlash xususiyatidir. Bu xususiyat asosan konkret dan abstraktga tomon rivojlanadi. Tushunchalar va abstrakt qonun-qoidalar konkret kuzatishlar natijalariga asoslansa hamda ular bilan mustahkamlansa, ancha oson va tez shaklanadi. Kishilarda tafakkurning rivojlanishi ularning yoshiga, hayot va ish tajribasiga va boshqalarga bog'liq. Ammo bizning tafakkurimiz rivojlanishning qaysi bosqichida bo'lmasin hamda biz qanchalik murakkab masalalarni o'rganmaylik, konkret faktlar va obrazlardan ajralib qolmasligimiz kerak.

Ko'rsatmalilik tamoyili o'qituvchining xilma-xil o'quv qo'llanmalari va o'qitishning audiovizual (eshitish-ko'rish) axborot-texnika vositalaridan foydalanishida, ularning pedagogika jihatidan ma'qul tarzda yasashida aks etadi.

Ko'rsatmali qo'llanmalar-talabalarni o'rganiladigan ob'ektlar, hodisalar, jarayonlar to'g'risida yaqqol (asosan ko'rish) tasavvurlar hosil qilish metodida o'qitish maqsadida ishlatiladigan vositalar, o'zlashtiriladigan bilimlar xarakteriga,

talabalarda mavjud bo'lgan tasavvur, tushuncha, hayot va ish tajribasiga, darsning konkret vazifalariga qarab ko'rsatma qo'llanmalar o'qitishda har xil rolni bajaradi. Ular bilimlar manbai sifatida, shuningdek, o'qituvchi so'zlab berish, tushuntirish, suhbat vaqtida foydalanadigan rasm sifatida xizmat qilishi mumkin. Ko'pincha, bu ikkala vazifa kompleks tarzda kelishi mumkin.

Ko'rsatma qo'llanmalar va ulardan foydalanish haqidagi umumiy masalalar pedagogik adabiyotda ancha batafsil yoritilgan, shuning uchun bu vositalarning maxsus va umumkasbiy fanlarni o'rganishda foydalanilishini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Maxsus va umumkasbiy fanlarini o'qitishda ko'rsatmalilikdan foydalanish, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar, matematik va tabiiy-ilmiy fanlar blokidagi fanlarini o'qitishdagiga nisbatan muayyan xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar yuqoridagi ikki o'quv bloki fanlari mazmunining o'ziga xos xususiyatlari va ularni o'rganish metodikasi bilan bog'liq. Agar gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar, matematik va tabiiy-ilmiy fanlar blokidagi fanlarini o'rganishda ko'rsatma qo'llanma tamoyilini, asosiy g'oyani yaxshiroq o'zlashtirishga yordam bersa, maxsus fanlarini o'rganishda esa ob'ektning tuzilishi, texnologik ish jarayoni, mexanizm yoki tarkibiy qismlarning o'zaro ta'siri birinchi o'rinda turadi. Maxsus fanlarni o'rganishda mashina, dastgoh, mexanizm va tarkibiy qismlarning aslini o'rganish, shuningdek, ularni qismlarga ajratish hamda yig'ish uchun talabalarga imkoniyat tug'dirish muhim o'rin tutadi.

Ko'rsatmali qo'llanmalardan quyidagi hollarda foydalaniladi:

- ✓ o'rganiladigan ob'ektniig asli juda katta yoki juda kichik bo'lganda (domna va marten pechlari, soat mexanizmi va shu kabilar);
- ✓ ob'ekt yoki hodisalarning aslini ko'rish mumkin bo'lmaganda (elektr toki, molekulalarning tuzilishi, kristall panjaralar va shu kabilar);
- ✓ o'rganiladigan ob'ekt yoki hodisalarning aslini bevosiga kuzatish - mumkin bo'lganda (dvigatelning ichki tuzilishi, kimyoviy apparatlarda, pechlarda va shu kabilarda sodir bo'ladigan jarayonlar);


✓ tushunchani grafik tarzda tasvirlash talab etilganda (dvigatel, tsiklogramma va shu kabilarning xarakteristikasi);

✓ murakkab ob'ektlarni oddiylashtirish yoki ishlash prinsipini ko'rsatish zarur bo'lganda (qurilma sxemalari, dastgohlarning kinematik sxemalari, prinsipial elektr sxemalar va shu kabilar);

Harakatlanishning eng xarakterli momentida mexanizm yoki mashina detallarining joylashuvini qayd qilish va ko'rsatish talab etilganda (ichki yonuv dvigateli krivoship-shatunli va taqsimlash mexanizmlarining chekka nuqtalari, egovlashda harakatning o'ziga xos har xil nuqtalarida qo'llar, oyoqlar hamda gavdaning vaziyati va shu kabilar).

## 6.2. Zamonaviy ta'lim vositalarining turlari va tavsifi.

Garchi so'nggi vaqtda pedagogik tajribada yassi va hajmiy elementlardan tuzilgan ko'pgina ko'rsatma qo'llanmalar (dinamik plakatlar, hajmiy sxemalar, elektrlashtirilgan sxemalar va shu kabilar) paydo bo'lgan bo'lsada, tasviriy ko'rsatma qo'llanmalrni yassi hamda hajmiy qo'llanmlarga bo'lish mumkin (6.1-rasm).



6.1-rasm. O'quv jarayonida foydalaniladigan ta'lim vositalarining turlari

*Yassi tasviriy ko'rsatma qo'llanmalar* jumlasiga o'quv plakatlari (bular mashina, mexanizm, ish usullariniig rasmiy tasvirlarini, sxema, jadval, raqamli va

teksli, grafik ko'rinishidagi hamda aralash matriallarni o'z ichiga oladi); fotografiya va fotoplakatlar; kitob, jurnal hamda albomlardagi rasmlar; o'qituvchi sinf doskasiga chizadigan tasvirlar kiradi.

*Hajmiy tasviriy ko'rsatma qo'llanmalar* jumlasiga model va maketlar kiradi.

*Model* ishlaydigan ko'rsatmali qo'llanma bo'lib, tasvirlangan mashina yoki qurilma qismlari hamda mexanizmlarining kinematikasini va o'zaro ishlashini ko'rsatadi.

Model tasvirlangan originalning tashqi ko'rinishini aks ettirishi shart emas, unda o'zaro ishlaydigan asosiy detallari ajratib ko'rsatiladi. *Maket*, aksincha, tasvirlanadigan originalning tashqi (ichki) ko'rinishini iloji boricha aniq aks ettiradi. Maketlar, ko'pincha, ishlaydigan ko'rsatmali qo'llanma bo'lib, ishlov berish oson bo'lgan va arzon materiallar: pape-mashe (elim, gips hamda bor aralashtirilgan qog'oz massa), gil, gips, yog'och penoplast va shu kabilardan tayyorlanadi. Maketlar originalning ichki tuzilishini ko'rsatish uchun, ko'pincha, qismlarga ajraladigan qilib tayyorlanadi. Ular, odatda, originalga nisbatan kichik yoki katta qilib yasaladi.

**Mulyaj** (fransuzcha mouler so'zidan - qoliplamoq, quymoq) — birorbir ob'ektdan gips, mum, papemasheda olingan nusxa; odatda bo'yalgan, asosan, ko'rgazmali qurol vazifasida xizmat qiladi. Mulyaj naturadan olingan qolipda quyiladi yoki o'lchovlar asosida qo'lda tayyorlanadi.

*Mulyajlar* maketlarning bir turi hisoblanadi. Maxsus va umumkasbiy fanlarning o'qituvchilari harakatlanuvchi ko'rsatmali qo'llanmalar (multimedia)dan keng foydalanadilar. Bu qo'llanmalarda yassi tasvirlar bilan birga harakatchan elementlar ham bo'lganligi tufayli ba'zi jarayonlar dinamikasini ko'satishga imkon beradi.

Ammo o'qituvchilarga, ko'pincha, ko'rsatmali qo'llanmalar loyixalash, tayyorlash yoki bunday qo'llanmalar yaratishga rahbarlik qilishga to'g'ri keladi. Bunda quyidagi talablarga rioya qilish talab etiladi:

✓ ko'rsatma qo'llanma barcha talabalar yaxshi ko'ra oladigan darajada katta bo'lishi kerak;

✓ qo'llanmadagi yozuvlar o'quv xonasining istagan joyidan bemolol ko'rsa bo'ladigan darajada yirik, qora harflar bilan yozilishi lozim;

✓ muhim detal va joylar bo'lishi zarur haddan tashqari yorqin va kontrast bo'yoq tanlash yaramaydi; fon bilan tasvirlar ranglarining eng yaxshi nisbatlari quyidagilar: oq-ko'k, qora-sariq, yashil-oq, qora-oq plakatlardagi tasvirlar imkoni boricha ob'ektning rangiga bo'yalishi kerak; tasviriy vositalar kompleksi, qo'llanmaning mazmunini ochib berish uchun tanlangan bo'yoqlar, qo'llanmaning bajarilishi ta'lim oluvchilarda estetik did hosil qilishi va bu didni rivojlantirishi lozim;

✓ ko'rsatma qo'llanmada tekst haddan tashqari ko'p bo'lmasligi kerak;

✓ plakatlarda tasvirlar soni, haddan tashqari ko'p bo'lmasligi zarur;

✓ plakatlarda tasvirlanadigan ob'ektlar tabiiy vaziyatda ko'rsatilishi lozim;

✓ ko'rsatmali qo'llanma masshtabga rioya qilgan holda bajarilishi kerak; bu narsa, ayiqsa, muhim detallarning proportsiyalariga taalluqlidir;

✓ qo'llanmaning va uni ishlatish uchun xizmat qiladigan moslamalarniig konstruksiyasi qo'llanmaning uzoq vaqt saqlanishini ta'minlashi zarur (doka, mato yoki kartonga - elimlab yopishtirilishi, lok bilan qoplanishi, plakatlar bir-biriga lenta tarzida elimlab yopishtirilishi darkor va hokazo).

Talabalarga yangi materialni bayon etishda ko'rsatma qo'llanmalardan to'g'ri va o'z vaqtida foydalanish katta ahamiyatga ega. Pedagogika fani va ilg'or tajriba darsda ko'rsatma qo'llanmalar namoyish qilishga oid metodik talablar ishlab chiqdi, bu talablarga rioya qilish ularning didaktik qimmatini oshiradi.

Avvalo, hamma vaqt shuni esda tutish zarurki, ko'rsatma qo'llanmani namoyish qilish — *maqsad* bo'lmay, balki *vositadir*. Qo'llanmani ko'rsatish emas, balki u bilan ishlash kerak.

O'rganilayotgan materialning mazmuni va darsga ajratilgan vaqt taqozo etgan hollardagina ko'rsatma qo'llanmani namoyish qilish tavsiya etiladi. darsda namoyish qilinadigan qo'llanmalar soni talabalar o'quv materialini sifatli o'zlashtirishi uchun optimal bo'lishi lozim; darsda qo'llanmalardan haddan tashkari ko'p foydalanish yaramaydi.

Namoyish qilinayotganlarni idrok etish jarayonida talabalar sezgi organlarining (analizatorlarining) ko'rish, eshitish, sezish, zarur hollarda esa ta'm bilish va hid bilish organlarining ko'pini jalb etish kerak.

O'qituvchi so'zi bilan ko'rsatmalilikning to'g'ri qo'shib olib borilishi katta ahamiyatga ega. Ko'rsatma qo'llanmalarni idrok etishning asosi birinchi signal sistemadir, ammo ikkinchi signal sistemaning signallariga tartibga soluvchi ta'sir etadi. Har qanday ko'rsatma qo'llanmalar namoyish qilinganda hamma vaqt izoh berib turiladi. Ana shu izoh ta'lim oluvchining e'tiborini qo'llanmadagi aosiy va muhim tomonlarga qaratishga, kuzatilayotgan model, ob'ekt yoki hodisalardan ularning mohiyatini tashkil etuvchilarni ajrtib olishga yordam beradi. Qo'llanmani namoyish qilishdan oldin nimani va qanday maqsadda ko'rishlari to'g'risida ta'lim oluvchilarga aytib o'tish zarur.

### **6.3. O'quv xona doskasiga chiziladigan rasm.**

Ko'rsatmalilik vositalari ichida o'quv xona doskasiga chiziladigan rasm katta o'rin tutadi. O'qituvchi chizgan rasmlar talabalarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi va umumkasbiy hamda maxsus fanlar darslarida keng tatbiq etiladi. Yaxshi chizilgan rasmlar va sinf doskasidan to'g'ri foydalanish ko'rsatmalilikning boshqa vositalari bilan birga talabalarning faktlarni, hodisalarni, voqealarni esda olib qolishlariga, to'g'ri tushunishlariga yordam beradi. O'qituvchi materialni bayon etish vaqtida doskaga grafik, chizma yoki sxemalar chizish yo'li bilan jarayoni dinamikada, masalan, ichki yonuv dvigatelida sikllar nabatlashib kelishini, jihozlarning ulanish tartibini, kimyoviy apparatda jarayonning borishini va shu kabilarni ko'rsata oladi. Og'zaki bayon bilan doskaga chizilgan rasmlarning mosligi materialning talabalar xotirasida puxta mustahkamlanishiga yordam beradi va mashg'ulotlarni qiziqarli hamda samarali qiladi.

O'qituvchi doskadan qanday foydalanishni bilishi kerak. Yangi materialni o'rganishda mavzuni va maxsus terminlarni doskaga yozib qo'yish lozim. Ayrim terminlarni yoki rasmning ayrim qismlarini ajratib ko'rsatish uchun rangli bo'rlardan foydalavish zarur. Doskada tasvirlash uchun murakkab bo'lmagan rasmlar tanlash kerak. Agar doskada murakkab rasmni ko'rsatish zarur bo'lsa, uni

oldindan chizib qo'yish darkor. Rasmlarning yozuvlarini talabalar qiynalmay o'qishlari uchun ular yirik harflar bilan yozilishi darkor.

Rasmlar doskaga tez va bexato chizilishi lozim, bunga esa jiddiy mashg'ulot va mashqlar natijasida erishish mumkin.

#### **6.4. O'qitishning axborot-texnika vositalari.**

**O'qitishning axborot-texnika vositalari** deganda, talabalarning bilim, ko'nikma hamda malakalarni o'zlashtirishini osonlashtirish va uning samaradorligini oshirish hamda o'qituvchining talabalarga bilim, ko'nikma va malakalar berish, ularni mustahkamlash hamda tekshirib ko'rish borasidagi mehnatini engillashtirish uchun foydalaniladigan axborot-texnik vositalar majmuasi tushuniladi.

O'qitishnint axborot-texnika vositalari jumlasiga informatsiya berishda foydalaniladigan texnika (videoproektorlar, televizion, hamda kompyuter qurilmalari va shu kabilar) gina emas, balki tegishli texnika bilan birga foydalaniladigan o'ziga xos informatsiya uzatuvchilarning o'zi (o'quv kinofilmlar, dasturlashtirilgan topshiriqlar va shu kabilar) ham kiradi.

Maxsus va umumkasbiy fanlarini o'rganishda ishlatiladigan barcha texnika vositalarini uchta asosiy guruhga birlashtirish mumkin:

- ✓ audiovizual vositalar (kinoproektsiya, ovoz yozib olish, televidenie, kompyuter, radio);
- ✓ trenajerlar;
- ✓ dasturlangan o'qitishning texnika vositalari.

Talabalarga o'quv materialini bayon etish jarayonida o'qitishning audiovizual texnika vositalari eng ko'p ishlatiladi.

#### **6.5. O'quv videofilmi va undan foydalanish metodikasi.**

O'quv videofilmi - o'qitishning eng ko'p tarqalgan texnika vositasi bo'lib, ob'ekt hamda hodisalarni harakatda va rivojlanishda namoyish qilishga, materialni

tahlil qilib va umumlashtirishga, shuningdek, konkret idrok etishdan abstrakt idrok etishga o'tishga imkon beradi. O'quv videofilmdan o'qituvchi o'quv materialini bayon etishda illyustratsiya sifatida, shuningdek, talabalar uni mustaqil o'rganishi uchun foydalanishi mumkin.

O'quv videofilmi yordamida o'quv materialining asosay joylarini ajratib ko'rsatish va talabalar e'tiborini shunga jalb etish, jarayonlarni tabiiy vaqt izchilligida emas, balki ular xarakterini tushunish uchun eng qulay tarzda ko'rib chiqish mumkin. O'quv videofilmi bevosita kuzatab bo'lmaydigan hodisalarni: ko'zga ko'rinmaydigan darajada mayda zarracha va detallarni, har xil organizmlarning ichki tuzilishini, uzoqlashgan narsalarni, juda tez va juda sekin sodir bo'ladigan hodisalarni ko'rsatishga imkon beradi. Harakatda juda ham qisqa vaqt davom etadigan voqea va hodisalarni kino vositalari yordamida sekinlashtirilgan sur'atda namoyish qilish (bu hol o'zgarishning barcha fazalarini ko'zdan kechirishga imkon beradi) va aksincha, bir necha soat, kun yoki oy mobaynida sodir bo'ladiganlarni esa ekranda bir necha sekund yoki minut ichida ko'rsatish mumkin. Ovozli filmni idrok etishda ko'z ham, quloq ham faol ishtirok etadi. Ko'rish va eshitish organlariga bir vaqtda ta'sir etishi o'quv videofilmini o'qitishning boshqa vositalaridan ajratib turadi va muhim didaktik vazifalarni hal qilishga imkon beradi.

O'quv videofilmlaridan foydalanish o'qitish va tarbiyalash vazifalarini qo'shib olib borishga imkoniyat tug'diradi. Videofil'mlar yordamida ko'rsatmali o'qitishning tarbiyalovchi ahamiyati shundan iboratki, u fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini, ishlab chiqarish-texnikaviy estetikani, ishlab chiqarish ilg'orlarining tajribalari va yuqori mehnat madaniyatini ko'rsatish, ayrim muammolarning tarixiy rivojlanishi bilan tanishtirish imkonini beradi va hokazo.

O'quv videofilmdan o'quv jarayonida maxsus va umumkasbiy fanlarini o'rganishda, asosan, uch variantda: o'quv materialini o'rganishga muqaddima tarzida, mavzuni o'rganish jarayonida va mavzuni o'rganib bo'lingandan keyin o'rganilganlarni takrorlash va musthkamlash maqsadida foydalaniladi.

Kirish darslarida, ya'ni talabalar o'rgana boshlaydigan mavzu to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmagan vaqtda film namoyish qilish talabalarni faktik material bilan tanishtirishga, qiziqtirishga, ularda zarur emotsional tayyorgarlik yaratishga yoram beradi.

O'quv videofilm bilan ishlashning eng ko'p tarqalgan shakli yangi materialni o'rganish jarayonida uni namoyish qilishdan iborat. Bu holda u o'qituvchi bayon etayotgan materialga illyustratsiya bo'lib yoki ma'lumotning mustaqil manbai bo'lib xizmat qiladi. Yangi materialni o'rganish jarayonida filmdan foydalanishda, odatda, u alohida lavhalarga bo'linadi va zarur bo'lsa, tushuntirish davomida ular namoyish qilinadi. Bu hol talabalarining o'qituvchi bayon etgan materialni obrazli qilib tasavvur etishiga, chuqurroq tushunishiga imkon beradi. Film o'quv materiali bayon etib bo'lingandan keyin, o'rganilganlarni umumlashtirish va yakuniy illyustratsiya qilish maqsadida ham namoyish qilishi mumkin.

O'qituvchilar ko'pincha yo'l qo'yadigan jiddiy metodik xatolardan biri darsni odatdagi kinoseansga aylantirishdan iborat. Bu hollarda film darsning borishiga uzviy bog'lanmagan holda namoyish qilinadi, talabalar filmning o'quv materiali bilan ishlamaydilar, natijada uni yomon o'zlashtiradilar.

O'quv videofilmdan foydalanish samaradorligi ko'p jihatdan talabalar bilish faoliyatining tashkil etilishiga, ularda film materialiga qiziqishni rivojlantirishga bog'liq. Bunga erishish uchun talabalarga ekranda ko'rganlarining amaliy ahamiyatini ochib berish yoki muammoli vaziyat vujudga keltirish kerak. Bu hol ish sharoiti o'rnatishga, talabalar faolligini oshirish va ularni vujudga kelgan muammoni hal qilish yo'lini izlashga shaylantirishga yordam beradi.

O'qituvchi o'quv videofilmdan foydalanib, qanday didaktik maqsadni ko'zda tutmasin, qanday metodni tanlamasin, darsdagi ish, odatda, to'rt bosqichga bo'linadi:

- ✓ o'rganiladigan mavzu bilan film mazmuni orasida bog'lanish o'rnatish;
- ✓ talabalarni filmni idrok etishga va faol ishlashga tayyorlash;
- ✓ o'quv videofilmni ko'rish vaqtida film materiali bilan ishlash;

✓ o'quv videofilm ko'rib bo'lingandan keyin uning materiali bilan ishlash.

Kirish suhbatining qisqaligi va aniqligi talabalar e'tiborini asosiy masalaga qaratish imkonini beradi, videofilmni ko'rishdan oldin uning mazmuniga oid tushuntirish hamda savollar esa talabalarning bilish mustaqilligini oshiradi.

Videofilm materiali ustida qilinadigan ish o'z ichiga faqat idrok etishni emas, balki uni rasm-obrazli tildan abstrakt tilga qayta kodlashni ham oladi. Videofilm ko'rish vaqtida materialni o'zlashtirish ham boshlanadi, ammo bu boshlang'ich bosqichdir, o'zlashtirish jarayoni, asosan, shundan keyingi ish bilan bog'liq bo'ladi.

Bu bosqichda o'qituvchining bergan tushuntirishlari katta ahamiyatga ega. Material videofilm ko'rib bo'lingandan keyin o'zlashtirilishi zarur bo'lgan hollarda o'qituvchi ilgari belgilangan reja asosida, film namoyish qilishni tegishli joyda to'xtatadi. Videofilmning eng muhim kadrlarini boshqa ko'rsatma qo'llanmalardan ham foydalanib tushuntirib berish mumkin. Videofilm ko'rsatishni haddan tashqari maydalab yubormaslik uchun tanaffuslar soni ko'p bo'lmasligi kerak.

Ba'zan o'qituvchi ta'lim oluvchilarning idrok etishini faollashtirish uchun, filmni ko'rish davomida talabalarga savollar berishi mumkin. Bunda savollar ham, javoblar ham qisqa bo'lishi lozim, aks holda talabalar e'tiborini filmdan chalg'itadi va bundan keyingi materialni o'zlashtirishga xalaqit beradi. Film ko'rish vaqtida beriladigan savollar film materiali bilan o'rganilayotgan mavzu orasida mantiqiy bog'lanish o'rnatishga yordam beradi.

Videofilm bilan ishlashning so'nggi bosqichida talabalar savollar berishiga imkoniyat yaratish kerak. Javob qaytarishga film materialini yaxshi bilib olgan talabalarni jalb etish lozim.

O'quv videofilmlari ovozsiz va ovozli bo'ladi. Darsda unisidan ham, bunisidan ham foydalanish mumkin. Agar suhandon so'zi savodli, dasturga muvofiq tuzilgan, tomoshabinlarga tushunarli bo'lsa, masalani o'rganishni chuqurlatsa, undan darsda foydalanish kerak, suhandon so'zi yaxshi tuzilmagan, tasvirlarni ko'rishdan chalg'itadigan bo'lsa, o'qituvchi ovozli filmdan ovozsiz

variantda foydalangani ma'qul, suhandon so'zi o'qituvchining izohlari bilan navbatlashib kelishi ham mumkin. Videofilm ko'rsatilayotganda o'qituvchi beradigan izohlarga alohida talablar qo'yiladi. Bu izohlar ekranda o'tayotgan kadrlarga mos bo'lishi kerak, aks holda talabalar e'tibori sochilib, ko'rganlarini ham, eshitganlarini ham mazmunini idrok etmaydilar.

Ovozsiz filmlar yozuvlar orqali tushuntiriladi. Ba'zan o'qituvchilar ularni o'zlari o'qiydilar, ayrim o'qituvchilar bu ishni biror talabaga taklif qiladi, boshqa o'qituvchilar esa yozuvlarni talabalar ichida o'qishlariga imkon beradi. Agar o'qituvchi o'zidan so'z qo'shib ketishga mohir bo'lsa, filmdagi yozuvlarni uning o'zi o'qigani ma'qul. Agar talabalar filmdagi yozuvlarni tushunishga oldindan tayyorlangan bo'lsalar, ularni talabalar tovushsiz o'qiganlari ma'qul. Filmdagi yozuvlar murakkab va haddan tashqari uzun bo'lgan taqdirdagina o'qituvchi film teksti mazmunini o'z so'zlari bilan aytib berishi mumkin.

Shunday qilib, o'qituvchi talabalar diqatini tasvirdagi hodisa yoki ob'ektni tushunish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan detallarga vaqtida qaratishi lozim bo'ladi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. Maxsus fanlarni o'qishda ko'rsatmali vositalardan foydalanish qanday xususiyatlarga ega?.
2. Zamonaviy ta'lim vositalarining turlarini tavsiflang?.
3. Maket va modelni farqini tushuntiring?
4. O'quv xona doskasiga chiziladigan rasmga qanday talablar qo'yiladi?
5. O'quv axborot-texnik vositalariga nimalar kiradi?
6. O'quv videofilmdan foydalanishda nimalarga e'tibor berish zarur?

## 7. MAXSUS FANLARDAN TAJRIBA - AMALIY MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH METODIKASI

**Tayanch so'z va iboralar:** *Tajriba-amaaliy mashg'ulotlar maqsadi, tajriba-amaliy mashg'ulot turlari, miqloriy va sifatiy tajriba-amaliy mashg'ulotlar, frontal va nofrontal tajriba-amaliy mashg'ulotlar, tajriba-amaliylarni o'tkazish metodikasi, kirish, joriy va yakuniy yo'riqnoma.*

### 7.1. Tajriba va amaliy mashg'ulotlarining maqsadi.

Tajriba va amaliy mashg'ulotlar - oliy ta'limda talabalar mustaqil suratda bajaradigan amaliy ish turlaridan hisoblanadi. Ular nazariy bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash, mustaqil tajribalar bajarish malakasini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi.

O'quv jarayonining asosiy bosqichlaridan biri bilimlarni amalda tadbqiq etishdan iborat, buning natijasida talabalarda ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Umumkasbiy va maxsus fanlarni o'rganishda olingan bilimlarni amalda tadbqiq etish shakllaridan biri tajriba va amaliy mashg'ulotlaridir.

***Tajriba mashg'ulotlaridan ko'zda tutiladigan maqsad-*** muayyan texnologik jarayonlarni, qonuniyatlarni, sabab-natijali bog'lanishlarni va shu kabilarni tekshirish maqsadida turli xil eksperimentlar o'tkazish orqali ushbu hodisalarni kuzatish hamda tahlil qilishni o'rganishdir.

Masalan: tuproqning qattiqligini tortish kuchiga ta'sirini tekshirish; moyning qovushqoqligini aniqlash; mashinaning ish unumdorligini aniqlash va hokazo.

***Amaliy mashg'ulotlaridan ko'zda tutilgan maqsad*** - talabalarda texnikaviy ob'ektlarni yanada chuqurroq o'rganish maqsadida ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan amaliy ko'nikma hamda malakalar hosil qilishdir.

Masalan: dastgohlar va ularning mexanizmlarni qismlarga ajratish, yig'ish, sozlash, rostlash; tokarlik, parmalash, jilvirlash dastgohlarida, tikuv va to'quv mashinalarida ishlash; biror kattalik yoki parametrlarni o'lchash, hisoblash va hokazo.

Maxsus fanlar bo'yicha tajriba va amaliy mashg'ulotlar bevosita ishlab chiqarish xarakteriga ega emas. Ulardan ko'zlangan yagona maqsad - talabalarga mazmuni jihatidan umumkasbiy va maxsus fanlar bilan bog'liq bo'lgan texnologik jarayonlar, texnikaviy hodisalar, umumiy qonuniyatlar, amaliy qoidalar, texnikaviy talablar va shu kabilarni amalda o'rgatishdir. Tajriba-amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar o'zlaridagi mavjud bilimlarni chuqurlashtiradilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar va bu bilimlarni amalda tatbiq etishga o'rganadilar, bu esa ularda kasbiy malakalarni oshirish uchun zarurdir.

O'quv jarayonida tajriba va amaliy mashg'ulotlar "sof holda" qo'llanilmaydi. Ular o'quv dasturlariga tajriba-amaliy mashg'ulotlar tarzida kiritilgan.

O'z vazifasi, o'quv jarayonida tutgan o'rni jihatidan umumkasbiy va ixtisoslik fanlar bo'yicha bajariladigan tajriba-amaliy ishlar nazariy ta'lim bilan ishlab chiqarish orasida oraliq vaziyatni egallaydi, hamda malakali mutaxassislar tayyorlashning bu ikki tomonini o'zaro bog'lashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Bu bog'lanish tajriba-amaliy ishlar rukni va mazmunini aniqlashda, tajriba-amaliy ishlar jarayonida talabalar olgan uquvlarni ishlab chiqish jarayonida tatbiq etish va kengaytirishda, ularni o'tkazish metodlari hamda metodik usullarini uyg'unlashtirishda namoyon bo'ladi.

## **8.2. Tajriba-amaliy mashg'ulot turlari.**

Tajriba-amaliy mashg'ulotlarni mazmuni va tashkil etish xarakteriga ko'ra qo'yidagi turlarga ajratiladi.

Tajriba-amaliy mashg'ulotlarni ularning xarakteri jihatidan *miqdoriy* (miqdorga bog'liq bo'lgan) va *sifat*iy (sifatga bog'liq bo'lgan) ishlarga bo'lish mumkin.

### **8.2.1. Miqdoriy va sifat**iy tajriba-amaliy mashg'ulotlar.

Miqdoriy tajriba-amaliy mashg'ulotlar aniq o'lchashlar, hisoblab chiqarishlar, hisoblar bilan bog'liq. Ularning natijalari tekshirilayotgan ob'ekt yoki hodisalaridagi miqdoriy bog'lanishlarni ochib beruvchi muayyan kattalik bilan ifodalanadi. Miqdoriy tajriba-amaliy mashg'ulotlarga quyidagilar misol bo'la

oladi: maydalangan tuproqning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash; ekish mashinalarida urug' sarfini aniqlash; kultivator ishchi organlarini sozlash va hokazo.

Sifatij tajriba-amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar xulosalar qiladilar, qonuniyatlarni aniqlaydilar, bilimlarini chuqurlashtiradilar; ularda zarur ko'nikmalar hosil bo'ladi. Sifatij tajriba-amaliy mashg'ulotlarga quyidagilar misol bo'la oladi: metallarni cho'zilashga sinash; bajariladigan ishniig turiga qarab keskichlar tanlash; har xil dastgohlar va mashinalarning tuzilishini o'rganish va xokazo.

### 8.2.2. Frontal va nofrontal tajriba-amaliy mashg'ulotlar.

Tajriba-amaliy mashg'ulotlar *frontal* va *nofrontal* o'tkazilishi mumkin.

***Frontal tajriba-amaliy mashg'ulotlarda*** guruhdagi barcha talabalar bir tipdagi jihozlarda yakka-yakka bo'lib yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlab, bir xil topshiriqni bajaradilar.

Tajriba-amaliy mashg'ulotlarni frontal tashkil etish quyidagi afzalliklarga ega: o'qituvchini guruhdagi talabalarga rahbarlik qilishi va mashg'ulotning bajarilishini kuzatib turishi osonlashadi; butun guruhga bitta mavzu bo'yicha yo'riqnoma berish mumkin bo'ladi. Bu usulning kamchiliklari jumlasiga o'quv xonasida juda ko'p bir xil asbob-uskunalar yoki tarqatma materiallar bo'lishini talab etilishi kiradi.

O'quv materialini darslarda o'rganishdan oldin yoki o'rganish bilan bir vaqtda bajariladigan tajriba-amaliy ishlar frontal o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Tegishli o'quv materialini o'rganishni tugallovchi tajriba-amaliy mashg'ulotlar ham frontal o'tkazilishi mumkin.

***Nofrontal tajriba-amaliy mashg'ulotlarda*** talabalar kichik guruhlarga bo'linib har xil mashqlarni bajaradilar yoki har xil jihoz va moslamalarda

Bunda tajriba-amaliy mashg'ulotlarning mazmuni ayrim guruhlar uchun har xil bo'ladi. Nofrontal shaklda tashkil etilgan tajriba-amaliy mashg'ulotlar qo'yidagi kamchilikga ega: ishlarni tashkil qilish va unga rahbarlik qilish ma'lum darajada qiyin bo'ladi, chunki o'qituvchi barcha talabalarga umumiy ko'rsatma berish va natijalarni jamoa bo'lib muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Shunga

qaramay umumkasbiy va maxsus fanlarni o'rganishda nofrontal tajriba-amaliy mashg'ulotlar ko'p hollarda o'tkaziladi, chunki bunda hamma talabalar uchun bir turdagi jihoz va moslamalarni bo'lishi shart emas.

Tajriba-amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar ma'lum bir jarayonni kuzatadilar, tavsiflaydilar, kattaliklarni o'lchaydilar, hisoblaydilar, biror hodisa bo'yicha eksperimentlar o'tkazadilar, natijalarni umumlashtiradilar, tahlil qiladilar, mexanizm va yig'ma birikmalarni qismlarga ajratadilar-yig'adilar, rostlaydilar, sozlaydilar, nazorat qiladilar.

Umumkasbiy va maxsus fanlarni o'rganishda o'tkaziladigan tajriba-amaliy mashg'ulotlarini quyidagi 8.1-jadvaldagi ko'rinishda guruhlash mumkin.

8.1-jadval

Maxsus fanlardan tajriba-amaliy mashg'ulotlarining mazmuniga ko'ra  
guruhlari

| <b>T/r</b> | <b>Tajriba-amaliy mashg'ulot turi</b>                                                                                      | <b>Tajriba-amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan ishlar mazmuni</b>                                | <b>O'quv fani nomi</b>                  |
|------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------|
| 1          | Har xil texnikaviy hodisa va jarayonlarni, xom-ashyo, material hamda mahsulotlarning xossalarini kuzatish va tahlil qilish | Po'latning xossalariga termik ishlov berishning turlari va rejimlari ta'sirini aniqlash           | Konstruktsion materiallar texnologiyasi |
|            |                                                                                                                            | Urug'larning ekilish xossalari (urug' unuvchanligini, tozaligini, ekishga yaroqliligini aniqlash) | Dehqonchilik asoslari                   |
| 2          | Mashina, mexanizm, apparat, asbob, moslama va shu kabilarning tuzilishi hamda ishlashini kuzatish va tahlil qilish         | Don yig'ish kombaynining sozlanishlarini amalga oshirish                                          | Qishloq xo'jalik mashinalari            |
|            |                                                                                                                            | Erga ishlov berish texnologiyasini tuzish                                                         | Qishloq xo'jaligini mexanizatsiya lashg |

|   |                                                                                                                                                                     |                                                                             |                                         |
|---|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------|
| 3 | Texnikaviy kattaliklar, parametrlar, xarakteristikalar orasidagi miqdoriy va sifatiy bog'lanishlarni tekshirish. Bu bog'lanishlarning optimal qiymatlarini aniqlash | Traktorning tortish kuchini aniqlash                                        | Traktor va avtomobillar                 |
| 4 | Har xil texnikaviy va texnologik kattaliklarni aniqlash va nazorat qilish uchun nazorat qiliash asboblaridan foydalanish usullarini o'rganish                       | Tuproq namligini quritish pechi va tarozilar yordamida aniqlash             | Dehqonchilik asoslari                   |
|   |                                                                                                                                                                     | Moyning qovushqoqligini viskozimetr bilan aniqlash                          | Yonilg'i-moylash materiallari           |
| 5 | Buzuqliklarni diagnostik qilish, sozlash, rostlash, moslash va h.k.                                                                                                 | Mashinalar agregatlari, mexanizm va tarkibiy qismlarini sozlash va rostlash | Mashina va jihozlarga TXK va ta'mirlash |

### 8.3. Tajriba-amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi.

Maxsus fan o'qituvchilari maxsus fanlardan tajriba-amaliy mashg'ulotlarini o'tkazar ekanlar, talabalarni nazariy mashg'ulotlar davomida olgan bilim va ko'nikmalaridan foydalanadilar, ularni chuqurlashtiradilar.

Tajriba-amaliy mashg'ulotlardan ko'zda tutilgan maqsad ko'p jihatdan uni o'tkazish metodikasini talabalar ishiga maxsus fan o'qituvchisining rahbarlik qilish usullarini, ayrim tajriba yoki amaliy ishlarni bajarish tartibi va shu kabilarni belgilab beradi. Talabalar nazariy materialni o'zlashtirib olganlaridan, o'rganilayotgan hodisalar, jarayonlar bilan tanishganlaridan so'ng ular bilan tajriba-amaliy mashg'ulotni o'tkazish ancha oson ko'chadi. Bu holda o'qituvchining yangi mavzu bo'yicha mashg'ulot o'tkazishga oid o'quv axboroti nihoyatda qisqa va aniq bo'ladi. Natijasiga asoslanib talabalar ma'lum xulosalar chiqarishi kerak bo'lgan tajriba-amaliy mashg'ulotlarni bajarish ancha murakkab hisoblanib, ta'lim oluvchilarni bunga oldindan tayyorlash va o'qituvchining o'quv axboroti ancha batafsil bo'lishi zarur. Bunday ish davomida o'qituvchi talabalar ishini kuzatibgina qolmay, balki ularning faoliyatini yo'lga soladi, ularni zarur xulosalarga olib keladi.

O'qituvchi talabalarga tajriba-amaliy mashg'ulotlarining bajarilish jarayoniga yo'riqnoma berish yo'li bilan rahbarlik qiladi. Yo'riqnoma berishdan ko'zlangap asosiy maqsad talabalar ongida topshiriqni eng samarali bajarish uchun faoliyatning yo'nalish asoslarini yaratishdan iborat.

Psixologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, insonning mehnat faoliyati ikki tomonga: yo'nalish va ijro tomonlariga ega. Yo'nalish tomoni faoliyatning ob'ektiv sharoitlarining (masalalar, usullar, mezonlar, bajarilish shartlari, texnika vositalari va shu kabilar)ning inson ruhiyatidagi in'ikosi, ijro tomoni esa harakatning bevosita bajarilishi. I. P. Pavlov ta'limotiga ko'ra, yo'nalish refleksi markaziy asab tizimida shartli bog'lanishlar hosil bo'lishiga asos hisoblanadi. Bu bog'lanishlar bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishniig fiziologik asosidir.

Tajriba-amaliy mashg'ulotlarini o'quv jarayonida amalga oshirishda yo'riqnomalar tizimidan foydalaniladi. Yo'riqnomalar mashg'ulotda o'tkazilish vaqtiga ko'ra kirish, joriy va yakunlovchi yo'riqnomalarga; ma'lumot berish usuliga ko'ra og'zaki va yozma yo'riqnomaga bo'linadi.

*Kirish yo'riqnomasi* talabalarni tajriba-amaliy mashg'ulotlarni bajarishga tayyorlashda juda muhim ahamiyatga ega. Har bir tajriba-amaliy mashg'ulot bajariladigan ishdan ko'zlangan maqsad, maqsad sari olib boradigan yo'llar talabalarga tushunarli bo'lgan taqdirdagina ijobiy va qimmatli natijalar beradi. Talabalar o'zlariga taklif etilayotgan ish o'rganilgan material bilan qanday bog'langanligini yoki yanada oldinga siljish uchun u qanday ahamiyatga ega ekanligini anglab olishlari kerak.

***Kirish yo'riqnomasini o'tkazishdan maqsad*** mashg'ulot mavzusi ochib beriladi, uni o'tkazish rejasi belgilanadi, ishni tashkil etish, asbob va jihozlar bilan ishlash, yozuvlar, hisoblar yuritish, hisobot uchun materiallar tayyorlash to'g'risida zarur ko'rsatmalar beriladi.

Kirish yo'riqnomasining metodikasi ko'p jihatdan tajriba-amaliy mashg'ulotni o'tkazishdan ko'zda tutilgan asosiy didaktik maqsadga va uning qanday o'tkazilishiga bog'liq. Tadqiqot xarakteridagi tajriba-amaliy mashg'ulot

o'tkaziladigan bo'lsa, o'qituvchi talabalarga bu mashg'ulotning tartibini batafsil gapirib beradi, kattaliklar qanday tartibda o'lchanishini, ularning qanday yozib borilishini tushuntirdi, ishni bajarish usullarini namoyish qiladi. Kirish yo'riqnomasi vaqtida ham, ishning borishi davomida ham o'qituvchi talabalar e'tiborini olinanigan natijalarni bir-biriga solishtirib ko'rish zarurligiga, ular orasidagi bog'lanishlarni aniqlashga, xulosalarni asoslashga jalb etadi. Bu vaqtda ta'lim oluvchilarga sekin-asta asosiy xulosaga olib keladigan savollar berish foydali. Masalan, "Sharbat tayyorlash" mavzusidan tajriba-amaliy ish o'tkazishda o'qituvchi talabalar e'tiborini uzum mevasida ozuqa moddalarni saqlab qolish quritish vaqt va haroratiga bog'liqligini aniqlash zarurligiga qaratadi.

Kirish yo'riqnomasi o'tkazish metodikasiga tajriba-amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy shakllari katta ta'sir etadi. Tajriba-amaliy mashg'ulot frontal shaklda olib borilganda o'qituvchi butun guruhga, asosan, og'zaki tarzda batafsil yo'riqnoma beradi. Og'zaki yo'riqnomaning asosini tajriba-amaliy mashg'ulotni bajarish usullarini tushuntirish va ko'rsatishning qo'shib olib borilishi tashkil etadi. Gap shundaki, talabalar uchun harakatni to'g'ri bajarishning yo'nalish asosi bo'lib bu harakatning konkret namunasi hisoblanadi. Talabalar ishni bajarish davomida ana shu namunaga taqlid qiladilar va o'z harakatlarini unga solishtirib ko'radilar. Talabalarda faoliyatning bunday yo'nalish tomonini o'qituvchi usullarni ko'rsatib hosil qiladi.

*Joriy yo'riqnoma.* Tajriba-amaliy mashg'ulotining bajarilishiga rahbarlikni o'qituvchi ish o'rinlarini aylanib chiqish davomida ***joriy yo'riqnoma berish yo'li bilan*** amalga oshiradi.

**Joriy yo'riqnomani o'tkazidan maqsad** o'qituvchi ishning borishini nazorat qiladi, ishni bajarishda paydo bo'lgan tushunmovchilik va qiyinchiliklarni engishda talabalarga yordam beradi, ishni to'g'ri bajarish bo'yicha talabalarning savollariga javob beradi.

Ba'zan o'qituvchining o'zi savollar berib, talabalarning ishni qanchalik ongli ravishda bajarayotganliklarini tekshirib ko'radi. O'qituvchi talabalarning ishi

ochiq-oydin noto'g'ri yo'ldan ketayotganligini yoki talabalar xavfzlik texnikasi qoidalarini buzayotganligini ko'rgan taqdirdagina ularning ishiga aralashadi.

Joriy yo'riqnoma jarayonida o'qituvchi bir zveno yoki bir talabaga yordam ko'rsatar ekan, zinhor boshqa zveno yoki talabalarni nazardan chetda qoldirmasligi kerak. Talabalarga beriladigan yordam aytib berishdan yoki boshqasiga almashtirishdan iborat bo'lmasligi lozim. O'qituvchi talabalarning ishini kuzatar ekan, ularning mustaqil ishlashiga yo'l qo'yib berishi, arzimagan xatolar uchun ularni koyiyvermasligi zarur. Agar talaba qiynalib qolsa, qo'shimcha savollar berish yo'li bilan uni shunday yo'lga solib yuborish kerakki, oqibatda talabaning o'zi nuqsonlarning sababini tushunadigan va ularni tuzatish yo'llarini aniqlaydigan bo'lsin. Agar talaba asboblardan to'g'ri foydalanishga qiynalsa, unga tegishli usullarni qaytarib ko'rsatish va ularni takrorlashni taklif etish lozim. Murakkab tajriba-amaliy ishlarni bajarishning ma'lum bosqichida ishniig talabalar bajargan qismini nazorat qilish foydalidir. Masalan, elektrotexnikadan tajriba-amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda o'qituvchi bunday nazoratni topshiriqqa tegishli elektr sxemalar yig'ilgandan keyin, ish o'rinlariga tok berishdan oldin o'tkazadi. Agar tajriba-amaliy mashg'ulot zvenolarga bo'linib bajariladigan bo'lsa, ishda butun zveno a'zolari ishtirok etishiga erishmoq kerak. Zvenoda ish shunday taqsim qilinishi kerakki, har bir talaba ma'lum vazifani bajaradigan bo'lsin. Talabaning yoki zvenoning ishi topshiriqni tahlil qilishdan va uni bajarish tartibini o'rganishdan boshlanadi. So'ngra talabalar barcha zarur narsalarni taxt qilib va ish o'rnini puxta tayyorlab, topshiriqning ayrim bosqichlarini bajarishga kirishadilar, zarur hisoblashlarni, yozuvlarni bajaradilar, xulosalarni ta'riflaydilar.

Tajriba-amaliy mashg'ulotlar bajarilgandan keyin barchf talabalar bilan birga *yakunlovchi yo'riqnoma* o'tkaziladi.

**Yakunlovchi yo'riqnoma o'tkazish** davomida mashg'ulotga yakun yasaladi, ish natijalarni tahlil qilinadi, solishtiriladi, taqqoslanadi va xulosalar keltiriladi.

Bu yo'riqnoma davomida mashg'ulotlarga yakun yasaladi. Yakunlovchi yo'riqnoma tadqiqot xarakteridagi tajriba-amaliy mashg'ulotlar o'tazilgandan

keyin ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda suhbat davomida o'qituvchi talabalar bilan birga tajriba natijalarini tahlil qiladi, solishtiradi, taqqoslaydi, talabalarni muayyan xulosalarga olib keladi. Ta'riflangan xulosalarni, qonuniyatlarni talabalar ish to'g'risidagi hisobotga yozib oladilar. Talabalar tajriba-amaliy mashg'ulot natijalari yuzasidan, odatda, yozma hisobot topshiradilar. Hisobotda, foydalanilgan materiallar xarakteri ko'rsatiladi; ishlatilgan asbob va jihozlarning tavsifnomasi beriladi; qurilma, zanjir, jarayonning sxemasi keltiriladi; qismlarga ajratib, yig'ish, rostdash, sozlash tartibi, mashina va mexanizmlarning buzuvchiliklariga diagnoz qo'yish natijalari bayon etiladi; o'lchash, kuzatish, hisoblashlarning natijalari; xulosalar keltiriladi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. Tajriba-amaliy mashg'ulotlardan qanday maqsadlar ko'zda tutiladi?
2. Maxsus fanlardan tajriba-amaliy mashg'ulotlarni qanday turlari majud?
3. Frontal va nofrontal tajriba-amaliy mashg'ulotlarini farqini tushuntiring.
4. Tajriba-amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasini o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Kirish yo'riqnomasini o'tkazishda qaysi jihatlarga e'tibor beriladi?
6. Tajriba-amaliy mashg'ulotlarda joriy yo'riqnoma qachon o'tkaziladi?

### **9. TALABALAR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI**

#### **NAZORAT QILISH VA BAHOLASH**

***Tayanch so'z va iboralar:** Baholash. baholashning vazifasi, funktsiyalari, turlari, funktsiyalari, baholashga qo'yiladigan pedagogik talablar, baholashning besh ballik tizimi, baholashning reyting tizimi.*


##### **9.1. Baholash va uning ahamiyati.**

Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning

bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

**Баҳолаш** – таълим жараёнининг маълум босқичида ўқув мақсадларига эришилганлик даражасини олдиндан белгиланган меъзонлар асосида ўлчаш, натижаларни аниқлаш ва таҳлил қилишдан иборат жараёндир.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. Baholash natijasida, ta'lim beruvchi uchun ta'lim oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi material yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi biri yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblandi. Ta'lim beruvchi o'z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. O'z ish metodlariga tuzatishlar kiritadi. Shuningdek, baholash natijalari ta'lim beruvchining o'quv dasturidagi materiallarni ta'lim oluvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishi va baholashi uchun ham juda muhimdir.



9.1-rasm. Baholash qirralari.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarining qaysi birlari qiyin,

qaysi birlari esa oson o'zlashtirilishi aniq-ravshan bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining darsga ijodiy tarzda tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta'lim oluvchiga ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi, qaysinisini qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta'lim oluvchi o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas. Ba'zan unga go'yo u o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog'ida esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma'lum bo'lib qoladi. Baholash natijasida ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlariga tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Ta'lim oluvchi o'z bilimlarining ijobiy tavsifi asosida ta'lim muassasasidagi va uydagi ishining uslubini takomillashtirish, bilimidagi, malaka va ko'nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Baholash hamisha ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatini hosil qiladi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ularini, uning xarakteridagi irodalilik, hamkorlik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga qaratishi lozim bo'ladi.

Ba'zan baholash jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ham erishadi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib yetadi. Shu bois, baholashni ta'lim olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin.

Ta'lim oluvchi o'rtoqlarining, ota-onasuning unga, uning ta'lim muassasasidagi yutuqlariga va muvaffaqiyatsizliklariga munosabatiga hech qachon befarq bo'lib qolmaydi. Uning bilimlariga berilgan baholar ushbu munosabatni belgilaydi. Mana shuning uchun ham maqto'v, ma'qullash, tanbeh berish, yaxshi

yoki yomon baho qo'yish ta'lim oluvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasidagi va katta yoshdagilar orasidagi mavqeini shakllantiradi. Bu ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatga egadir.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta'lim muassasasi jamoasining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, talabalarning umumiy o'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta'lim standartlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar nechog'lik bajarilayotganligi aniqlanadi.


Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lim tizimi va uning komponentlari tekshirilib ko'rilishi kerak. Bu bilan ta'lim tizimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o'lchanadi. Bilimlarni muntazam baholab borish ta'lim rejasi, uning katta-kichik bo'limlari asosida amalga oshiriladi. Ta'lim tizimi natijalari muayyan standart me'yori orqali ifodalanadi.

Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchining, balki ta'lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta'lim vositalari, rejalar, ta'lim jarayonini tashkil etish sifatiga ham baho beriladi.

Ta'lim dasturining qism va bo'laklari bo'yicha muntazam baholab borish oxir-oqibat aniq va adolatli baholanishning shakllanishiga olib keladi. Kichik bo'limlar bo'yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim oluvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va malakalarni baholash ta'lim oluvchichining o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:



## 9.2-rasm. Baholash mohiyati

### **Baholashga qo’yiladigan pedagogik talablar:**

- ta’lim maqsadiga yo’nalganlik;
- muntazam o’tkazib borish;
- pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
- umumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

### **9.2. Baholash me’zonlari, shakllari va turlari.**

Yuqorida ta’kidlanganidek, nazariy bilimlar baholanilayotganda faoliyatning kognitiv sohasiga tegishli o’quv maqsadlariga erishilganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko’nikma va malakalar baholanilayotganda faoliyatning psixomotorik sohasiga, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanilayotganda esa – faoliyatning affektiv sohasiga tegishli o’quv maqsadlariga erishilganlik darajalari aniqlanadi.

**Baholash mezonlari.** Har qanday baholash natijalari o’zaro taqqoslanishi, ya’ni o’lchanishi lozim bo’ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o’quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko’rsatkichdir. Bu ko’rsatkichlar (“besh”, “to’rt”, “uch” va “ikki”) kabi sonlar yoki (“a’lo”, “yaxshi”, “qoniqarli” va “qoniarsiz”) kabi so’zlar yordamida tavsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, baholash mezonlari ta’lim oluvchining qaysi

o'zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo'yiladigan baho ko'rsatkichining tavsifidan iborat.

**Baholash shakllari.** Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib, ikki xil shaklda o'tkazilishi mumkin:

1. Mezonga asoslangan baholash
2. Me'yorga asoslangan baholash.

**Mezonga asoslangan baholash** – baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini, bilim, malaka va ko'nikmalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lchashdan iborat bo'lgan baholash shaklidir. Bunday baholash mezonlarni aniq belgilab beruvchi o'quv maqsadlari bo'yicha natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali natijalar to'g'ridan-to'g'ri va xolis baholanadi, shuningdek, kuchli guruhlarni kuchsiz guruhlardan yaxshiroq farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga taqqoslanadi va o'lchanadi.

**Mezonga asoslangan (yoki maqsadli) baholashning afzalliklari:**

- o'quv maqsadiga muvofiq baholanadi;
- ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini ob'ektiv baholaydi;
- ta'lim oluvchi olgan bahosida yo'l qo'ygan xatolarini yaqqol ko'rsatib beradi;
- baholanuvchini ta'lim olishga yo'naltiradi;
- baholanuvchilarning baholanayotgan sohadagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab beradi, ularning o'z bilimi va malakalariga bo'lgan ishochini oshiradi;
- hamma uchun bir xil bilim va malaka talablarni o'rnatadi;
- ta'lim mazmunini aniqlab beradi;
- baholanuvchilarning o'z faoliyati natijalariga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi.

### **Mezonga asoslangan baholashning kamchiliklari:**

- mezonlarni ishlab chiqish ko'p vaqt talab qiladi;
- mezonlarning ob'ektivligi, haqqoniyligi va aniqligini aniqlashtirishga nisbatan talablar sonining ko'pligi;
- ijtimoiy fan yo'nalishlari bo'yicha mezoilar ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch ksilinadi.

**Me'yorga asoslangan baholash** – nisbiy baholash shakli bo'lib, u baholashda so'ng baholanuvchilarning ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijadarini o'zaro taqqoslash orqali o'lchashdan iborat.

Me'yorga asoslangan baholash ham ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, bu natijalar o'zaro taqqoslash orqali o'lchanadi. Me'-yorlangan (normaga asoslangan) baholashda baho bir necha ko'rsatkich-larga va ta'lim olish shart-sharoitiga ko'ra o'zgarishi mumkin bo'la-di. Masalan, o'qituvchida xayrihohlikning paydo bo'lishi, o'qituv-chining o'ta qat'iyligi sababli ham baho o'zgarishi mumkin (1-rasm).

### **Me'yoriy (normaga asoslangan ) baholashning afzalliklari:**

- o'qituvchi ortiqcha vaqt sarflamaydi;
- turli shart-sharoitga oson moslashtirish mumkin;
- baho bo'yicha ko'rsatkichlar umumiy tarzda olinadi;
- muayyan baholanuvchilar guruhi ichida ularni o'zlashtirish darajasiga qarab tabaqalashtirish imkonini beradi.
- baholash natijasida guruh ichidan ma'lum sondagilarini ajratib olish imkonini beradi (masalan, imtihonlari natijasida, boshqalarga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich ko'rsatgan 25 kishini ajratib olish mumkin.

### **Me'yoriy (normaga asoslangan) baholashning kamchiliklari:**

- baholashda bilim bilan xulqni baholash aralashtirib yuboriladi;
- ba'zan xulqni baholash bilimni baholashni belgilab qo'yadi;
- baholar o'qituvchi tomonidan sub'ektiv tarzda belgilanishi mumkin;

- ta'lim oluvchiga nisbatan simpatiya ham bahoni yuqori qo'yib yuborishga olib keladi. Bilimlarni ob'ektiv va haqqoniy tarzda baholashning pasayishiga yo'l ochib beradi.

**Baholash turlari.** Baholash o'tkazilish vaqtiga ko'ra uch turga ajratiladi:

- boshlang'ich baholash;
- joriy (shakllantiruvchi) baholash;
- yakuniy (umumlashtiruvchi) baholash.

***Boshlang'ich baholash*** – ta'lim jarayoni boshida ta'lim oluvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Bunday baholash natijalari ta'lim jarayonining mazmuni, usullari va shakllarini tanlash imkonini beradi.

***Joriy (shakllantiruvchi) baholash*** - ta'lim jarayonida muntazam ravishda o'tkazib boriladi.

Bunda ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, ta'lim jarayoni samarasini tezkor(operativ) aniqlab borish, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish va ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi qaytar aloqani ta'minlash imkoini beradi.

***Yakuniy (umumlashtiruvchi) baholash*** – ta'lim oluvchining ta'lim jarayoniniig ma'lum davridagi o'zlashtirish natijalarini belgilangan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi.

Yakuniy baholash ta'lim jarayonining ma'lum bosqichi yakunida o'tkazilib, u joriy baholash natijalarini jamlaydi.

**Umumlashtiruvchi baholashni o'tkazishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:**

- ta'lim oluvchi umumlashtiruvchi baholash nima uchun o'tkazilishi haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bu uni baholashga tayyorgarlik ko'rishga olib keladi;

- baholashni o'tkazish shartlari unga jiddiy yondashishiga, diqqatni chalg'itadigan yoki tasodifiy uzilishlardan o'zini chetga olishga hamda ta'lim oluvchiga o'z qobiliyatini namoyish qilishiga imkon beradi;

- baholash o'tkazish sharoitida ta'lim oluvchi o'zini erkin tutishi va

noxushlik his qilmasligiga imkoniyat yaratish kerak;

- baholovchi va ta'lim oluvchi baholash nima berishi, u qachon, kim tomonidan va qanday o'tkazilishini bilishlari muhim ahamiyatga ega;
- qo'yilgan baho o'quv natijasi tushunish va uni mujassamlashtirish uchun ahamiyatlidir;
- ta'lim oluvchi oldindan belgilangan natijalar mezonini yordamida baholanishi lozim;
- rejalashtirilmagan baholashni o'gkazish maqsadga muvofiq emas.

### **9.3. Baholashning asosiy tamoyillari.**

Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish tizimli, doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, ta'lim oluvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bir ta'lim oluvchi uining qaysi bilimlari, ko'nikma va malakalari baholanayotganini bilishi kerak. Ta'lim beruvchining savollariga va vazifalariga javob berishga tayyorlik holati bilimlarni tekshirish va baholash o'quv jarayonining muhim bir bo'lagiga, uning tarkibiy qismiga aylangan taqdirdagina ro'y beradi.

Ta'lim oluvchining bilimlari, ko'nikma va malakalari davlat o'quv rejalarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi va baholanadi.

Ta'lim oluvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini tekshirish shakllari turlichadir. Ba'zan ta'lim beruvchi bilimlarni tekshirishning uzoq vaqt mobaynida bir xildagi usullarini qo'llaydi. Unda so'rash, savol berish, bahoni izohlash sohasida muayyan odat paydo bo'ladi. Ta'lim oluvchilar bunday tekshirishga moslashib ketadilar, o'qituvchining qay tarzda so'rashi ularga oldindan ma'lum bo'ladi. Ular faqat ta'lim beruvchi uchun, uni qanoatlantirish uchun javob bera boshlaydilar.

Quyidagi beshta asosiy tamoyil baholash tizimi samaradordigining poydevori hisoblanadi:

- o'quv maqsadlariga asoslanganlik;
- haqiqiylik;
- haqqoniylik;
- ishonchlilik;
- qulaylik.

**O'quv maqsadlariga asoslanganlik.** Samarali baholashning asosiy tamoyili o'quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sifati o'quv maqsadlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. O'quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O'quv maqsadlarining qo'yilish darajasiga qarab, baholashning shakl va usullari tanlanadi. Shuningdek, o'quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Har qanday baholash tizimini loyihalashtirishda, baholash topshiriqlarining berilgan ta'lim mazmuni doirasida bo'lishi talab etiladi. Baholashni loyihalashtirishda, har doim quyidagi ikkita savolni e'tibordan qochirmaslik lozim:

- 1) Baholash topshiriqlari ta'lim jarayonidan ko'zlangan o'quv maqsadlarini to'la aks ettiradimi?
- 2) O'quv maqsadining darajasi uchun baholash shakli, usuli va mezoni to'g'ri tanlandimi?

Masalan, yo'l harakati qoidalari bo'yicha olgan bilimlarni baholashda yozma test olish usuli mos kelishi mumkin. Lekin undan mashinani boshqarish malakalarini baholashda foydalanib bo'lmaydi. Bu malakalar og'zaki yoki yozma emas, balki amaliy faoliyatga asoslangan baholash usuli yordamida baholanishi maqsadga muvofiqdir.

**Haqiqiylik.** O'quv maqsadida ko'zda tutilgan natijanigina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U baholanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo'lishi lozim.

Ta'lim oluvchi erishgan natijalar to'g'risida asoslangan va ishonchli axborot berish kerak. O'lchanishi talab etiladigan narsalargina o'lchanishi kerak. Ta'lim oluvchi tomonidan egallagan bilim, malaka va ko'nikmalar hamda shaxsiy fazilatlarni o'lchash imkonini beradigan metodlardan foydalanish zarur.

**Haqqoniylik (ob'ektivlik).** Bir xildagi ta'lim oluvchilarga berilgan bir xil topshiriq va testlar bo'yicha har xil ta'lim beruvchilar tomonidan bir xil baho berilgan hollardagina bunday topshiriq va test haqqoniy hisoblanadi. Bu haqqoniylik har xil vaqtlarda berilgan baholar uchun ham taalluqlidir. Ushbu mezonlar ko'pincha markazlashgan holatda, o'tkaziladigan yalpi «rasmiy testlar» paytida amalga oshiriladi, xolos. Ta'lim beruvchi tomonidan tuzilgan testlar esa odatda mazkur talablarni bajarmaydi.

Baholash tizimi o'quv maqsadlariga mos bo'lishi, shuningdek, baholash shart-sharoitlari va maqsadlari bilan talabalar oldindan tanishgan bo'lishlari lozim. Ta'lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi va hajmdagi topshiriqlar berilishi kerak.

**Ishonchlilik.** Natijalarni baholash mobayyiida har xil usullardan foydalanish mumkin. Lekin, bu usullarni tanlashga qo'yiladigan asosiy shart ishonchlilik hisoblanadi. Uslub ishonchli bo'lishi uchun baholash asosli va aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi zarur. Bunda topshiriq yoki testning o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga yo'naltirilganligi qanchalik ishonchli ekanligi nazarda tutiladi.

Baholash ishonchli bo'lishi uchun ta'lim oluvchilarda bir-biriga o'xshash, ammo har xil sharoitlarda baholash o'tkazilganda, natijalari bir xil bo'lishi kerak. Baholash metodining ishonchliligi turli metodlarning natijalari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Baholash tizimi ishonchli bo'lishi uchun – turli ekspertlar yordamida turli vaqtlarda, baholash o'tkazilganda, uning natijalari bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak.

**Qulaylik.** Baholash tizimi o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda o'quv va ishlab chiqarish standartlariga mos bo'lishi, murakkab bo'lmasligi, nazorat o'tkazuvchi va ta'lim oluvchi uchun qulay bo'lishi lozim. Baholashni o'tkazishda imkon qadar kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Topshiriq yoki test paytida ball beriladigan bo'lsa, ball berish o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga moslashtirilgan bo'lishi lozim. Bunda mavzuning muhimroq bo'lgan qismlariga unchalik muhim bo'lmagan qismlariga nisbatan ko'proq ball berish kerak bo'ladi.

**Baholash jarayonida uchraydigan ba'zi xatoliklar.** Ta'lim beruvchining shaxsiy qarashlari bilan bog'liq ravishda baholashda bir qator xatolar uchrab turadiki, ularni quyidagilar tashkil qiladi..

***Xayrixohlik xatosi.*** Agar ta'lim beruvchi biror ta'lim oluvchiga nisbatan xayrixohlik bilan qarasa, bu bahoning biroz yuqoriroq bo'lishiga olib kelishi mumkin.

***Yuqori talab qo'yish xatosi.*** Agar ta'lim beruvchi o'ziga nisbatan yuqori talablar qo'ysa va xuddi shunday yuqori darajadagi talablarni ta'lim oluvchilarga nisbatan qo'llasa, bunday hol bahoning biroz pastroq bo'lishiga olib kelishi mumkin.

***O'rtacha baho berish xatosi.*** Bu xato ta'lim oluvchilarning natijalari o'rtacha baholanishini bildiradi. Buning sabablari ta'lim beruvchining o'ta yaxshi yoki o'ta yomon baho berishdan qo'rqishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

***O'z fikrini o'zgartirmaslik xatosi.*** Ta'lim beruvchi o'zining birinchi fikrini o'zgartirishni xohlamasligi tufayli u o'z nazoratining natijalarini o'zgarishsiz qoldiradi. Bir marta sodir bo'lgan voqea tufayli ta'lim beruvchida biror ta'lim oluvchi to'g'risida qolgan ijobiy yoki salbiy taassurot, keyinchalik bu ta'lim oluvchining shaxsiyatiga oid barcha boshqa xususiyatlariga e'tibor bermasligiga olib keladi.

***Yoqtirmaslik xatosi.*** Biror ta'lim oluvchini yoqtirmaslik yoki unga nisbatan salbiy fikrda bo'lishi tufayli ta'lim beruvchi ta'lim oluvchiga yomon baho qo'yadi. Bu xato "Hayrixohlik xatosi" ning aksidir.

**Ta'lim beruvchining baholashdagi xatolari oldini olish uchun quyidagilarga amal qilish kerak:**

***Baholash mezonlarini aniq ishlab chiqish va ularni to'g'ri tanlash bo'yicha:***

- nazorat varag'ini ishlab chiqish;
- baholovchining bir emas, balki ikkita bo'lishi;
- baholash usullarini to'g'ri tanlash;
- samarali baholash tizimini qo'llash;

- baholash topshiriqlarini va ularga javoblarni imkoni boricha yozma ravishda o'tkazish va rasmiylashtirish.

***Baholashda uchraydigan xatolarning oldini olish uchun rioya qilinishi maqsadga muvofiq bo'lgan qoidalar:***

- baholashdan oldin ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda baholash mezonlarini muhokama qilib olishlari lozim;

- baholash mezonlarga muvofiq qo'yilgach, u ta'lim oluvchilarga ma'lum qilinishi lozim.

Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchi bilan birgalikda olingan baholarning natijalarini va yo'l qo'yilgan xatolarni muhokama qilishlari hamda ularning sabablarini aniqlashlari lozim. Ular xatolarning takrorlanmasligi chora-tadbirlarini belgilab olishlari lozim.

***Baholash tizimlari.*** Hozirda Respublikamizning oliy ta'lim muassasalarida quyidagi ikkita baholash tizimi qo'llanilib kelinmoqda:

1. Baholashning "besh ballik" tizimi.
2. Baholashning reyting tizimi.

Baholashning besh ballik tizimida baholashga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

- ✓ tekshirish va nazorat qilish tizimli, doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, ta'lim oluvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Ta'lim oluvchilar darsga har kuni tayyorlanib borishlari kerak (ta'lim beruvchining doimiy ravishda nazorat qilib turishi shunga majbur etadi);

- ✓ bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bir ta'lim oluvchi uning bilimlari, ko'nikma va malakalari baholanayotganini tushunishi kerak.

***Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik.*** Ta'lim oluvchilarning bilimlari, malaka va ko'nikmalari davlat o'quv dasturlarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi.

| <b>Baholashning besh ballik tizimi</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |                                                                                                                                                                                         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <i>Afzalligi</i>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | <i>Kamchiligi</i>                                                                                                                                                                       |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ ta'lim oluvchi ragbatlantiriladi;</li> <li>✓ ta'lim oluvchining faoliyatini tezkor nazorat qilish imkoniyтини beradi;</li> <li>✓ ta'lim beruvchining vaqti tejaladi;</li> <li>✓ ta'lim oluvchining yakuniy bilimi baholarining soniga qarab emas, sifatiga qarab baholanadi;</li> <li>✓ baholash qulay boladi;</li> <li>✓ rasmiylashtirish xujjatlari kam bo'ladi.</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ baholash nisbiyligi;</li> <li>✓ yozma nutqda xatolarni to'g'irlash imkoniyatining kamayishi;</li> <li>✓ baholashning sub'ektivligi.</li> </ul> |

| <b>Baholashning reyting tizimi</b>                                                                                                                                                                                                                                                        |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <i>Afzalligi</i>                                                                                                                                                                                                                                                                          | <i>Kamchiligi</i>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ xaqqoniy baholanishi;</li> <li>✓ yozma nutqning o'sishi;</li> <li>✓ yozma nutqda xato va kamchiliklarni aniqlash imkoniyatlarining mavjudligi;</li> <li>✓ ta'lim oluvchining bilimga bo'lgan ishtiyoqining sezilarli darajaa oshishi.</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ ta'lim beruvchi ta'lim oluvchi bilan ishlanganda ko'p vaqt sarv qiladi;</li> <li>✓ ballarni hisoblash ko'p vaqtni talab qiluvchi murakkab jarayonligi;</li> <li>✓ baholash usullariga qarab ta'lim oluvchi og'zaki nutqning pasayishi;</li> <li>✓ ajratilgan vaqtning yetarli emasligi;</li> <li>✓ ta'lim oluvchi baholash nazoratining murakkabligi va noqulayligi.</li> </ul> |

#### **9.4. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi.**

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug'i bilan

tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risida”gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta’lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o‘zlashtirishida bo‘shliqlar hosil bo‘lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta’lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi, ko‘nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta’lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlik va qulay shaklda baholashni ta’minlash;

v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o‘zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

g) talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma’lum qilish;

e) talabalarning fanlar bo‘yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta’minlash;

j) o‘quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

Fanlar bo‘yicha talabalar bilimini semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

Nazorat turlari, uni o‘tkazish tartibi va mezonlari kafedra mudiri tavsiyasi bilan oliy ta’lim muassasasining (fakultet) o‘quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o‘quv dasturida mashg‘ulot turlari bilan birgalikda ko‘rsatiladi.

Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

**joriy nazorat (JN)** — talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

**oraliq nazorat (ON)** — semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

**yakuniy nazorat (YAN)** — semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. YAkuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan «YOzma ish» shaklida o'tkaziladi.

Oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi yoki o'quv-uslubiy boshqarma rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

Talabalarning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Har bir fan bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi.

Ushbu 100 ball nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

✓ yakuniy nazoratga — 30 ball;

✓ joriy va oraliq nazoratlarga — 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlarga taqsimlanadi).

Talabaning reyting daftarchasi yoki talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimiga alohida qayd qilinadigan kurs ishi (loyihasi, hisob-grafik ishlari), malakaviy amaliyot, fan (fanlararo) bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi va magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlari, magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha o'zlashtirish darajasi — 100 ballik tizimda baholanadi.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar (keyingi o'rinlarda namunaviy mezonlar deb yuritiladi) tavsiya etiladi:

| <b>Ball</b>   | <b>Talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim</b>                                                                                                                                                 |
|---------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>86-100</b> | xulosa va qaror qabul qilish;<br>ijodiy fikrlay olish;<br>mustaqil mushohada yurita olish;<br>olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;<br>mohiyatini tushunish;<br>bilish, aytib berish;<br>tasavvurga ega bo'lish. |
| <b>71-85</b>  | mustaqil mushohada yurita olish;<br>olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;<br>mohiyatini tushunish;<br>bilish, aytib berish;<br>tasavvurga ega bo'lish.                                                           |

|              |                                                                           |
|--------------|---------------------------------------------------------------------------|
| <b>55-70</b> | mohiyatini tushunish;<br>bilish, aytib berish;<br>tasavvurga ega bo'lish. |
| <b>0-54</b>  | aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;<br>bilmaslik.                             |

Namunaviy mezonlar asosida muayyan fandan joriy va oraliq nazoratlar bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi va talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabani fan bo'yicha bir semestrda reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_f = \frac{V \times O^f}{100}, \text{ bu erda:}$$

$V$  — semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

$O^f$  — fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha 55 va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

Oraliq va yakuniy nazorat turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

Talaba fan bo'yicha kurs loyihasi (ishi)ni ushbu fan bo'yicha to'plagan ballari umumlashtirilishiga qadar topshirishi shart.

Joriy va oraliq nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun,

navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) yoki o'quv ishlari bo'yicha prorektorning ruxsatnomasi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda qayta topshirishga ruxsat beriladi.

Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha to'plangan ballari ushbu nazorat turlari umumiy ballining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plangan ballari yig'indisi 55 balldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin (bahorgi semestr natijalari bo'yicha esa, talabalarning yozgi ta'tili hamda professor-o'qituvchilarning mehnat ta'tilidan so'ng) qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. SHu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) boshlig'ining tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekani yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) boshlig'iga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekani yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) boshlig'ining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabaning fan bo'yicha nazorat turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasi yoki talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimining «O'quv rejasida ajratilgan soat» ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, «Fandan olingan baho» ustuniga esa 100 ballik tizimdagi o'zlashtirishi qo'yiladi.

Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi.

Har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnali hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o'zida (nazorat turi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, 2 (ikki) kun muddat ichida) talabalar e'tiboriga etkaziladi.

Yakuniy nazorat natijalariga ko'ra fan o'qituvchisi talabalarning fan bo'yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to'ldiradi.

Talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimi joriy etilgan oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fan bo'yicha reytingi reyting qaydnomasi va ushbu tizimga qayd etiladi.

Talabaning reytingi uning bilimi, ko'nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabaning semestr (kurs) bo'yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to'plangan reyting ballari yig'indisi orqali aniqlanadi.

Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va o'quv yili yakunlangandan so'ng e'lon qilinadi.

Diplom ilovasi yoki akademik ma'lumotnomani dekanat yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) tomonidan rasmiylashtirishda fan bir necha semestr davom etgan bo'lsa, reytinglar yig'indisi olinadi.

Talabaga imtiyozli diplom belgilashda uning har bir semestr yakunidagi fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi hisobga olinadi.

Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Mutaxassislarning fikricha bugungi kunda talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi sohasidagi muammolar quyidagilardan iborat:

- ✓ semestr davomida o'qitilayotgan fanlarni talaba tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirishi ko'zda tutilgan bo'lsa-da, lekin aksariyat holatlarda ayrim talabalar JN va ON nazorat turlarini o'z vaqtida topshirmaydilar;

- ✓ ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha semestrda fanlardan yakuniy nazoratlarni o'tkazish shakli (yozma yoki og'zaki) fakultet Kengashi tomonidan fan xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. YAN o'tkazilgach, yozma ishlarni baholash uchun 2 kun, og'zaki baholashga 1 kun muddat berilishi ma'lum muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Jumladan, katta potoklarda dars o'tgan professor-o'qituvchilar bu muddatda talabalar o'zlashtirishini haqqoniy baholab, natijalarini ularga ma'lum qilishga va qaydnomalarni rasmiylashtirishga ulgurmaydi;

- ✓ o'qitilayotgan fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, yakuniy nazoratlarni o'tkazish bo'yicha talablarni professor-o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilishi hamda tegishli kengashlarda muhokama qilinishi maqsadga muvofiq bo'lar edi;

- ✓ amaliyotda professor-o'qituvchilar tomonidan reyting qaydnomalarini rasmiylashtirishda qaydnomalardagi ballarning ustidan bo'yab yozish, reyting ballarini noto'g'ri hisoblab chiqarish, ballarni butun sonlar bilan qayd qilmaslik va hokazolar kabi ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda;

- ✓ talabalarning nazorat turlari bo'yicha erishgan natijalari kafedralar, dekanatlar va o'quv-uslubiy boshqarmasida kompyuter xotirasiga kiritilsa-da, ammo muntazam ravishda mutasaddi xodimlar va kafedralar

tomonidan tahlil qilib borish imkoniyatlari cheklangan. Bu muammo talabalar va fanlar sonining ko'pligidan kelib chiqmoqda;

✓ ayrim dekanatlar va kafedralarda talabalar bilimini fanlar bo'yicha reyting nazorati rejasi, fanlardan joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar bo'yicha fakultet kengashi tomonidan tasdiqlangan savollar ro'yxati, joriy va oraliq nazorat natijalari Reyting oynasida muntazam ravishda yoritib borilmayapti.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. Ta'lim jarayonida baholashning ahamiyati nima?
2. Baholashni qanday shakllari va turlari mavjud?
3. Baholashga qanday mezonlar qo'yiladi?
4. Baholashning "5" ballik tizimi qanday afzallik va kamchiliklarga ega?
5. Baholashda ta'lim beruvchining shaxsiy qarashlari bilan bog'liq qanday xatolar uchraydi?
6. Baholashni reyting tizimi mohiyatini tushuntiring?
7. Reyting tizimi bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga necha ball ajratiladi?

## **10. DARS TAHLILI VA UNI O'TKAZISH METODIKASI**

**Tayanch so'z va iboralar:** *Dars tahlili maqsadi, tarkibiy qismlari, tashkiliy ishlar tahlili, ta'limiy tahlil, uslubiy tahlil, metodologik tahlil, psixologik tahlil, pedagogik tahlil, yakuniy tahlil, dars tahlil qilish metodikasi.*

### **10.1. Dars tahlili va uning maqsadi.**

Ta'lim-tarbiya jarayonini nazorat qilishni professor-o'qituvchilar jamoasi ishiga rahbarlik etishning asosiy usullaridan biri deb qarash kerak. Pedagogik nazoratni amalga oshirish - bu maslahatlar berish, ishga ta'sir ko'rsatish, uni yaxshilash, oldindan ko'rish, voqealarni seza bilish, har bir ta'lim muassasasidagi ishlarni o'z vaqtida to'g'rilashdir.

O'quv jarayonini nazorat qilish professor-o'qituvchilar tomonidan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni, darajasini, tashkil qilishlari va

metodikasini yaxshilash, o'qitish jarayonidagi mavjud xato va kamchiliklarni ochishi kerak.

Dars tahlili, professor-o'qituvchi faoliyatini o'rganish va tekshirish, professor-o'qituvchi ishning ijobiy va salbiy tomonlarini chuqur bilishga asoslanilgan malakali yordamdir.

To'g'ri tashkil etilgan nazorat professor-o'qituvchilarning eng yaxshi tajribalarini aniqlash hamda uni tarqatish choralarini ko'rishda yordam beradi. O'quv ishini nazorat qilish doimiy, rejali, ob'ektiv bo'lishi kerak. Uni shunday tashkil qilish kerakki, u professor-o'qituvchilarda ijobiy tashabbusni, o'quv ishining holatiga javobgarlik hissini o'stirsin. O'quv ishlarini nazorat qilish quyidagilarni: darslarga kirishning maqsadlarini aniqlash; darslarni tahlil qilishni rejalashtirish; darslarni tahlil qilishga tayyorlanish; darslarga kirish; darslar tahlili; nazorat natijalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik faoliyatda amalga oshirilgan ko'p yillik ish tajribalari va kuzatishlar, o'qituvchi hamisha o'z ustida ishlashi, bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirib borishi kerakligini ko'rsatmoqda. O'qituvchi pedagogik mahoratining kundan-kunga o'sib borishi, o'quv jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llay olishini kuchayishi, uning pedagogik faoliyatida amalga oshadi. O'qituvchi faoliyatining qanchalik samarali ekanligini, odatda, uning mahoratini kuzatish, o'tayotgan darslarini tahlil qilish orqali baholash mumkin. Bunday ishlarni ko'pincha tegishli Vazirlikning mas'ul xodimlari, ta'lim muassasasi rahbari yoki uslubchilar, uslubiy birlashma boshliqlari amalga oshiradilar. Biror o'qituvchining darsiga kirish mo'ljallangan bo'lsa, o'qituvchilik kasbi odobiga ko'ra shaxslarni darsga kiritish oldidan (ayniqsa, tashqaridan kelgan shaxslarni) qaysi o'quv xona (auditoriya)ga va qaysi darsga kirish kerak ekanliklari bo'yicha ogohlantirilishlari lozim. Avvalo, o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, imkoniyat bo'lmay qolgan taqdirda rahbariyat xodimlaridan biri, tashqaridan kelgan kuzatuvchini birga olib kirishi maqsadga muvofiq. Bu, o'z navbatida, ba'zi-bir anglashilmovchiliklar va psixologik to'siqlarning oldini olishga yordam beradi.

### ***Darslarni tahlil qilish maqsadlari:***

- ✓ дaрс мaзмунининг ўқув дaстуригa мувофиқлигини aниқлaш; ўргaнилaётгaн мaтериaлнинг илмий дaрaжaсини вa унинг ғoявий йўнaлишини aниқлaш;
- ✓ дaрслaрдa дидактикaнинг aсoсий тaмoйиллaригa риoя қилинaётгaнлигини нaзoрaт қилиш;
- ✓ дaрс тури, ўқитишнинг мeтoд вa тaмoйиллaрини тўғри тaнлaнгaнлигини тeкшириш;
- ✓ дaрснинг тaрбиявий aҳaмиятини тeкшириш;
- ✓ ўқитувчининг шу фaндaн дaрс бeришгa вa мaзкур дaрсни oлиб бoришгa тaйёргaрлигини тeкшириш;
- ✓ дaрсни тўғри тaшкил қилингaнлигини бaҳoлaш;
- ✓ ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash va umumlashtirish;
- ✓ o'qitish sifati va samaradorligini nazorat qilish;
- ✓ ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish.

### ***Darsni kuzatish va tahlil qilish rejasidan qaysi birini tanlash***

- ✓ darsga qanday maqsadni ko'zlab tahlil qilishga;
- ✓ kuzatuvchining kasbiy tayyorgarlik darajasiga;
- ✓ dars tahlili kuzuvchisini egallab turgan lavozimiga;
- ✓ dars tahlilini tashkil etish shakllariga bog'liq.

## **10.2. Dars tahlilining tarkibiy qismlari.**

Dars tahlilining tarkibiy qismlari quyidagi 10.1-rasmda keltirilgan.



10.1-rasm. Dars tahlilining tarkibiy qismlari

Mutaxassis sifatida o'qituvchining darsini kuzatib, uni tahlil etishni mo'ljallagan shaxslar dars tahlilini quyidagi tarkibiy qismlariga e'tibor berishlari maqsadga muvofiq bo'ladi:

**O'qituvchining darsga qanday tayyorgarlik ko'rganligi tahlili.**

O'qituvchida darsning o'quv rejasi va mavzu bo'yicha turli ishlanmalarni, turli didaktik tarqatma material va ko'rgazmali qurollarni mavjudligi.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi bilan yuzaki (yoki darsning bir qismida) tanishib chiqilmaydi. Uning darsga tayyorgarligini butun mashg'ulot mobaynida kuzatish va tahlil etish lozim.

**Darsning maqsad va vazifalarini qo'yilishi tahlili.** Dars tahlilini bu qismida quyidagi savollarga javob beriladi: O'qituvchi darsga aniq maqsad qo'yadimi? Maqsadni qanchalik to'g'ri qo'yadi? Vazifalar belgilanadimi?

**Tashkiliy ishlar tahlili.** Mashg'ulot o'tkaziladigan o'quv xonasining darsga tayyorligi, talabalarning kayfiyati va sog'ligi, o'quv xonasi va stolining tozaligi, bo'r va namlangan lattaning borligi, ayrim sabablarga ko'ra darsda qatnashmayotgan talabalarning ism va shariflari yozilgan varaqchani o'qituvchi

stoliga qo'yilishiga, shuningdek, o'qituvchining darsga hozirligiga va uning tashqi qiyofasiga ham e'tibor beriladi.

**Didaktik (yoki ta'limiy) tahlil.** Tahlilning bu turida mavzuning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga tomon yo'nalishi, ko'rgazmaliligi va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyiligi, ularni jonli va ravon tilda ochib berilishi nazarda tutiladi.

**Uslubiy tahlil.** Bunda o'qituvchi faoliyatining ikki tomoni: birinchidan, o'rganilayotgan mavzuga dasturda mo'ljallangan soatda, uni qanday usullar yordamida, talabalarning yoshi va shaxsiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda etkazib bera olishi, talabalarni o'ylashga, izlanishga majbur etishi va unga sharoit yaratishi; ikkinchidan, o'qituvchi sifatidagi tajribalari qay darajada ekanligini namoyish eta olishi nazarda tutiladi. Tahlil etayotganda, o'qituvchining ijodkorligi, uslubiy mahorati ko'zga tashlanishi lozim. O'qituvchining ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish ilg'orlari tajribalari mana shu erdan boshlanadi.

**Metodologik tahlil.** Ushbu tahlil mobaynida ta'lim yo'nalishidagi qarorlar, talablar, davlat tili, milliy ruh, madaniyatning go'zal durdonalari, shu soha bo'yicha buyuk alloma va olimlarning qilgan ishlari, fikrlari, respublikadagi oxirgi o'zgarishlarning mashg'ulot davomida foydalanilishi asos qilib olinishi mumkin.

**Psixologik tahlil.** Bu tahlilda, avvalo, talabalarning kayfiyati, ularning sog'ligi, jamoadagi sog'lom muhit, talabalarning xushyorligi, fanga bo'lgan qiziqishlari, dars berayotgan o'qituvchisiga munosabati, talabalarning hozirjavobligi, sezgir va topqirligi, idroki, yangi va avvalgi materiallarni esda saqlashlari, obrazli va mantiqiy tafakkurlari, talabalar fantaziyasi, oldida turgan mas'uliyatlariga nisbatan talabalarning irodali yoki irodasizligi, ulardagi qobiliyat, bilim, ko'nikma va malakalar ko'lami kabi tomonlar kiradi. O'qituvchining favqulotda vujudga kelgan vaziyatdan o'z obro'sini saqlagan holda chiqa olishi, o'zini boshqara olishi ham inobatga olinadi.

**Pedagogik tahlil.** Tahlilning bu turi ancha murakkab va mas'uliyatli bo'lib, o'qituvchining tashqi qiyofasi, talabalar bilan til topa olish mahorati, madaniyati,

odobi bilan birgalikda dars jarayonida umuminsoniy tarbiyaning tarkibiy qismlarini talabalarga bera olishi va uning nutq madaniyati ham nazarda tutiladi.

Mashg'ulot mobaynida hozirgi kunda dolzarb bo'lib turgan milliy tarbiya (ekologik, iqtisodiy, ahloqiy, mehnat, nafosat va milliy istiqlol g'oyasini singdirish) elementlari qanday amalga oshirildi?

Bu tarbiya turlaridan qay biriga aynan shu darsda ko'proq e'tibor berildi?

Darsning tarbiyaviy ta'siri samarasi qanday bo'ldi?

Bu masalalar pedagogik tahlilning asosini tashkil etadi. SHuni ta'kidlash kerakki, o'qituvchining ma'noli nutqini hech qachon boshqa narsaga qiyoslash (yoki almashtirish) mumkin emas.

**O'qituvchining hamkorlikdagi vazifasi tahlili.** Dars tahlilining bu qismida o'qituvchini hamkorlikdagi quyidagi vazifalari tahlili nazarda tutiladi:

- talabalarni fikrlashga o'rgatishi;
- aniq fikr va materiallarni o'rganib, mulohaza yuritish, fikr bildirishni ta'minlashi;
- talabalarni izlanishga, qidirib topishga o'rgatishi;
- talabani o'zi mustaqil fikrga ega bo'la olishi.

**Yakuniy tahlil** (yoki xulosa). Yakuniy tahlilda o'qituvchining qanday mutaxassis ekanligi buyicha fikrlar va turli takliflar, yo'l-yo'riqlar bayon etiladi va umumiy xulosa qilinadi.

### **10.3. Dars tahlilini o'tkazish metodikasi.**

Darsni tahlil qilish - ta'lim-tarbiya jarayonini nazorat qilishning asosi hisoblanadi.

Ta'lim muassasasi mas'ul shaxslarini darslarga kirishlari ularga talabalarni o'qitish va tarbiyalashning haqiqiy ahvoli, pedagog xodimlarning muvaffaqiyat va kamchiliklari bilan tanishish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya ishlarni yaxshilashga yordam beradi.

Nazariy o'qitish darslariga kirishda auditoriyaga dars boshlanishidan oldin (talabalardan oldin) yoki talabalar bilan birga kirish tavsiya qilinadi; darslar haqida

to'liq tasavvurga ega bo'lishi uchun tahlil darsning boshidan oxirigacha bo'lishi kerak.

Ayrim hollarda etarlicha tajribaga ega bo'lmagan o'qituvchining o'quv mashg'ulotlariga kirishdan oldin u bilan birgalikda mazkur mashg'ulotlarga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish, uning ba'zi metodik masalalarni ijodiy hal qilishga yordam berish tavsiya qilinadi. Ta'lim muassasasining rahbarlari o'quv mashg'ulotlarga kirgan vaqtlarida o'qituvchiga berilgan ko'rsatmalarini amalga oshirish qobiliyatiga ishonch hosil qiladilar.

Pedagogik amaliyotda darsni umumiy (majmuaviy) tahlil qilish rejasidan ko'proq foydalaniladi.

Shu o'rinda darsni jamoaviy tarzda yoki individual tahlil qilish shakli ham muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etish lozim. Darsni tahlil qilishdan oldin o'qituvchining taqvimiy rejasi bo'yicha o'tiladigan mavzu, dars rejasi va mavzu bo'yicha dars materiali (O'UM, tarqatma materiallar, taqdimot materiallari va b.) bilan tanishish maqsadga muvofiq.

Dars boshlanishi bilan dars tahlilini o'tkazuvchilar darsni olib boruvchi o'qituvchi bilan birgalikda o'quv xonasiga kirib kelib, orqa o'rindiqlardan birini egallagach, dars boshlanadi. O'qituvchi darsga kirganda qo'li (yoki o'quv xonasi)da guruh jurnali, fanning ishchi o'quv dasturi, taqvimiy mavzular rejasi, fanning o'quv uslubiy majmuasi bo'lishi kerak.

Tahlil etilayotgan darsning borishi haqida ma'lumotlarni yozib borilishi uni ob'ektiv va xolisona baholash uchun asos bo'ladi. Buning uchun quyidagi shakldagi dars tahlili jadvalini to'lg'izish maqsadga muvofiq.

(OTM nomi)

Ta'lim yo'nalishi shifri \_\_\_\_\_

Kafedra \_\_\_\_\_

O'qituvchi \_\_\_\_\_ ning

## Dars sifati ko'rsatkichlari

Kurs \_\_\_\_\_

Auditoriya \_\_\_\_\_

Guruh \_\_\_\_\_

Mashg'ulot turi \_\_\_\_\_

Fan \_\_\_\_\_

Mavzu \_\_\_\_\_

Juftlik \_\_\_\_\_

Sana «\_\_» \_\_\_\_\_ 201\_\_ yil

| T/r                                                                      | Dars sifati mezonlari                                                     | Ball |   | Izoh |
|--------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------|------|---|------|
| 1                                                                        | 2                                                                         | 3    | 4 | 5    |
| <b>I. Darsning tashkiliy darajasi:</b>                                   |                                                                           |      |   |      |
| 1.                                                                       | <b>Darsning o'z vaqtida boshlanishi:</b>                                  |      |   |      |
|                                                                          | 1.1. Dars o'z vaqtida boshlandi                                           | 3,0  |   |      |
|                                                                          | 1.2. Dars o'qituvchining aybi bilan barbod bo'ldi                         | -5,0 |   |      |
| 2.                                                                       | <b>Auditoriyaning darsga tayyorgarlik darajasi:</b>                       |      |   |      |
|                                                                          | 2.1. Auditoriya dars o'tishga tayyor                                      | 3,0  |   |      |
|                                                                          | 2.2. Auditoriya dars o'tishga qisman tayyor                               | 1,5  |   |      |
|                                                                          | 2.3. Auditoriya dars o'tish uchun tayyor emas                             | 0    |   |      |
| 3.                                                                       | <b>Guruh jurnalining rasmiylashtirish darajasi:</b>                       |      |   |      |
|                                                                          | 3.1. Jurnal belgilangan tartibda to'liq rasmiylashtirilgan                | 6,0  |   |      |
|                                                                          | 3.2. Jurnal qisman rasmiylashtirilgan                                     | 3,0  |   |      |
|                                                                          | 3.3. Jurnal rasmiylashtirilmagan                                          | 0    |   |      |
| 4.                                                                       | <b>Davomat darajasi:</b>                                                  |      |   |      |
|                                                                          | 4.1. 100 %                                                                | 8,0  |   |      |
|                                                                          | 4.2. 95 va undan yuqori %                                                 | 6,0  |   |      |
|                                                                          | 4.3. 90 va undan yuqori %                                                 | 4,5  |   |      |
|                                                                          | 4.4. 86 va undan yuqori %                                                 | 3,0  |   |      |
|                                                                          | 4,5. 86 foizdan past                                                      | 0    |   |      |
| <b>II. Darsning nazariy-uslubiyko'rsatkichlari va ta'minot darajasi:</b> |                                                                           |      |   |      |
| 5.                                                                       | <b>Dars bo'yicha o'quv-uslubiy majmua mavjudligi:</b>                     |      |   |      |
|                                                                          | 5.1. Dars kafedra tavsiya etgan o'quv-uslubiy majmua asosida olib borildi | 8,0  |   |      |
|                                                                          | 5.2. Dars eski o'quv-uslubiy majmua asosida o'tildi                       | 6,0  |   |      |
|                                                                          | 5.3. Dars o'quv-uslubiy majmua to'liq bo'lmagan holda o'tildi             | 3,0  |   |      |
| 6.                                                                       | <b>Darsning ishchi o'quv dasturi va taqvim rejaga mosligi darajasi:</b>   |      |   |      |
|                                                                          | 6.1. Mavzu ishchi o'quv dasturi va taqvim rejaga to'liq mos keladi        | 3,0  |   |      |
|                                                                          | 6.2. Mavzu ishchi o'quv dasturi va taqvim rejaga qisman mos keladi        | 1,5  |   |      |
|                                                                          | 6.3. Mavzu ishchi o'quv dasturi va taqvim rejaga mos kelmaydi             | 0    |   |      |
| 7.                                                                       | <b>Darsning ilmiylik darajasi:</b>                                        |      |   |      |
|                                                                          | 7.1. Mavzuga oid dolzarb masalalarning tahlili keltirildi                 | 6,0  |   |      |
|                                                                          | 7.2. Mavzuga oid dolzarb masalalarning tahlili qisman keltirildi          | 3,0  |   |      |
|                                                                          | 7.3. Mavzuga oid dolzarb masalalarning tahlili keltirilmadi               | 0    |   |      |
| 8.                                                                       | <b>Talabalar darsni qabul qiluvchanlik darajasi:</b>                      |      |   |      |
|                                                                          | 8.1. Mavzuning mohiyatini talaba to'liq ilg'ab olganliklari kuzatildi     | 6,0  |   |      |
|                                                                          | 8.2. Mavzuning mohiyatini talaba o'rtaicha ilg'ab olganliklari kuzatildi  | 3,0  |   |      |
|                                                                          | 8.3. Mavzuning mohiyatini talaba ilg'ab olganmaganliklari kuzatildi       | 0    |   |      |

|     |                                                                                       |     |  |  |
|-----|---------------------------------------------------------------------------------------|-----|--|--|
| 9.  | <b>Darsda talabalarning faollik darajasi:</b>                                         |     |  |  |
|     | 9.1. Darsda talabalarning yuqori darajadagi faolligi kuzatildi                        | 6,0 |  |  |
|     | 9.2. Darsda talabalarning faolligi o'rtacha bo'ldi                                    | 3,0 |  |  |
|     | 9.3. Darsda talabalarning faolligi kuzatilmadi                                        | 0   |  |  |
| 10. | <b>Dars mavzusi bo'yicha adabiyotlar ro'yxatining mavjudligi</b>                      |     |  |  |
|     | 10.1. Mavzuga oid yangi o'quv adabiyotlari talaba e'tiboriga yozma ravishda etkazildi | 3,0 |  |  |
|     | 10.2. Mavzuga oid yangi o'quv adabiyotlari talaba e'tiboriga ogzaki etkazildi         | 1,5 |  |  |
|     | 10.3. Mavzuga oid yangi o'quv adabiyotlari talaba e'tiboriga etkazilmadi              | 0   |  |  |

| T/r                                                     | Dars sifati mezonlari                                                        | Ball |   | Izoh |
|---------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|------|---|------|
| 1                                                       | 2                                                                            | 3    | 4 | 5    |
| <b>III. Darsning bayon usuli:</b>                       |                                                                              |      |   |      |
| 11.                                                     | <b>Dars bayonining sifati:</b>                                               |      |   |      |
|                                                         | 11.1. Dars dialog shaklida muammoli o'tilishi ta'minlandi                    | 9,0  |   |      |
|                                                         | 11.2. Dars qisman dialog va diktovka tarzida o'tkazildi                      | 6,0  |   |      |
|                                                         | 11.3. Dars diktovka tarzida o'tildi                                          | 3,0  |   |      |
| 12.                                                     | <b>Dars jarayonidagi interfaollik darajasi:</b>                              |      |   |      |
|                                                         | 12.1. Darsda interfaollik darajasi yuqori                                    | 6,0  |   |      |
|                                                         | 12.2. Darsda interfaollik darajasi o'rtacha                                  | 3,0  |   |      |
|                                                         | 12.3. Darsda interfaollik kuzatilmadi                                        | 0    |   |      |
| 13.                                                     | <b>Darsda axborot texnologiyalarini qo'llash darajasi:</b>                   |      |   |      |
|                                                         | 13.1. Darsda axborot texnologiyalari samarali qo'llanildi                    | 6,0  |   |      |
|                                                         | 13.2. Darsda axborot texnologiyalaridan foydalanish samarasi o'rtacha bo'ldi | 3,0  |   |      |
|                                                         | 13.3. Darsda axborot texnologiyalari qo'llanilmadi                           | 0    |   |      |
| 14.                                                     | <b>Darsda pedagogik texnologiyalarni qo'llash darajasi:</b>                  |      |   |      |
|                                                         | 14.1. Darsda pedagogik texnologiyalar qo'llanildi                            | 12,0 |   |      |
|                                                         | 14.2. Darsda pedagogik texnologiyalar qisman qo'llanildi                     | 6,0  |   |      |
|                                                         | 14.3. Darsda pedagogik texnologiyalar qo'llanilmadi                          | 0    |   |      |
| <b>IV. Darsning tarbiyaviy ahamiyati:</b>               |                                                                              |      |   |      |
| 15.                                                     | <b>Darsning tarbiyaviy darajasi:</b>                                         |      |   |      |
|                                                         | 15.1. Darsning tarbiyaviy darajasi yuqori                                    | 6,0  |   |      |
|                                                         | 15.2. Darsning tarbiyaviy darajasi o'rtacha                                  | 3,0  |   |      |
|                                                         | 15.3. Darsning tarbiyaviy darajasi past                                      | 0    |   |      |
| <b>V. Darsning sifat darajasi:</b>                      |                                                                              |      |   |      |
| 16.                                                     | <b>Darsning talabga javob berish darajasi:</b>                               |      |   |      |
|                                                         | 16.1. Dars talabga to'la javob beradi                                        | 9,0  |   |      |
|                                                         | 16.2. Dars talabga qisman javob beradi                                       | 6,0  |   |      |
|                                                         | 16.3. Dars talabga javob bermaydi                                            | 3,0  |   |      |
| <b>O'qituvchi to'plagan umumiy ball: (max-100 ball)</b> |                                                                              |      |   |      |

|                                                                           |  |
|---------------------------------------------------------------------------|--|
| <b>O'qituvchining dars sifati yuzasidan qo'shimcha fikr-mulohazalari:</b> |  |
|                                                                           |  |
|                                                                           |  |
|                                                                           |  |
|                                                                           |  |
|                                                                           |  |
|                                                                           |  |
| Darsni tahlil etuvchi:                                                    |  |

|                                    |  |
|------------------------------------|--|
|                                    |  |
| Tahlil natijalari bilan tanishdim: |  |
|                                    |  |

Dars tahlili tugaganidan so'ng o'qituvchining yutuq va kamchiliklari kafedra yig'ilishi yoki navbatdan tashqari yig'ilishda muhokama etiladi. Dars tahlili natijasini muhokama etishda, avvalo, so'z mashg'ulot o'tgan o'qituvchiga beriladi. U dars o'tishdan ko'zlagan maqsadiga erishganligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Shundan so'ng darsni tahlil etganlar o'z fikrlarini iloji boricha dalillar keltirib bildiradilar. O'tilgan mashg'ulotning yutuq va kamchiliklarini ko'rsatadilar, kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini tavsiya sifatida bildiradilar. Bu paytda ma'lum munozara ham bo'lishi mumkin. Har qanday darsni tahlil etishda, avvalo, o'quv materialining o'ziga xosligini, tahsil oluvchilar va o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni unutmaslik zarur. Muhokama oxirida darsning mazmundorligi, ko'zlangan maqsadga erishilganligi, mavjud yutuq va kamchiliklarini o'zida ifodalovchi qisqacha xulosa qilinadi. Shundan so'ng tahlil etuvchilar tomonidan kuzatish va tahlil etish haqidagi hujjatlar rasmiylashtiriladi.

Lekin eslatma o'rnida shuni aytish lozimki, o'qituvchining faoliyatiga va darsining sifatiga bir dars tahlili bo'yicha xulosa chiqarib bo'lmaydi. O'qituvchining faoliyatiga tanqidiy fikr berish uchun uning turli shakldagi bir necha darslarini kuzatish lozim bo'ladi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. Dars tahlili qanday maqsadlarda o'tkaziladi?
2. Dars tahlili qanday shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin?
3. Dars tahlili qanday asosiy tarkibiy qismlardan iborat?
4. Uslubiy va pedagogik tahlil farqini tushuntiring?
5. Dars tahlili bo'yicha rasmiylashtiriladigan hujjatda nimalar aks ettiriladi?
6. O'qituvchilar darsini tahlil etish bo'yicha rasmiylashtirilgan xujjat nimga asos bo'lishi mumkin?

## GLOSSARIY

**Abstrakt tafakkur** -- narsa va hodisalarning bevosita idrok qilish mumkin bo'lmagan xususiyatlari, o'zaro munosabatlari, qonuniyatlari hakidagi mavhum tushunchalar asosida fikrlash turi.

**Abstrakt tushuncha** — narsa va hodisalarning mavhum belgi, xususiyat, sifat va o'zaro munosabatlarini aks ettiradigan tushunchalar.

**Avtoritar pedagogika** — ta'lim-tarbiya jarayoniga rahbarlikda o'qituvchining obro'siga asoslanish, unga ta'lim oluvchilarning ko'r-ko'rona, so'zsiz itoat etishlari.

**Avtoritet** — shaxsniig boshqalar e'tirof qilgan obro'si, fazilati, boshqalarga nisbatan ta'siri va ular tomonidan kadrlanishi.

**Adaptiv mashg'ulot** — ta'lim oluvchining tashi muhitga, jamoaga, mehnat vazifalarini bajara olishga moslashuvini ta'minlashga qaratilgan mashg'ulot.

**Algoritmlash** — pedagogik texnologiya tarkibiy bo'laklari (modullari)ning o'zaro joylashuvini hamda pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirish ketma-ketligi tartibi (qoidasi)ni belgilash jarayoni.

**Bakalavr, magistr** - oliy ta'limning tegishli bosqichiga muvofi dasturlarni muvaffaiyatli o'zlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajalar.

**Bakalavriat** - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan ham bo'lmagan tayanch oliy ta'lim.

**Baholash-** ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan me'zonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayon.

**Bilim** - kishilarning turmushdagi narsa va hodisalar to'g'risidagi, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlari haqidagi tasavvur hamda tushunchalari tushuniladi.

*Ilmiy bilim* — tizimli, asosli va narsa, hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bilishni nazarda tutadi.

*Empirik bilim* — bilishning kuzatish, o'lchash, tajriba usullarini qo'llash natijasi.

*Nazariy bilim* — empirik holatlarni tasvirlash, tushuntiruv, ya'ni narsa-hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochishni nazarda tutadi.

**Bilish** — ob'ektiv borlikning ongda aks etishining oliy shakli, haqiqiy bilimlar hosil qilish jarayoni.

*Hissiy bilish* — sezgilar, idrok, tasavvur orqali.

*Ratsional bilish* — tushunchalar, mulohazalar, aqliy xulosalardan o'tib nazariyalarda o'rin oladi.

**Verbal** – ifodali, og'zaki.

**Didaktika**-grekcha «didakshiuen» so'zidan olingan bo'lib, o'qitaman, o'qishni o'rgataman ma'nolarini anglatadi. Didaktika o'qitish jarayonini shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi.

**Davlat va jamiyat** – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafolatlari.

**Diagnostika** — pedagogikaning bo'limi, ta'lim-tarbiya jarayonlarining maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari, natijalarining sifati va samaradorligini, pedagogik xodimlarning kasbiy tayyorliklari, bilim, ko'nikma, malaka va mahoratlarini, ta'lim oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlari va tarbiyalanganlik darajalarini har tomonlama o'rganish, tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish, baholash va yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish bilan shug'ullanadi.

**Evristik** — yo'naltiruvchi savollar berish yo'li bilan o'qitish tizimi; topqirlik, faollikni rivojlantirishga yordam beruvchi ta'lim metodi; o'quv-izlanishli; optimallashtirilgan tafakkurni rivojlantiradi.

**Eksklyuziv** - g'ayri oddiy, faqat ma'lum bir ob'ektga ta'luqli, o'ziga xos bo'lgan xususiyatlar va boshqa belgilar.

**Empirik** — hissiy tajriba asosidagi bilimlar va ularning yagona manbaini hissiy tajriba deb tushunish.

**Faollik** — biror maqsad yo'lida aqliy, jismoniy va boshqa harakatlarni tez va unumli amalga oshirishga intilish.

**Fan** – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi soha.

**Guruhiy ta'lim** — bir o'qituvchi bir necha ta'lim oluvchini o'qitadigan ta'lim shakli. Guruhlar ta'lim oluvchilar soniga qarab: kichik (3—6 ta'lim oluvchi), o'rta (7—15 ta'lim oluvchi), katta (15 dan ortik ta'lim oluvchi) guruhlariga ajratiladi.

**Hamkorlik pedagogikasi** – ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilarning o'zaro muloqotiga asoslangan shaklda ta'lim berishga yo'naltirilgan tizim.

**Inversiv ta'lim** — ag'darish, joyini almashtirish; tafakkur tizimini shakllantirish yo'nalishidagi ta'lim.

**Innovatsiya** — yangilanishni, o'zgarishni amalga joriy etish, kiritish jarayoni va faoliyati.

**Intellekt** — insonning umuman bilish faoliyati, fikrlash qobiliyati; tushunish, mulohaza, tafakkur.

**Ishlab chiqarish** – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, tayyorgarlik sifati va nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnik jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

**Interfaol mashg'ulot** – o'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot; jarayon hamkorlikda kechadi.

**Kasb**-muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyati turidir. Kasb –hunar sirlarini egallashga umumiy hamda maxsus ma'lumot, amaliy ish-harakat usullarini o'zlashtirish orqali erishiladi.

**Malaka** - ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda yuz beradigan harakatlardir.

**Kichik modul** — pedagogik texnologiya tarkibidagi eng kichik birlikni ifodalaydi.

**Kognitiv** — atrof, inson haqidagi bilim doirasini kengaytirish, differenziyalovchi tafakkurni shakllantirish, bilish ehtiyojlarini rivojlantirish ta'limi.

**Kreativ** — tadkikotchilik xarakteriga ega; ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni jadal (maqsadga yo'naltirilgan) ravishda rivojlantirish ta'limi.

**Ko'nikma (uquv)** - ta'lim oluvchining mehnat harakatini (yoki mehnat harakatlari majmuini) ayni sharoitda ma'qul harakat usullarini tanlab va qo'llab bajarishga va buning oqibatida mehnatda ijobiy natijalarga erishishga tayyor ekanligi.

**Kasbiy pedagogika-** umumiy pedagogikaniqng bir soasi bo'lib, u tarbiya, ta'lim, o'qitish aida kator nazariy va amaliy ma'lumotlar beradi. Kasbiy pedagogika sanoat, ishlab chiqarish va mehnat pedagogikasining masalalari bilan shuullanadi.

**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi** – kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishdir, ya'ni, Respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyat qurish yo'lidan izchil ilgari lab borish; mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgarishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti, asosan xom ashyo yo'nalishidan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustivorligini qaror toptirish, milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat uyg'otish, respublikaning jahondigi mavqei va obro'-e'tiborini mustahkamlanib borishigi erishish.

**Kasbiy pedagogik muloqot** – pedagog va ta'lim oluvchilarning o'zaro zich ijtimoiy – psixologik aloqasi tizimi bo'lib, uning mazmuni axborotlar ayriboshlash, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, kommunikativ vositalar yordamida o'zaro munosabatlarini tashkil etish hisoblanadi.

**Kasbiy tayyorgarlik** – bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi.

**Kasbiy bilimdonlik** – pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi.

**Kasbiy mahorat** – bitiruvchining yuqori darajada kasbiy ko'nikma va malakalarni egallaganligi tushuniladi, u shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo'yicha raqobatbardoshlik darajasi aks ettirishida namoyon bo'ladi.

**Mahorat**- o'zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy harakatlarni (shu jumladan dars berishni) kam kuch va vaqt sarflab bajarish.

**Malaka** — ta'lim oluvchining harakat komponentlarini maksimal aniqlik, tezlik va maqsadga muvofilikda avtomatlashtirilgan usulda bajarishga qobilligi.

**Metod** – iborasi (yunoncha-metodos-tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya ta'limot ma'nosini anglatib) voqelikni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish usullari majmuasidir.

**Metodika**-pedagogikaning o'qitish qonuniyatlari, qoidalari, tashkil etish shakllari, amalga oshirishi va natijalarini nazorat ilib, baholash metod hamda vositalari o'zida mujassamlashtiruvchi fan tarmoidir.

**Metod** – grekcha so'z bo'lib, yo'l, axloq usuli ma'nolarini bildiradi. Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko'rinishi.

**Magistratura** — bakalavriat negizida o'qish muddati kamida ikki yil bo'lgan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim;

**Malakaviy amaliyot** — o'quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va malaka hosil qilish, ta'lim dasturining ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan bir qismi.

**Malaka oshirish** — mutaxassislar va rahbar xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda rivojlantirish jarayoni.

**Malaka talablari** — uzluksiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar.

**Marketing** — bozor xolatini chuqur o'rganish, oldindan baholarni bilgan holda tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar tashkil qilish, g'oyalar yaratish va ularning sotuvini tashkil qilish orqali yuqori foyda olishni ta'minlash.

**Mahorat** — shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati.

**Menejer** — korxona, muassasa, tashkilotni zamonaviy usullar asosida boshharuvchi mutaxassis.

**Menejment** — korxona, muassasa, tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan boshqarish, ya'ni xodimlar va ishchilar mehnatini tashkil qilish tamoyillari, usullari, vositalari, shakllari.

**Modul** — pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi tushuncha. Bu tarkibiy bo'laklar, ya'ni modullar eng kichik bo'laklardan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi.

**Modul darajasi** — pedagogik texnologiyani tasvirlash ko'lamiga muvofiq ravishda tanlangan birlamchi modullarning o'z tarkibida aslida ancha modullarga ega ekanligi ko'rsatkichi.

**Modul to'plami** — pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlash maqsadi asosida bitta modul sifatida hisoblangan bir nechta modullar yiindisi.

**Modullashtirish** — pedagogik texnologiya materiallarini modullarga ajratish jarayoni.

**Monitoring** — korxona, tashkilot, muassasa holatini har tomonlama baholash va uning faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida maxsus tashkil qilingan tizimli kuzatuv.

**Metodika** — biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi.

**Metodist (uslubchi)** — biror o'quv fanini o'qitish yoki tarbiyaviy ishlar metodikasi sohasidagi mutaxassis.

**Metodologik** — metodologiyaga tegishli, nazariy asoslanish.

**Metodologiya** — bilishning ilmiy metodi haqidagi ta'limot.

**Motiv** — odamni o'qishga yoki biror harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi.

**Nazariy tahlil** — pedagogik hodisalarning alohida jihatlarini, belgilari xususiyatlari o'ziga xosligini aniqlash va tahlil qilish.

**Oliy ma'lumot darajasi** - shaxs tomonidan oliy ta'limning muayyan ta'lim dasturini mazkur ma'lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda, o'zlashtirishi natijasi.

**Oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom)** - akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta'limning ta'lim dasturlarini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat.

**Oliy ta'lim** - uzluksiz ta'limning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi bo'lib, u oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

**Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori** - oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati.

**Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti** - ta'limning bakalavriat muayyan yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligiga qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bakalavr yoki magistr tayyorgarligining zaruriy va etarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan me'yoriy hujjat.

**Pedagogika** – ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy masalalarini o'rganuvchi fan bo'lib, u barkamol insonni voyaga etkazish maqsadlariga xizmat qiladi.

**Pertseptiv qobiliyat** – ta'lim oluvchining ruhiy holatini his qilish, tushuna olish orqali yuzaga chiqariluvchi qobiliyat.

**Pedagogik texnologiya** — eng qisqa va umumlashtirilgan ta'rif: barkamol insonni shakllantirish faoliyati.

*Pedagogik texnologiya* — axborotlarni o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni ochish hamda axborotlar orasidagi yangi bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayoni.

*Pedagogik texnologiya* — ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yiindisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-usubiy vositalari majmuidir.

*Pedagogik texnologiya* — bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnikaviy va inson resurslarini va ularning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.

*Pedagogik texnologiya* — ma'lumotlarni o'zlashtirishni ta'minlash uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat.

**Strategiya** — tashkilot, sohalar, hududlar, mamlakat, millat taqdiri uchun jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan, aniq belgilangan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan asosiy harakatlarning uzoq, muddatli dasturi.

**Taktika** — bosh maqsad yo'lida xususiy, orqali masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan harakatlarni tashkil qilish usuli.

**Tarbiya** – 1. Ta'lim berib katta qilish, voyaga etkazish uchun qilinadigan mehnat va g'amxo'rlik. 2. Ish-hunar, odob-axloq o'rgatishga va umuman kishining g'oyaviy va ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi. 3. Parvarish, qarov: 1) tarbiyalab katta qilmoq, voyaga etkazmoq, o'stirmoq, ulg'aytirmoq; 2) ilm-hunar bermoq, odob-axloq o'rgatmoq, tarbiyalab biror xislat-fazilatni singdirmoq; 3) parvarish qilmoq.

**Ta'lim dasturi** - o'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari yoki magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va etarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi, bloklarga jamlangan ro'yxati.

**Ta'lim menejeri** — ta'lim muassasasini zamonaviy menejment qonunlariga muvofiq boshqaruvchi mutaxassis.

**Ta'lim metodi** — o'qituvchining ta'lim oluvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, ta'lim oluvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli.

**Ta'lim sifatini nazorat qilish**-o'qitish mazmuni va natijalarining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiligini tekshirish.

**Texnologiya** — biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llanadigan yo'llar, usullar majmuasi.

**Texnologik xarita** – o'quv mashg'ulotining yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasvvur etish uchun bo'lajak dars jarayonining loyihalashtirilgan xaritali ko'rinishi;

**Trener** — ma'lum yo'nalishda ta'lim olish, mashqlar bajarish bo'yicha trening mashg'ulotlarini olib borish (rahbarlik qilish) uchun maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassis.

**Trening** — ma'lum yo'nalishda ta'lim olish, mashqlar bajarish bo'yicha trenerlar tomonidan (rahbarligida) o'tkaziladigan mashg'ulot.

**Ta'lim** - bilim berish malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni kishini xayotga, mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir.

Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin, u faqat turli ta'lim muassasalarida o'qitish jarayoni emas, balki oila, ishlab chiqarish va shu kabi sohalarida ham ma'lumot o'zlashtirish jarayonidir.

**O'rganish** – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash.

**O'rgatish** - axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarining ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishini turli vosita va usullarni qo'llab tushuntirish, ko'rsatish va mashqlar orqali amalga oshirish jarayoni.

**O'zlashtirish** — tushunish, o'rganish orqali axborotning ma'no-mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmalar hosil bo'lishi.

**O'qitish sifatini nazorat qilish** - talabaning bilim saviyasini tekshirish va uning o'quv dasturini o'zlashtirish darajasini aniqlash.

**O'qitishning me'yoriy muddati** - ta'lim oluvchilar tomonidan ta'lim dasturi o'zlashtirilishi uchun belgilangan muddat.

**O'quv yili** - oliy ta'lim muassasasida bir ta'lim kursini yakunlashga mo'ljallangan o'quv faoliyat davri. O'quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2017-2018 o'quv yili.

**O'quv fanlari bloki** - ta'lim dasturining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o'zlashtirilishini ta'minlaydigan o'quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi.

**O'quv rejasi** - oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mautaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan me'yoriy hujjat.

**O'quv semestri** - oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi.

**O'quv fani** – ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi.

**O'quv fanining dasturi** - ta'lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o'zlashtirishining eng mabul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjat.

**O'qitish metodikasi**- bu turli usullar tizimi bo'lib, o'quv-didaktik materiallaridan foydalanish orqali belgilangan maqsadga erishish uchun nazariy va amaliy mashg'ulotlar paytida qo'llaniladigan usullar majmuasidir.

**Uzluksiz ta'lim** – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

**Uslub** — biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasi.

**Yo'l** (ruscha — priyom) — biror maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan harakat turi.

**Yakka tartibdagi ta'lim** -- ikki xil shaklda bo'ladi: 1) bir ta'lim oluvchini bir o'qituvchi o'qitishi — ta'limning juft shakli; 2) mustaqil ta'lim olish —ta'limning yakka shakli.

**Yakuniy davlat attestatsiyasi** - bakalavr yoki magistr darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartibotlar vositasida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim dasturining bajarilish sifatini baholash.

**Shaxs** – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.- Toshkent, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.- Toshkent, 2017 y, 16-fevral
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga oid chora–tadbirlar to'g'risida”gi PQ-2909 qarori.- Toshkent, 2017 y, 20-aprel.
4. Oliy ta'lim. Me'yoriy – huquqiy va uslubiy xujjatlar to'plami. Toshkent, “Istiqlol”, 2013.
5. Mavlonova R., To'raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika.- Toshkent: “O'qituvchi”, 2001.
6. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- Toshkent: TDPU, 2003.
7. Xodjabaev A.R., Xusanov I. Kasb ta'limi metodologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, “Aloqachi”, 2007.
8. Tojiboeva D., Yo'ldoshev A. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent, “Aloqachi”, 2009.
9. Sharipov SH.S., Vorobev N.A., Muslimov N.A., Ismoilova M. Kasbiy ta'lim pedagogikasi.- Toshkent, TDPU, 2005.
10. Olimov T., Abduquddusov O., Uzoqova L.P., Axmedjonov M., Jalolova D. Kasb ta'limi uslubiyati.- Toshkent, “Iqtisod–moliya”, 2006.
11. K.Mirsaidov, O'.Xidirov, R.Choriev. Ishlab chiqarish ta'limi. –Toshkent, “O'qituvchi”, 2002.
12. Nishonov A., Haydarov V. va boshqalar. Baholash metodlari. Toshkent, “Osiyo tarqqiyot banki”, 2003.
13. Abdurahmonov Sh. Pedagogik kvalimetriya (baholash) asoslari. Ilmiy-ulubiy ishlanma. Namangan, NamMPI, 2013.
14. Скакун В.А. Организация и методика производственного обучения. Учебное пособие.- Москва, ФОРУМ-ИНФРА, 2007.

- 15.Осипова И.В., Тарасюк О.В., Осколова М.В., Локтина В.С. Методика профессионального обучения. Учебное пособие для ВУЗов. Екатеринбург, Изд-во РГППУ, 2010.
16. Эрганова Н.Е. Методика профессионального обучения. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М. Изд. Центр “Академия”, 2007.
- 17.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog o’qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).- Toshkent, 2008.
- 18.Mirsolieva M, Ibragimova G.Ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat.(metodik tavsiyanoma) –Toshkent, TTESI, 2015.
19. Ismoilova Z.K, Maxsudov P.M, S.N.Jo’raeva, N.YU.Umarov. Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi. – Toshkent, “Navro’z”, 2016.
20. Ismoilova Z.K, Maxsudov P.M. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchisini metodik faoliyatga tayyorlash tizimini tahlili. “Ta’lim muammolari”.- Toshkent, 2013,№3
- 21.Ismoilova Z.K, Maxsudov P.M. Magistrantlarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda. “Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi” fanining o’rni.- Toshkent, TIQXMMI, “Irrigatsiya va melioratsiya” Jurnalı 2018, №2 (12)

**Internet saytlari:**

[www.metod.ru](http://www.metod.ru)

[www.pedagog.ru](http://www.pedagog.ru)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[ttp:www.edu.ru](http://www.edu.ru)

Maxsudov Po‘latjon Maxsudovich

Ergashev Oybek Karimovich

Matkarimov Kamoliddin Jo‘raboevich

## **MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI**

Muharir:

Texnik muharrir:

Musahhih: